O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

YAQUBOVA DILARAM TADJIYEVNA

BOZAROV NURALIBEK SAIDMUROD O‘G‘LI

“TARIXIY REKONSTRUKSIYA MASALALARI”

(Darslik)

Andijon – 2026

UO‘K 930:93/94
KBK 63.2
Y 89

Yaqubova D. T. va Bozarov N. S.. “Tarixiy rekonstruksiya masalalari”. Darslik. “Innovative publication” nashriyoti 2026. — 198b.

Mazkur darslik 70220301 – “Tarix: yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha” mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan magistrantlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda “Tarixiy rekonstruksiya masalalari” fani zamonaviy metodologik tahlillar asosida yoritiladi. Nashrdan o‘rin olgan o‘quv rejalari, amaliy topshiriqlar va tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati magistrantlarning fundamental bilimlarini boyitishga xizmat qiladi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti kengashining 2026-yil 3-iyundagi 10-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

Nazirov Baxtiyor Safarovich - Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix va falsafa kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

M. B. Qurbonova - Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi professori, tarix fanlari nomzodi.

ISBN 978-9910-5444-6-0

© Yaqubova D. T. va Bozarov N. S..

© Innovative publication, 2026.

“Rekonstruksiya - o‘tmish tilini bugungi avlodga tushuntirib beruvchi tarjimondir”.

M.M. Gerasimov

KIRISH

Ushbu darslikda Tarixiy rekonstruksiya masalalari fani doirasida o‘tmishdagi moddiy va ma’naviy merosni qayta tiklashning nazariy-metodik asoslari, tarixiy jarayonlarni ashyoviy va mantiqiy anglashda fanlararo yondashuvlarning o‘rni hamda sohaning zamonaviy tadqiqot usullari yorit ilgan. Shuningdek, fanning predmeti, ob’ekti va rivojlanish qonuniyatlari, tarixiy voqelikni ashyoviy manbalar yordamida qayta jonlantirishning ilmiy va amaliy ahamiyati, fanning tuzilishi hamda tasnifi kabi masalalar tahlil qilingan. Darslik mazmuni tarixiy rekonstruksiya sohasidagi mavjud ilmiy adabiyotlar, jahon va milliy restavratsiya maktablari tajribasi hamda so‘nggi yillarda olib borilayotgan innovatsion tadqiqot ishlari bilan qamrab olingan.

Fanni o‘qitishdan maqsad – magistrantlarda tarixiy rekonstruksiya fanining maqsadi va vazifalari, uning tarix fanlari tizimidagi o‘rni, o‘tmishni qayta tiklashda dunyo miqyosidagi ilg‘or yondashuvlar hamda muvaffaqiyatli amalga oshirilgan yirik loyihalar haqida tizimli b3ilimlar shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – magistrantlarga tarixiy ob’ektlar va jarayonlarni ashyoviy tiklashda moddiy manbalarning tutgan o‘rni, fan masalalarini yechishda qo‘llaniladigan qiyosiy-tarixiy va eksperimental metodlar, tarixiy tadqiqotlarda arxiv hujjatlari hamda dala qazishmalari natijalarining amaliy ahamiyatini tushuntirish, shuningdek, soha doirasidagi zamonaviy texnologik yutuqlarni o‘rgatishdan iborat.

Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida magistrant:

- Tarixiy rekonstruksiya sohasidagi innovatsiyalar, moddiy merosni saqlash va qayta tiklashning nazariy asoslari hamda sohaning metodologik tamoyillari haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lishi;

- Restavratsiya va konservatsiya jarayonlarining umumiy imkoniyatlarini, tarixiy obidalarni ashyoviy tiklashda xalqaro standartlardan foydalanish afzalliklarini bilishi kerak;
- Arxiv hujjatlari, chizmalar va arxeologik topilmalar yordamida tarixiy inshootlar, liboslar va ijtimoiy muhitni tahlil qilish hamda ularning ilmiy modellarini yaratish;
- Magistrant tarixiy ashyolarni ilmiylik, tarixiylik va xolislik metodlari asosida interpretatsiya qilish, ularni o‘tmish davr muhitiga mos holda baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;
- Zamonaviy modellashtirish usullaridan foydalanish, tarixiy tadqiqotlarda eksperimental arxeologiya va rekonstruksiya usullarini qo‘llay olish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

1-MAVZU: FANNING NAZARIY VA AMALIY MASHG‘ULOTLARI MAZMUNI

REJA:

1. **Fanning maqsadi, vazifalari va dolzarbligi**
2. **Arxeologiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar. Arxeologik ma’lumotlarni o‘rganish va umumlashtirish uslublari**
3. **Ijtimoiy tizimning rekonstruksiyasi. Sivilizatsiya va davlatchilik tarixini o‘rganish usullari**
4. **Arxeologiyada tarixiy rekonstruksiyaga oid ilmiy qarashlar va yondoshuvlar**

1. Tarixiy rekonstruksiya (qayta qurish) — muayyan bir tarixiy davr va mintaqaning moddiy yoki ma’naviy madaniyatini ilmiy metodologiya asosida qayta tiklash jarayonidir. Bu jarayon Rim zirhlari namunasini yaratish kabi moddiy ashyolarni tayyorlashdan tortib, Austerlits jangi kabi yirik tarixiy voqealarni teatrlashtirilgan shaklda takrorlashgacha bo‘lgan keng ko‘lamni qamrab oladi.

Bugungi kunda tarixiy rekonstruksiya harakati tarix va san’atga qiziquvchi mutaxassislar hamda tadqiqotchilar orasida keng ommalashgan. Ushbu yo‘nalish ishtirokchilari, odatda, ma’lum bir hudud va davrga xos bo‘lgan liboslar, qurol-yarog‘lar, himoya vositalari va maishiy anjomlardan iborat yaxlit tarixiy majmuani yaratishga intiladilar. Bunda asosiy e’tibor buyumlarning iloji boricha o‘sha davrda mavjud bo‘lgan xomashyo va texnologiyalardan foydalangan holda tayyorlanishiga qaratiladi.

Rekonstruksiya jarayonida har bir elementning haqqoniyligi quyidagi ilmiy manbalar orqali tasdiqlanishi shart:

- Arxeologik topilmalar: Qazishmalar natijasida aniqlangan moddiy ashyolar.
- Vizual manbalar: Davrga oid tasviriy san’at namunalari, freska va

miniatyuralar.

- Yozma manbalar: Tarixiy hujjatlar, xotiralar, yilnomalar va epigrafik yozuvlar.

Tarixiy qayta qurishning fundamental g‘oyasi — yaratilgan majmuani amaliyotda qo‘llashdir. Bu jarayon "eksperimental arxeologiya"ning bir qismi bo‘lib, ma’lum ashyolardan foydalanish imkoniyatlari borasidagi ilmiy farazlarni amaliy tajriba orqali tasdiqlash yoki rad etish imkonini beradi.

Rekonstruksiya jarayoni ko‘p qirrali bilimlar majmuasini talab etadi; masalan, turar-joyni tiklash uchun qadimgi quruvchining texnik imkoniyatlari, hudud iqlimi, tuproq tarkibi va me’moriy tarhni bilish shart. I.Ye.Matyushkin taklif etgan metodologiyaga ko‘ra, manbalar empirik (bevosita kuzatuv), gipotetik (yordamchi fanlar) va o‘xshashlik (etnografiya) turlariga bo‘linadi.[1] Ushbu ko‘p bosqichli yondashuvning eng yuqori nuqtasi tarixiy interpretatsiya bo‘lib, uning boshlang‘ich darajasi texnologik jarayonlarni o‘rganishdir. Bu borada akademik T.Shirinovning paleoiqtisodiy ma’lumotlar va mehnat xarajatlarini tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlari uslubiy namuna bo‘la oladi.[2] Arxeologiyaning insoniyat o‘tmishini o‘rganuvchi boshqa fanlardan ustunligi shundaki, manbalarni joyiga va vaqtiga aniq bog‘loy olishida, kamchiligi izlarning doimo ham to‘liq bo‘lmasligi. Arxeologiyaning ustunligi va o‘ziga xosligi shundaki, u o‘tmishni aks ettiruvchi real materiallar bilan ishlaydi.

Arxeologiya fanining fundamental asosi shunchaki yodgorliklarni qazib o‘rganish emas, balki tarixiy rekonstruksiya usuli yordamida o‘tmish voqeligini qayta tiklashdan iboratdir. Ushbu jarayonda moddiy ashyolarning tarixiy manba maqomini olishi uchun nafaqat an’anaviy, balki zamonaviy va noan’anaviy tadqiqot usullaridan, xususan, texnik va tabiiy fanlar imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish

[1] Матюшкин И.В. Модель построения локальной палеоэкологической реконструкции / /Проблемы палеоэкологии древних обществ. М. 1993. с.60-63

[2] Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд: Институт археологии АН РУз, 2002. – 140 с.

talab etiladi. Arxeologik ob’yekt qadimgi insonlar hayot faoliyatining moddiylashgan in’ikosi bo‘lgani sababli, fanda arxeologiya tushunchasi “moddiy madaniyat tarixi” atamasi bilan uzviy bog‘liq holda qo‘llaniladi. Bu yo‘nalishda topilgan artefaktning moddiy qiymati — u oltin buyum bo‘ladimi yoki oddiy sopol siniqlarimi — bir xil ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib, arxeologning bosh vazifasi ushbu “soqov” qoldiqlarni tahlil qilish orqali o‘tmish manzarasini “jonlantirish” hisoblanadi.

Arxeologik manbalar asrlar davomida tabiiy va inson omili ta’sirida deformatsiyaga uchragan izlar bo‘lib, ularni to‘g‘ri interpretatsiya qilish uchun nafaqat ko‘rish, balki tizimli “o‘qiy olish” mahorati zarur. Faqatgina chuqur tahlil va rekonstruksiyadan so‘nggina bu izlar to‘laqonli tarixiy manbaga aylanadi. Arxeologiyaning o‘ziga xosligi va ustunligi uning real, moddiy ashyolar bilan ishlashidadir, biroq izlarning doimo fragmentar (to‘liq emasligi) ekanligi ma’lum qiyinchiliklarni tug‘diradi. Shu sababli, inson faoliyatining yo‘qolib ketgan qirralarini tiklashda etnografik kuzatuvlar va paralellardan foydalanish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Etnografiya mavjud hayotiy jarayonlarni o‘rganishi tufayli, arxeologik materiallardagi bo‘shliqlarni to‘ldirish va qadimgi insonlarning turmush tarzi, hatto dunyoqarashini rekonstruksiya qilish imkonini beradi.

Izlarni fiksatsiya qilish (muhrlash) ularni interpretatsiya qilish (sharhlash) imkoniyatlarining asosi hisoblanadi. Bu birinchi navbatda arxeologning kuzatuvchanligiga bog‘liq. Tadqiqotchi nimani kuzatsa, shuni fiksatsiya qiladi (qayd etadi) va aynan shundan ma’lumot oladi.Qadimgi tarixning tabiat bilan bog‘liqligi sabab rekonstruksiyada palekologiyani ahamiyatini oshiradi. Arxeologiyaning asosiy tadqiqot ob’yekti bu manzilgohlar hisoblanadi. Manzilgohlar bir davrga oid yoki turli davrlarga tegishli manzilgohlar bo‘lishi mumkin, Ularni rekonstruksiya qilishda ketma-ketlikka e’tibor qaratish zarur. Manzilgohning joylashgan joyi, uning qancha vaqt davomida faoliyat yuritganligi va maydoni uning o‘zlashtirish tizimi va demografik aniqlashga asos bo‘ladi.

Arxeologiya bevosita etnogenez muammolari bilan ham to‘qnashadi. Etnograflarning xulosalari ko‘pincha nazariy, lingvistlarniki esa gipotetik xarakterga ega bo‘lgan bir paytda, arxeologlar moddiy madaniyat (qabr turlari, sopol buyumlar va ulardagi naqshlar) orqali real kulturogenez jarayonlarini kuzatadilar. Masalan, Farg‘onadagi Eyloton yodgorligidan quyi Sirdaryoga xos Chirikrabot madaniyati buyumlarining topilishi qadimgi migratsiyalar va madaniy sintezdan dalolat beradi. Shuningdek, Chust madaniyatidagi yerto‘lalar asosida o‘sha davr mehnat qurollari haqida xulosa chiqarish yoki sopol idishlarning shakliga qarab aholining ko‘chmanchi yoki o‘troq hayot tarzini (masalan, chorvadorlarga xos osma teshikli idishlar) aniqlash mumkin.[3]

Yodgorliklardagi ijtimoiy manzara ham moddiy dalillar orqali o‘qiladi: qabrlardagi ashyolar miqdori ijtimoiy tabaqalanishni, hashamatli saroylar yoki mudofaa devorlari esa markazlashgan boshqaruv tizimi yuzaga kelganini tasdiqlaydi. Arxeologik materiallar, yozma manbalardan farqli o‘laroq, maxsus ma’lumot qoldirish maqsadida emas, balki kundalik hayotning tabiiy natijasi sifatida yuzaga kelganligi sababli, ularda “siyosiy buyurtma” bo‘lmaydi. Biroq, bu manbalarning ham chegarasi bor; masalan, paleolit davri manzilgohlari urug‘chilikning patriarxat yoki matriarxat ekanligi haqida aniq ma’lumot bera olmaydi. Shunga qaramay, arxeologiya yozuvgacha bo‘lgan ulkan davrni o‘rganishda o‘tmish izlarini o‘qiy oladigan va moddiy qoldiqlarni real tarixga aylantira oladigan yagona fan bo‘lib qoladi. Etnografik materiallarni arxeologik rekonstruksiyada qo‘llashning klassik namunasini biz S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspedisiyasi faoliyatida ko‘rishimiz mumkin.

Nisbatan yaxshi o‘rganilgan hudud materiallari ham to‘laqonli xulosa chiqarishimizga yetarli bo‘lmaydi. Ushbu hududning boshqa hududlar bilan o‘zaro

[3] Сагдуллаев А.С. Этнокультурные связи древних народов Средней Азии и сопредельного Востока. – Ташкент: Университет, 2011. – 186 с.

aloqalarini ham e’tiborga olishimiz zarur. Yodgorlikdan topilgan predmet faqatgina uning nimadan yasalganligi, qanday ishlov berilganligi, shakli va naqshi borasidagina ma’lumot beradi.



1.1-rasm. Yodgorliklardagi ijtimoiy manzaraning qayta tiklangan ko‘rinishi.

Aksariyat yodgorliklar ko‘p qatlamli bo‘ladi, tadqiqotchi bunga e’tibor berishi lozim. Aks holda aralashib ketgan material o‘z ilmiy qiymatini yo‘qotadi. Yodgorliklarni ulardagi qurilishlarga qarab davrlarga ajratish ketma-ketlikda keladigan davriy shkalani ishlab chiqish imkonini beradi. Qurilish davri ichidagi madaniy qatlamlar esa davrlar ichida bosqichlarga ajratish imkonini beradi. Arxeologik komplekslar yopiq komplek va ochiq komplekslarga bo‘linadi. Yopiq komplekslarga masalan xumdondan olingan material misol bo‘la oladi. Yopiq kompleksda turli madaniyatga oid materiallarning birgalikda uchrashi tasodif bo‘lmaydi va u aniq bir davrdagi vaziyatni o‘zida aks ettiradi. Biroq uy-joylar, manzigohlar yopiq kompleks bo‘la olmaydi. Zero, ularga inson uzoq davr maboynida ta’sir o‘tkazib kelgan bo‘ladi. Yodgorlik emas, olingan kompleks davrlashtirish ob’yekti hisoblanadi.

Yodgorlik hududidagi ma’lum bir madaniy qatlamdan turli madaniyatlarga oid predmetlarning topilishi migratsiyalar jarayonidan, shuningdek, sintez (qorishuvdan) ham dalolat beradi. Masalan, Farg‘onadagi Eyloton yodgorligida aniqlangan madaniy qatlamdan quyi Sirdaryo hududida yashagan chirikrabot madaniyatiga xos sopol idishlarning topilishi ularning Farg‘onaga migratsiyasi va mahalliy aholi bilan qorushuvi yuz berganligi borasida fikr bildirish imkonini beradi

Shu bilan birga Qo‘g‘ay-Qorabuloq madaniyatining o‘ziga xosliklaridan biri sopol idishlarida chizilgan naqshlarning uchrashi ham ularning quyi Sirdaryo ko‘chmanchi chorvadorlari bilan bog‘lash imkonini beradi.

2. Qadimgi jamiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasini aniqlash zamonaviy arxeologiya fanining eng dolzarb va o‘ta murakkab yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Arxeologik adabiyotlarda bu masala turlicha talqin qilinsa-da, ko‘p hollarda tadqiqotlar xo‘jalik faoliyatiga oid ashyoviy topilmalarni shunchaki qayd etish yoki tor doiradagi tavsiflar bilan cheklanib qoladi. Vaholonki, jamiyatning haqiqiy qiyofasini tiklash uchun oddiy artefaktlar bayonidan paleoiqtisodiy tahlil bosqichiga o‘tish zarur. Bu jarayonda asosiy e’tibor oziq-ovqat ishlab chiqarish tizimiga — ya’ni dehqonchilik va chorvachilikning texnologik asoslariga qaratiladi.

Arxeologik metodologiyada tub burilish yasagan yo‘nalishlardan biri — S.A. Semenov tomonidan asos solingan trassologik (eksperimental) usuldir. Ushbu metod mehnat qurollarining ishchi yuzalarida qolgan mikroskopik izlarni o‘rganish orqali ularning funksional vazifasini aniq belgilash imkonini berdi. Bu usulning joriy etilishi natijasida arxeologiya sub’yektiv taxminlardan voz kechib, eksperimentlarga tayangan hujjatli ma’lumotlar bazasiga ega bo‘ldi. Ibtidoiy ishlab chiqarishning moddiy-texnik bazasini rekonstruksiya qilishda Semenov, Korobkova, Shchelinskiy va Matyuxin kabi olimlarning tadqiqotlari fundamental poydevor vazifasini o‘tadi. O‘zbekiston arxeologiyasida ushbu an’analarni T. Shirinov muvaffaqiyatli davom ettirib, o‘z tadqiqotlarida qadimgi qurollarning unumdorligi va xo‘jalik yuritish

shakllarini ilmiy asoslab berdi.[4]

Xo‘jalik hayotini tiklashda osteologik (paleozoologik) materiallarning o‘rni beqiyosdir. Agar dastlabki davrlarda hayvon suyaklari faqatgina faunistik ro‘yxat tuzish uchun xizmat qilgan bo‘lsa, Bibikova, Vereshchagin va Pidoplichko kabi mutaxassislarning ishlari tufayli suyak qoldiqlari asosida aholining asosiy xo‘jalik yo‘nalishlarini (ovchilik yoki chorvachilik) aniqlash imkoni tug‘ildi. Shu bilan birga, paleobotanik materiallar (Yanushevich, Pashkevich, Lisitsina) qadimgi aholining dehqonchilik madaniyati, ekin turlari va ratsionini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bronza va ilk temir davri iqtisodiyotini o‘rganishda metallografiya va spektral tahlil usullari metallurgiya texnologiyalarini rekonstruksiya qilish imkonini beradi. Barseva, Kolchin va Chernyix kabi olimlarning tadqiqotlari, shuningdek, V. Ruzanovning ishlari metall ishlab chiqarishdagi lokal xususiyatlarni va hududlararo madaniy-texnologik aloqalarni ochiqlab berdi. Masalan, I.N. Xlopin Geoksyur madaniyati misolida dehqonchilikning oddiy tayoq-belkurakli usuldan rivojlangan shakllarga o‘tishini, chorvachilikda esa iqlim qurishi natijasida mayda shohli mollarning (qo‘y va echki) ulushi ortganini va yaylov chorvachiligi shakllanganini ko‘rsatib berdi.[5]

Kompleks tarixiy rekonstruksiyaning yuksak namunasi sifatida S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologo-etnografik ekspedisiyasini keltirish mumkin. Ushbu ekspedisiya tarkibida biologlar, biologlar va topograflar bilan birgalikda ishlagan B.V.Andrianov Orolbo‘yi mintaqasida 4,5 ming yillik sug‘orma dehqonchilik tarixini tikladi. Uning tahlillari natijasida qadimda 5 million gektar yerning sun’iy sug‘orish orqali o‘zlashtirilishi mantiqiy va ishonarli tarzda isbotlandi. Andrianovning xizmati shundaki, u qazishmalar jarayonidayoq topilmalarga

[4] Ширинов Т.Ш. Производство оружия и орудий труда в эпоху бронзы Среднеазиатского Междуречья. – Ташкент: Фан, 1986. – 134 с.
[5] Хлопин И.Н. Геоксюрская группа поселений эпохи энеолита : Опыт ист. Анализа. М.; Л., 1964.

kompleks yondashish zarurligini amalda ko‘rsatdi.

Shuni yodda tutish kerakki, arxeologik materiallarni interpretatsiya qilishda etnografik paralellar hayotiy zaruriyatdir. Ye.Ye. Kuzmina ta’kidlaganidek, arxeologik qatlamdagi suyaklar soni har doim ham real podadagi hayvonlar nisbatini aks ettirmaydi, chunki hayvonlarning so‘yilish yoshi (ot 3 yoshda, qoramol 4 yoshda) turlicha bo‘ladi. Etnografik ma’lumotlar yordamida biz omoch kabi asboblarning nafaqat yer haydash, balki kesak maydalashda ham qo‘llanilganini yoki ilk dehqonlar yerga ishlov bermasdan ham hosil olishganini bilib olamiz. G‘ildirakli aravalar va qo‘l tegirmonlari haqidagi bilimlarimiz ham aynan etnografik qiyoslashlar orqali boyitiladi.Yakuniy xulosalar sifatida S.A. Semenovning dehqonchilikning kelib chiqishi va V.A.Shnirelmanning chorvachilik shakllanishi borasidagi nazariyalari muhimdir. Semenovga ko‘ra, dehqonchilik daryo va ko‘l bo‘ylaridagi o‘troq nuqtalarda, oziq-ovqat zahirasini barqarorlashtirish ehtiyoji natijasida yuzaga kelgan. Shnirelman esa chorvachilikni ovchilikning ixtisoslashuvi natijasi sifatida ko‘rib, dastlab sutchilik va go‘sht yo‘nalishlari rivojlanganini, keyinchalik esa ko‘chmanchi va intensiv yo‘nalishlar farqlanganini ta’kidlaydi. Shunday qilib, zamonaviy arxeologiya fanlararo integratsiya orqali qadimgi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy manzaralarini barcha qirralari bilan tiklash imkoniga ega bo‘lmoqda.

Etnosning shaklanishida etnik o‘z-o‘zini anglash muhim shart hisoblanadi. Etnik o‘z-o‘zini anglash ya’ni “o‘zinikilar” va “begonalar” tushunchasi migratsiyalar sharoitida ko‘rinadi. Arxeologiya, har qanday tarixiy fan kabi, birinchi navbatda, o‘tmishdagi tarixiy voqealikni qayta tiklashga qaratilgan. Biroq arxeologik ma’lumotlar simvollardan, so‘z va konsepsiyalardan iborat emas, arxeologik ma’lumotlar o‘tmish borasida real va to‘la guvohlik berish uchun uvchi moddiy madaniyat bo‘laklaridan orat. Ular o‘tmishdagi voqealikni to‘liq va aniq ifodalash uchun juda ham uzun-yuluq bo‘lgan moddiy madaniyat bo‘laklaridan iborat. Moddiy manbadan ma’lumot olish uchun arxeologiya fani doirasidan tashqariga chiqadigan

eng xilma-xil materiallarga asoslanib, o‘ziga xos usullar ishlab chiqiladi. So‘nggi paytlarda mahalliy arxeologiyada moddiy materialni tahlil qilish bilan bog‘liq yo‘nalishlar faol rivojlana boshladi. Tabiiy fanlar ma’lumotlari va matematik tahlil vositalarini keng jalb qilgan holda fiziologik va eksperimental tadqiqot usullari rivojlandi. Shu bilan birga, to‘laqonli arxeologik rekonstruksiyani yaratish uchun tadqiqotchilarda eng muhim narsa–real voqealikning inson faoliyatining qoldiqlari va izlariga aylanishiga ta’sir etuvchi mexanizm va qonuniyatlar borasida bilim mavjud emas.

XX asrning 60-70 yillarida arxeologik rekonstruksiyada etnografiyadan samaraliroq foydalanish maqsadida madaniy-xo‘jalik va ekologik mezonlar bo‘yicha tajriba to‘play boshladi, etnogenetik yo‘nalishda ishlar yanada chuqurlashtirildi. Hozirgi vaqtda arxeologik rekonstruksiya qilish uchun etnografik modellarni qo‘llashning uslubiy mezonlari yo‘qligi aniq. Ushbu modellar arxeologik manbalarga kuchsiz moslashgan va arxeologik tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan mustahkam bog‘lanmagan. Moddiy qoldiqlarga xos ma’noni tushunish uchun bu narsalarning manbaa maqomini olgan mexanizmlarini bilish kerak: ularning o‘zgarishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatdi va hozirgi vaqtda arxeologlar kuzatadigan xarakterli xususiyatlar qanday rivojlangan.

Ibtidoiy jamiyatning ijtimoiy tashkilotini o‘rganish XIX asrning ikkinchi yarmiga, Yevropada birinchi ilmiy etnografik maktab — evolyutsionizm shakllangan davrga borib taqaladi. Evolyutsionistlarning deyarli barcha asarlarida ibtidoiy jamiyat tashkiloti, qarindoshlik tizimlari, oila va nikoh shakllari, ekzogamiyaning vujudga kelishi hamda u bilan birga urug‘ va fratrial tashkilotlarga alohida e’tibor qaratilgan. Bu masalalarga E. Vestermark, Yu. Lippert, K. Starke to‘xtalib o‘tganlar, ammo ayniqsa L. G. Morganning tadqiqotchilik faoliyatini alohida ta’kidlash lozim. Morgan birinchi bo‘lib irokezlar misolida ibtidoiy jamiyatlarning urug‘ va fratrial tashkiloti masalasini o‘rtaga qo‘ydi va batafsil o‘rgandi. U butun ibtidoiy jamiyatning birlamchi

hujayrasi aynan urug‘ degan xulosaga keldi; uning asosiy belgilari — urug‘ hokimiyatining saylanishi, ekzogamiya, o‘zaro meros huquqi, o‘zaro yordam va h.k. Keyinchalik ushbu tadqiqot natijalari an’anaviy jamiyatlarda belgilovchi sotsiomadaniy hodisa sifatida dual tashkilot tushunchasini ishlab chiqishga asos bo‘ldi (L. Feyson va A. Xauitt). E. B. Taylor urug‘, ekzogamiya, dual tashkilot, qarindoshlik tizimlari tasnifi masalalarini o‘rganishni davom ettirdi. L. G. Morgan va L. Feyson ishlariga tayanib, u dual-urug‘ tashkiloti ilgari mutlaqo mustaqil bo‘lgan ikki inson guruhining birlashishi natijasida yuzaga kelgan degan xulosaga keldi. Keyinchalik etnografiyadagi funksionalistik yo‘nalish asoschisi B. Malinovskiy ilm-fanda shakllangan “jamiyatning dual bo‘linishi ibtidoiy qabilaning nikoh maqsadlarida ikki ekzogam qismga parchalanishi natijasidir” va “bu nikoh aloqalarini rivojlantirish maqsadida ilgari mustaqil bo‘lgan ikki qabilaning birlashishi natijasidir” degan qarashlarga qarshi chiqdi. U dual bo‘linishni shunchaki nikoh aloqalari tashkiloti sifatida emas, balki odamlar tomonidan anglanmaydigan jamiyat tuzilishining majburiy simmetriyasi ko‘rinishi sifatida ko‘rib chiqishni taklif qildi.

Etnografik ma’lumotlarni strukturalistik konsepsiya pozitsiyasidan ko‘rib chiqqan K. Levi-Stros dual tashkilotning diametral va konsentrik tuzilishi tushunchalarini kiritdi. Birinchisi ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi muvozanatni, ikkinchisi esa har doim ularning teng huquqli emasligini aks ettiradi. U dual tashkilotni nafaqat jamiyatdagi nikoh aloqalari tizimi, balki har bir alohida shaxs va butun jamiyat faoliyatini belgilaydigan, masalan, manzilgohlar rejasida qayd etiladigan anglanmagan mental struktura sifatida tasavvur qilgan.[6] Turli qit’alardagi qabilalarning ijtimoiy tashkiloti masalalari V.R.Kaboning monografiyasida, shuningdek, inson jamiyatida nikoh va oilaning kelib chiqishi va dinamikasini tadqiq qilgan Yu.I.Semyonovning ishlarida batafsil bayon etilgan.

[6] Levi-Strauss C. Structural Anthropology. – New York: Basic Books, 1963. – 410 p.

3. Sivilizatsiya va davlatchilik tarixini tadqiq etishda ijtimoiy tizimning rekonstruksiyasi nafaqat tarixiy o‘tmishni qayta tiklash, balki jamiyatning ichki dinamikasi, boshqaruv institutlari va madaniy qatlamlarini ilmiy tahlil qilishning fundamental metodologik asosi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu murakkab jarayon moddiy qoldiqlarni, yozma manbalarni va ijtimoiy munosabatlarni bir butunlikda ko‘rishni talab etadi. Arxeologik materiallardan tarixiy rekonstruksiyada foydalanish o‘zining mantiqiy izchilligiga ko‘ra uchta asosiy bosqichdan iborat: tajriba (eksperiment), bayon qilish (opisaniye) va tushuntirish (ob’yasneniye). Bu bosqichlar zanjiri arxeologik artefaktni oddiy ashyodan tarixiy dalil darajasiga ko‘taruvchi ilmiy filtr vazifasini o‘taydi.

Tajriba bosqichi bevosita dala-tadqiqot ishlari, qazishmalar va laboratoriya tahlillari orqali artefaktlarning birlamchi massasini to‘plashni anglatadi. Bu jarayonda har bir topilmaning stratigrafik holati, uning atrofidagi boshqa ob’ektlar bilan bog‘liqligi va xomashyo tarkibi o‘rganiladi. Bayon qilish bosqichida esa ushbu to‘plangan ma’lumotlar tizimlashtirilib, ilmiy muomalaga kiritiladi. Bu yerda ob’ektning shakli, o‘lchami, bezaklari va texnik xususiyatlari batafsil qayd etiladi. Bayon etish jarayoni tadqiqotning eng mas’uliyatli qismlaridan biri bo‘lib, u tajribada qo‘lga kiritilgan natijalarni ilmiy jamoatchilik uchun ochiq faktga aylantiradi. Eng yuqori va murakkab bosqich hisoblangan tushuntirish jarayonida esa bayon qilingan ma’lumotlar shu paytgacha ma’lum bo‘lgan umumiy tarixiy qonuniyatlar va fundamental bilimlar bilan o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilinadi. Natijada, har bir arxeologik materialning muayyan sivilizatsiya tizimidagi o‘rni, uning ijtimoiy funksiyasi va taraqqiyot bosqichlaridagi ahamiyati aniqlanadi.

Rekonstruksiya tushunchasining o‘zi o‘tmishda sodir bo‘lgan ijtimoiy voqelikning o‘ziga xosligi, o‘zaro munosabatlari va institutsional aloqalarini ilmiy farazlar hamda moddiy dalillar sintezi orqali qayta tiklashni ifodalaydi. Bu jarayonda gipotezalar (farazlar) ko‘rinishidagi ilmiy ta’limotlar aynan arxeologik materiallar

yordamida verifikatsiya qilinadi. Tarix fanida har qanday nazariya moddiy ashyo bilan tasdiqlanmaguncha gipoteza bo‘lib qolaveradi. Masalan, O‘rta Osiyoning janubiy hududlarida (xususan, Namozgoh madaniyati kabi eneolit davri yodgorliklarida) eneolit davri so‘ngida kollektiv qabrlarning paydo bo‘lishi uzoq vaqt davomida mutaxassislar o‘rtasida turli bahslarga sabab bo‘lgan.[7] Dastlab, bu holat jamiyat hayotida katta oilali jamoalarning roli oshganligi, urug‘chilik munosabatlarining yangi bosqichga ko‘tarilganligi bilan izohlangan. Biroq, bu nazariya faqatgina dafn marosimlari va qabrlarni o‘rganish natijasida bildirilgan bir tomonlama faraz edi.

Keyinchalik, aynan o‘sha davrga oid turar-joy qoldiqlarini keng ko‘lamli o‘rganish natijasida, ko‘p xonali murakkab uy-joy majmualarining shakllanganligi aniqlandi. Ushbu uylarning umumiy xo‘jalik hovlisiga, markazlashgan oshxonaga va yirik omborxonalarga ega ekanligi, unda bir necha kichik oilalardan tashkil topgan katta bir jamoa istiqomat qilganligini moddiy jihatdan isbotladi. Bu yerda qabrlardan olingan ma’lumotlar (dafn etish tartibi) va turar-joylardan olingan ma’lumotlar (maishiy hayot tarzi) bir-birini mantiqiy to‘ldirib, gipotezani ilmiy haqiqatga aylantirdi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv ijtimoiy tizimning nafaqat tashqi qobig‘ini, balki uning ichki mexanizmlarini ham tushunishga yordam beradi.

Tarixiy rekonstruksiya jarayonida manbalarning ko‘p qirraliligi va ularning o‘zaro muvofiqligi tadqiqotning ob’ektivligini ta’minlovchi asosiy mezondir. Agar tadqiqotda faqat bir turdagi manba (masalan, faqat yozma manba yoki faqat moddiy ashyo) qo‘llanilsa, natija sub’ektiv yoki to‘liq bo‘lmasligi mumkin. Sivilizatsiya tarixini o‘rganishda arxeologik materiallar, paleografik bitiklar, numizmatik ma’lumotlar va etnografik parallellar bir-birini tekshirishi va tasdiqlashi lozim.

Davlatchilik tarixini tadqiq etishda tarixiy-qiyosiy metod, retrospektiv tahlil va tizimli-strukturali yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Bu usullar orqali davlatni yaxlit

[7] Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг шаклланиши масалалари (энеолит ва бронза даври мисолида). – Самарқанд: 2009. – 230 б.

bir mexanizm sifatida koʻrib, uning tarkibiy qismlari — ma’muriy boshqaruv, armiya, soliq tizimi va rasmiy mafkura oʻrtasidagi bogʻliqlik oʻrganiladi. Xususan, monumental me’morchilik — saroylar davlat qudratining vizual manifesti sifatida tahlil qilinadi. Ularning joylashuvi, oʻlchami va bezaklari jamiyatdagi siyosiy iyerarxiyani hamda davlatning iqtisodiy salohiyatini aks ettiradi. Shu bilan birga, oddiy xalq turar-joylarining rekonstruksiyasi jamiyatning quyi qatlamlari turmush tarzi, ularning ekologik va ijtimoiy sharoitlarga moslashish strategiyalarini ochib beradi.

Bir soʻz bilan aytganda, ijtimoiy tizimning rekonstruksiyasi sivilizatsiya va davlatchilik tarixini shunchaki sanalar ketma-ketligi emas, balki jonli va dinamik jarayon sifatida koʻrish imkonini beradi. Arxeologik materiallardan tajriba-bayon-tushuntirish algoritmi asosida foydalanish oʻtmishdagi "jim" ashyolarni soʻzlashga majbur qiladi va ularni jamiyatning ijtimoiy-siyosiy qiyofasini tiklashda asosiy vositaga aylantiradi. Manbalarning oʻzaro muvofiqligi va gipotezalarning moddiy tasdigʻi orqali erishilgan tarixiy haqiqat kelajak avlodlar uchun ajdodlarimiz yaratgan davlatchilik tajribasi va madaniy merosini anglashda bebaho manba boʻlib xizmat qiladi.

4. Sivilizatsiya va davlatchilik tarixini tadqiq etishda ijtimoiy tizimning rekonstruksiyasi nafaqat tarixiy oʻtmishni qayta tiklash, balki jamiyatning ichki dinamikasi, boshqaruv institutlari va madaniy qatlamlarini ilmiy tahlil qilishning fundamental metodologik asosi boʻlib xizmat qiladi. Ushbu murakkab jarayon moddiy qoldiqlarni, yozma manbalarni va ijtimoiy munosabatlarni bir butunlikda koʻrishni talab etadi.

Rekonstruksiya tushunchasining oʻzi oʻtmishda sodir boʻlgan ijtimoiy voqelikning oʻziga xosligi, oʻzaro munosabatlari va institutsional aloqalarini ilmiy farazlar hamda moddiy dalillar sintezi orqali qayta tiklashni ifodalaydi. Bu jarayonda gipotezalar (farazlar) koʻrinishidagi ilmiy ta’limotlar aynan arxeologik materiallar

yordamida verifikatsiya qilinadi. Tarix fanida har qanday nazariya moddiy ashyo bilan tasdiqlanmaguncha gipoteza bo‘lib qolaveradi. Masalan, O‘rta Osiyoning janubiy hududlarida eneolit davri so‘ngida kollektiv qabrlarning paydo bo‘lishi uzoq vaqt davomida mutaxassislar o‘rtasida turli bahslarga sabab bo‘lgan. Dastlab, bu holat jamiyat hayotida katta oilali jamoalarning roli oshganligi bilan izohlangan bo‘lsa-da, bu nazariya faqatgina dafn marosimlari tahliliga tayanar edi. Keyinchalik, aynan o‘sha davrga oid turar-joy qoldiqlarini o‘rganish natijasida, ko‘p xonali murakkab uy-joy majmualarining shakllanganligi aniqlandi. Ushbu uylarning umumiy xo‘jalik hovlisiga, markazlashgan oshxonaga va yirik omborxonalarga ega ekanligi, unda bir necha kichik oilalardan tashkil topgan katta bir jamoa istiqomat qilganligini moddiy jihatdan isbotladi. Bu yerda qabrlardan olingan ma’lumotlar va turar-joylardan olingan ma’lumotlar bir-birini mantiqiy to‘ldirib, gipotezani ilmiy haqiqatga aylantirdi. Ma’lumotlar to‘planish jarayonining o‘sib borishi arxeologik o‘rganishlarni takomillashtirishni taqoza etadi. Qadimgi jamiyatlar xo‘jaligini kompleks ko‘rib chiqish uchun paleoiqtisodiy tahlil olib borish zarur. Yozma manbalar bo‘lmagan davrdagi jamiyatlar xo‘jaligini o‘rganishda arxeologik manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Arxeologiya fanida tadqiqotning ikki bosqichi mavjud bo‘lib, birinchisi arxeologik tadqiqot (qazish ishlari), ikkinchisi esa olingan materiallar asosida tarixni rekonstruksiya qilishdir. Tarixiy rekonstruksiya jarayonida yodgorlikning xususiyatlarini aniqlash ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi. Birinchidan, yangi ochilgan yodgorlikning xronologiyasini, ya’ni qaysi davrga tegishli ekanligini aniqlash lozim. Bu artefaktlarning ungacha o‘rganilgan yodgorliklardagi analoglari asosida amalga oshiriladi. Ikkinchidan, yodgorlikning madaniyatlar orasidagi o‘rnini belgilash uchun artefaktlarning tipologiyasi va klassifikatsiyasi ishlab chiqiladi, bu esa fanda arxeologik talqin (interpretatsiya) deb ataladi. Ana shundagina yodgorlikda kechgan inson faoliyatini to‘laqonli tiklash mumkin bo‘ladi.

Arxeologiya tabiiy va texnik fanlar usullaridan keng foydalanadi. Materialning kimyoviy va fizik xususiyatlarini tahlil qilish, masalan, radiokarbon (C14) usuli orqali aniq sanani belgilash qo‘shimcha ma’lumotlar olish imkonini beradi. Trassologik tahlillar esa mehnat qurollarining yuzasidagi izlarni o‘rganish orqali ularning vazifasini aniq bilishga yordam beradi.[8] Umuman, qadimgi jarayonlarni tiklashda arxeologiya fani natijalari muhim, chunki uzoq o‘tmishda yozuv bo‘lmagan. Etnografik ma’lumotlar asosan XVI–XVIII asrlarga tegishli hayotnigina tiklash imkonini beradi. Hatto ilk yozma manbalar davrida ham arxeologik materiallarning ahamiyati muhimligicha qoladi, chunki bu davr yozma manbalari uzuq-yuluq bo‘lib, ko‘pincha sub’yektiv xulosalar beradi. Shunday ekan, qadimgi jamiyatni ob’ektiv rekonstruksiya qilish bevosita arxeologik materiallar va ularning fanlararo tahlili yordamida amalga oshiriladi.

Davlatchilik tarixini tadqiq etishda tarixiy-qiyosiy metod, retrospektiv tahlil va tizimli-strukturali yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Bu usullar orqali davlatni yaxlit bir mexanizm sifatida ko‘rib, uning tarkibiy qismlari — ma’muriy boshqaruv, armiya, soliq tizimi va rasmiy mafkura o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganiladi. Xususan, monumental me’morchilik — saroylar, mahobatli masjid va madrasalar davlat qudratining vizual manifesti sifatida tahlil qilinadi. Ularning joylashuvi, o‘lchami va bezaklari jamiyatdagi siyosiy iyerarxiyani hamda davlatning iqtisodiy salohiyatini aks ettiradi. Shu bilan birga, oddiy xalq turar-joylarining rekonstruksiyasi jamiyatning quyi qatlamlari turmush tarzi, ularning ekologik va ijtimoiy sharoitlarga moslashish strategiyalarini ochib beradi. Arxeologik materiallardan tajriba-bayon-tushuntirish algoritmi asosida foydalanish o‘tmishdagi "jim" ashyolarni so‘zlashga majbur qiladi va ularni jamiyatning ijtimoiy-siyosiy qiyofasini tiklashda asosiy vositaga aylantiradi. Manbalarning o‘zaro muvofiqligi va gipotezalarning moddiy tasdig‘i orqali erishilgan

[8] Рахманов У.В. Керамика эпохи бронзы Южного Узбекистана (технологический анализ). – Самарканд: ИА АН РУз, 2004. – 120 с.

tarixiy haqiqat kelajak avlodlar uchun ajdodlarimiz yaratgan davlatchilik tajribasi va madaniy merosini anglashda bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Tarixiy rekonstruksiya fani qaysi turdosh fanlar (masalan: antropologiya, etnografiya, kimyo) bilan chambarchas bog‘liq?
2. Arxeologik topilmalarga qarab qadimgi odamlarning nima bilan shug‘ullanganini (dehqonchilik, chorvachilik yoki hunarmandchilik) qanday aniqlash mumkin?
3. Sivilizatsiya tushunchasini arxeologik yodgorliklar misolida qanday tushuntirib berasiz?
4. Olimlar tarixiy voqealarni tiklashda (rekonstruksiya qilishda) nimalarga tayanadilar?

2-MAVZU: ARXEOLOGIK MATERIALLAR TARIXIY MANBA SIFATIDA

REJA:

1.Arxeologik materiallarning tarixiy manba sifatidagi xususiyatlari va o‘rni.

2.Moddiy ashyolarning o‘tmish haqidagi axborotni saqlash va uzatishdagi ahamiyati.

3.Arxeologik manbalar orqali tarixiy jarayonlarni ilmiy asoslash va umumlashtirish.

Arxeologik madaniyatlarni rekonstruksiya qilish shu madaniyat vakillarining hayotini rekonstruksiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu o‘rinda arxeologik madaniyatni uch qirrasini ajratish mumkin. Aksariyat mutaxassislar arxeologik madaniyatni so‘nggi paleolitda paydo bo‘ladi deb hisoblaydilar. Buni hozirgi zamon ko‘rinishidagi insonlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘laydilar. Bunga ma’lum ma’noda insoniyatning ungacha bo‘lgan davrida biologik omil ustuvor bo‘lganligi, ijtimoiy omil- oila, jamiyat so‘nggi paleolitga kelibgina ustuvor bo‘lganligi ham asos bo‘ladi[9].


V.M. Masson esa olduvoy davrida sun’iy uy-joylar, maxsus yasalgan qurollar va barqaror hayot faoliyatini ta’minlagan ovchilikning mavjudligidan kelib chiqib, ushbu davrda madaniyat bo‘lganigi borasida fikr bildiradi[10].

Arxeologiyada “Arxeologik madaniyat” tushunchasini to‘g‘ri anglash muhim. Arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan materiallar mutaxassislar tomonidan u yoki bu arxeologik madaniyatga oidligi borasida fikr bildiriladi. Xo‘sh shu o‘rinda “arxeologik madaniyat” nima degani? Arxeologik madaniyat deb vaqt va makon bilan cheklangan, o‘xshash moddiy madaniyatga aytiladi. Arxeologik manbaalarni o‘rganishning asosiy usullaridan biri- makon va zamon bilan cheklangan arxeologik madaniyatlarni o‘rganish xisoblanadi. Arxeologik madaniyatlar belgilarining barqaror qaytarilishi bunday madaniyatning tasodif emasligidan dalolat.

[9] Матюхин А.Е. О проблемах становления человека и общества//СА. 1985,№3
[10] Массон В.М. Исторические реконструкции в археологии. Фрунзе,1990,с.27

Mutaxassislar arxeologik madaniyatlarni u yoki bu etnos bilan bog‘lashga urinishadi[11]. Etnograflar tomonidan kuzatiladigan jamiyatda uchraydigan belgilarning ayrimlari etnik belgi xisoblanadi. Etnolog olimlar V. P. Aleseyev va Yu.A. Bromleylar fikricha, etnoslar bir xil belgilar qayd etilgan hududlarda paydo bo‘ladi. Shu bilan birga xo‘jalik shaklining u bilan birga hayot tarzining o‘zgarishi bilan, eski madaniyatning yo‘q bo‘lib ketishiga va yangi madaniyatning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Etnoslarning bir-birlari bilan aloqalarini, bir-biridan o‘rganishlarini, qo‘shilishlarini, evolyusiyasini arxeologik materialda kuzatish mumkin. To‘g‘ri bu materiallar etnoslarning tili to‘g‘risida ma’lumot bermaydi, biroq, aloqalar yo‘nalishini, ya’ni bo‘lgan muloqatlarni kuzatish imkoni mavjud. Va shu tariqa, ularning tarixini, qarindosh-urug‘chilik darajasini tiklash imkoniga ega bo‘linadi.
Arxeologik materiallarning uzun-yuluqligiga qaramasdan, unda madaniyat aks etadi. Mutaxassislar madaniyat atamasi ma’nosida jamoviy tajriba birligini tushinishadi. Tajriba o‘rganish orqali to‘planadi. Etnik tajriba etnos shakllanishi davridan boshlab o‘zlashtiriladi.



2.1-rasm. Arxeologik madaniyatni etnos va tarixiy jarayonlar bilan bog‘lanishi.

[11] Бромлй Ю.В. Этнос и этнография. М., 1973

Ko‘pchilik hollarda madaniyatlarning aralashuvini aholi migratsiyasi bilan izohlanadi. Nazarimizda, bu doimo ham to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin. Chunki, bunga qabilalar aholisi o‘rtasidagi aralash nikohlar ham sabab bo‘ladi. Qabilalar aholi soni kamligi sabab, oila qurish uchun boshqa qabila a’zolari bilan nikoh munosabatlariga kirish uchun ham ko‘chishga (migratsiya) majbur bo‘lganlar.

Arxeologik madaniyatning uch ko‘rinishi mavjud. Birinchi ko‘rinish - lokal variant xisoblanadi. V.M. Masson arxeologik madaniyatning bu ko‘rinishini ajratish uchun moddiy madaniyat 50-100 foiz o‘xshash bo‘lishi kerak, yagona madaniyat deb atalishi uchun esa 30-50 foiz moddiy madaniyat o‘xshash bo‘lishi kerak, va nihoyat madaniyatlar birligi(культурное общество) deb yuritilishi uchun 20-30 foiz moddiy madaniyat o‘xshash bo‘lishi kerak[12] degan xulosa beradi.

Qabila - kichik etnik birlik(lokal variant) bo‘lib, uning tarkibidagi odamlar doimiy aloqalar va o‘zaro majburiyatlar orqali bir-biri bilan bog‘langan bo‘lgan. Lingvistikada bu shevaga to‘g‘ri keladi va ularga lokal variantlar to‘g‘ri keladi.
Etnos-lokal variant(qabila)lar guruhi bo‘lib, ularning kelib chiqishi bir va o‘zaro tushinarli tilda gaplashganlar.

Moddiy madaniyatdagi keskin o‘zgarishlar (yangi turdagi qurol yoki bezaklar paydo bo‘lishi) ko‘pincha tashqi migratsiya yoki harbiy istilolar natijasi sifatida talqin qilinadi. Arxeologik materiallar insoniyat o‘tmishini o‘rganishda eng xolis va fundamental manbalar hisoblanadi. Yozma manbalar sub’ektiv xarakterga ega bo‘lishi yoki vaqt o‘tishi bilan yo‘qolib ketishi mumkin, biroq yer ostida saqlanib qolgan moddiy madaniyat namunalari — mehnat qurollari, turar joy qoldiqlari va hunarmandchilik buyumlari muayyan davrning ijtimoiy-iqtisodiy manzarasini aniq tiklashga imkon beradi. Arxeologiya fanida hunarmandchilikning shakllanishi va taraqqiyoti jamiyatning oddiy ibtidoiy tuzumdan murakkab sivilizatsiya sari qo‘ygan eng muhim qadami sifatida talqin qilinadi.

[12] Массон В.М. Экономика и социальный строй древних обществ. Л., 1976

Arxeologiya fanida hunarmandchilikning shakllanishi va taraqqiyoti insoniyat sivilizatsiyasi hamda ijtimoiy tabaqalanish jarayonlarini tushunishda markaziy o‘rin tutadi. Hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi va alohida ixtisoslashgan sohaga aylanishi uzoq davom etgan texnologik va iqtisodiy evolyutsiya natijasidir. Arxeologik tadqiqotlarda hunarmandchilikning ikki shakli — xonaki (uy ro‘zg‘or doirasidagi) va ixtisoslashgan turlari keskin farqlanadi. Xonaki hunarmandchilik neolit inqilobi davridan boshlab har bir oilaning o‘z ehtiyojlari uchun mahsulot tayyorlashini anglatadi. Uning asosiy belgisi — artefaktlarning (sopol, to‘qimachilik buyumlari) texnologik jihatdan soddaligi, shakllarining turlichaligi va asosan turar-joylar ichidan topilishidir. Bunday buyumlar maxsus texnik vositalarsiz, masalan, kulolchilik charxisiz tayyorlangan. Ixtisoslashgan hunarmandchilik esa jamiyatda ma’lum bir guruhning faqat bitta turdagi mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilganidir. Uning arxeologik indikatorlari sirasiga turar-joylardan alohida ajratilgan maxsus ustaxonalarning mavjudligi, kulolchilik xumdonlari, metall eritish pechlari kabi murakkab texnik qurilmalar, mahsulotlarning standartlashishi hamda ishlab chiqarish hududlarida katta miqdordagi xomashyo zaxiralari va yaroqsiz mahsulotlar (brak) uyumlarining topilishi kiradi.[13]

Ilk ziroatchilik jamiyatlarida, xususan Eneolit va ilk bronza davrida hunarmandchilikning shakllanishi bir qator texnologik va iqtisodiy omillar bilan bog‘liq bo‘lgan. Eng muhim texnologik shart — bu ortiqcha mahsulotning paydo bo‘lishidir. Dehqonchilik texnikasining takomillashishi, masalan, suyak va tosh ketmonlardan so‘qaga o‘tish hamda irrigatsiya tizimlarining rivojlanishi natijasida oziq-ovqat zaxirasi ko‘paygan, bu esa jamiyatning bir qismiga dehqonchilik bilan shug‘ullanmasdan, faqat hunar ortidan kun kechirish imkonini bergan. Texnologik jarayonlarning murakkablashishi ham muhim rol o‘ynadi. Metallurgiyaning paydo bo‘lishi — mis va keyinchalik bronza eritish o‘ta yuqori haroratni saqlash, ruda

[13] Рахманов У.В. Керамика эпохи бронзы Южного Узбекистана (технологический анализ). – Самарканд: ИА АН РУз, 2004. – 120 с.

tarkibini bilish va quyish mahoratini talab qilgan. Bunday bilimlar har bir oila a’zosi tomonidan o‘zlashtirilishi imkonsiz bo‘lib, bu jarayon maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan shaxslar — hunarmandlarning ajralib chiqishiga olib kelgan. Bu jarayon fanda “Ikkinchi yirik mehnat taqsimoti” deb yuritiladi.

Bronza davriga kelib, ixtisoslashgan hunarmandchilik nafaqat ishlab chiqarish shakli, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy asosi bo‘lib xizmat qildi. Ixtisoslashuvning chuqurlashishi mintaqaviy ixtisoslashuvda, ya’ni ayrim manzilgohlarning faqat ma’lum bir mahsulot, masalan, zargarlik buyumlari yoki qurol-yarog‘ ishlab chiqarishga yo‘naltirilishida namoyon bo‘ldi. Hunarmandlar o‘z mahsulotlarini xomashyo va oziq-ovqatga ayirboshlashgan, bu esa ilk shaharlarning va savdo yo‘llarining shakllanishiga turtki bergan. Kulolchilik charxining keng qo‘llanilishi, koshin tayyorlash texnologiyasi va to‘qimachilik dastgohlarining rivojlanishi mahsulotning badiiy va utilitar qiymatini oshirgan. Arxeologik rekonstruksiyalar shuni ko‘rsatadiki, ixtisoslashgan hunarmandchilikning rivojlanishi bevosita davlatchilik institutlarining shakllanishi bilan hamohang kechgan. Hukmdorlar va diniy elita hunarmandlarni o‘z nazorati ostiga olishga, ularning mahsulotlarini ijtimoiy maqom belgisi sifatida foydalanishga intilgan. Shu tariqa, hunar kasbi oddiy maishiy ehtiyojdan iqtisodiy qudrat va siyosiy iyerarxiya vositasiga aylangan.

Xonaki va ixtisoslashgan hunarmandchilikning farqlanishi jamiyatning texnologik darajasini ko‘rsatuvchi asosiy mezon hisoblanadi. Arxeologik materiallarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ixtisoslashgan hunarmandchilik rivojlangan sari mahsulot sifati va ishlab chiqarish hajmi keskin oshgan. Bu esa o‘z navbatida, tabaqalashgan jamiyatning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan. Hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi sivilizatsiya sari tashlangan eng katta qadamlardan biri bo‘lib, u texnologik taraqqiyotning moddiy in’ikosi hamda murakkab ijtimoiy tizimlar poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Bunday kompleks

yondashuv qadimgi jamiyatlar moddiy madaniyatining yaxlit manzarasini shakllantirishda hamda tarixiy merosni anglashda asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Hunarmandchilikning ilk bosqichi xonaki (uy ro‘zg‘or) hunarmandchiligi bo‘lib, u neolit inqilobi davrida shakllangan. Bu davrda hunar mahsulotlari tayyorlash dehqonchilik va chorvachilikdan ajralmagan holda, faqat oila yoki jamoaning o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun amalga oshirilgan. Arxeologik qazishmalarda buning belgisi sifatida buyumlarning barcha uylardan bir xil taqsimotda topilishi, ularning shaklan turliligi (standart yo‘qligi) va sifatsizroq ishlov berilganini ko‘rish mumkin. Masalan, ilk ziroatchilar o‘z ehtiyojlari uchun sopol idishlarni qo‘lda yasaganlar va oddiy o‘choqlarda pishirganlar, bu esa har bir xonadonning ham dehqon, ham kosib bo‘lganidan dalolat beradi.

Arxeologik qazishmalarda aniqlangan madaniy qatlamlardagi fauna va flora qoldiqlari, ya’ni paleozoologiya va paleobotanika manbalari insoniyatning tabiat resurslaridan qanday foydalanganini ilmiy asoslashda xizmat qiladi. Xususan, paleolit va mezolit davrlariga xos ovchilik qurollari, termachilikda ishlatilgan tosh hovonchalar hamda baliqchilik sanchqilari o‘zlashtiruvchi mehnatning texnik darajasini ko‘rsatadi.

Keyinchalik, neolit inqilobi natijasida ishlab chiqarish xo‘jaliklarining, ya’ni dehqonchilik va chorvachilikning shakllanishi insoniyat tarixida tub burilish yasadi. Bu jarayonni o‘rganishda arxeologik materiallar, ijtimoiy va iqtisodiy tizim qoldiqlari, shuningdek, qadimgi migratsiyalar hamda etnomadaniy jarayonlarni qayta tiklash metodlari qo‘llaniladi. Zamonaviy ilmiy nazariyalarga ko‘ra, hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi uchun muayyan texnologik shart-sharoitlar, xususan, ishlab chiqarish vositalarining takomillashishi va qo‘shimcha mahsulot to‘planishi zarur edi. Ushbu ixtisoslashuv natijasida jamiyatda o‘zaro mahsulot ayriboshlash ehtiyoji vujudga keldi, chunki ixtisoslashgan

hunarmand endi o‘z ehtiyojlarini faqat o‘z mehnati bilan qoplamay, balki mahsulotini dehqonchilik va chorvachilik ashyolariga almashishga majbur bo‘ldi. Ilk ayriboshlash shakllari dastlab tasodifiy xarakterga ega bo‘lib, asta-sekin muntazam savdo-sotiq munosabatlariga aylanib bordi. Qadimgi aloqa yo‘llarining rivojlanishi esa oziq-ovqat, hunarmandchilik buyumlari va xomashyo bilan ayriboshlash zaruriyatini yanada oshirdi. Masalan, uzoq masofalardan keltirilgan moddiy ashyolar qadimiy migratsiyalar va etnik aloqalarning beqiyos ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Savdo-sotiqning hunarmandchilikdan mustaqil soha sifatida ajralib chiqishi esa ijtimoiy mehnat taqsimotining yuqori bosqichi bo‘lib, u shahar madaniyati va murakkab iqtisodiy tizimlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Arxeologik materiallar orqaligina tarixiy-madaniy jarayonlar, voqea-hodisalarning sabab va oqibatlarini, shuningdek, jamiyatning iqtisodiy tarkibini chuqur tahlil qilish hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkoniyati mavjud.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Arxeologik materiallarni xolis tarixiy manba sifatida talqin qilishning ilmiy ahamiyati nimada va tarixiy rekonstruksiya fani bugungi kunda milliy o‘zlikni ashyoviy isbotlashda qanchalik dolzarb o‘rin tutadi?
2. Arxeologik ma’lumotlarni o‘rganish va umumlashtirishda qo‘llaniladigan uslublar (tipologik, statistik, kartografik) yordamida qadimiy jamiyatning xo‘jalik hayoti hamda ishlab chiqarish kuchlarini qanday tiklash mumkin?
3. Moddiy madaniyat yodgorliklari, xususan, shaharsozlik va mudofaa tizimi tahlili asosida qadimiy jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish hamda davlatchilik shakllanishi jarayonlarini rekonstruksiya qilishning asosiy usullari nimalardan iborat?

3-MAVZU: DUNYOQARASHNING SHAKLLANISHIDA TARIXIY BILIMLARNING AHAMIYATI

REJA:

1. Tarixiy bilimlar — jamiyat dunyoqarashini barqarorlashtiruvchi omil sifatida

2. Arxeologiyada hunarmandchilik turlarini aniqlash metodikasi

3. Texnologik taraqqiyotning dunyoqarash o‘zgarishiga ta’siri

Qadimiy jamiyatlar xo‘jaligini o‘rganishda tizimli yondashuv insoniyatning tabiat bilan o‘zaro aloqasi, resurslarni o‘zlashtirish strategiyalari va ijtimoiy tuzilmalarning iqtisodiy asoslarini yaxlit mexanizm sifatida tahlil qilishni anglatadi. Ushbu yondashuv moddiy madaniyat elementlarini shunchaki tavsiflashdan voz kechib, ularni ekologik sharoit, texnologik imkoniyatlar va demografik o‘sish bilan bog‘liq holda tadqiq etadi. Insoniyat tarixining eng uzoq davrini qamrab olgan o‘zlashtiruvchi xo‘jalik, ya’ni paleolit va mezolit davrlari tabiat tayyor holda bergan ne’matlardan foydalanishga asoslangan edi. Arxeologik topilmalar ushbu davr xo‘jaligining mazmun-mohiyatini ovchilik, termachilik va baliqchilik sohalari orqali ochib beradi. Tosh qurollar, yirik hayvon suyaklari qoldiqlari hamda suyakdan yasalgan sanchqilar jamoaviy mehnat taqsimoti va insonning suv havzalari resurslarini tizimli o‘zlashtira boshlaganini ko‘rsatadi. Don maydalagichlar va paleobotanik tahlillar esa ilk ziroatchilikka o‘tishning texnologik poydevori bo‘lib xizmat qilgan termachilik sohasini rekonstruksiya qilish imkonini beradi.

Neolit inqilobi natijasida shakllangan ishlab chiqarish xo‘jaligini o‘rganishda zamonaviy arxeologiya paleobotanik, arxeozoologik va trassologik tahlil kabi kompleks usullarni qo‘llaydi. Tuproq qatlamlaridan topilgan madaniy o‘simlik urug‘lari dehqonchilik o‘choqlarini, uy hayvonlari suyaklarining morfologik o‘zgarishlari esa chorvachilikning shakllanish bosqichlarini aniqlashga xizmat qiladi. Zamonaviy ilmiy nazariyalar, xususan, demografik bosim nazariyasi va ekologik

adaptatsiya modeli xo‘jalik shakllari almashinuvini resurslar yetishmovchiligi va iqlim o‘zgarishiga javob sifatida talqin qiladi. Xo‘jalikning ixtisoslashuvi, ya’ni bir guruhning chorvachilik, boshqasining dehqonchilik bilan shug‘ullanishi o‘z-o‘zidan mahsulot ayirboshlash zaruriyatini keltirib chiqardi. Ilk ayirboshlash shakllari dastlab guruhlararo ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash uchun xizmat qilgan bo‘lsa, keyinchalik hunarmandchilik mahsulotlari va nodir xomashyolarga bo‘lgan ehtiyoj tufayli doimiy iqtisodiy jarayonga aylandi.

Hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi savdo-sotiqni mustaqil soha sifatida shakllantirdi. Endi hunarmand o‘z mahsulotini oziq-ovqat va xomashyoga almashish uchun maxsus vositachilarga - ilk savdogarlarga ehtiyoj sezdi. Bu jarayon qadimgi aloqa yo‘llarining rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Metallurgiya rivojlanishi bilan mis va qalay konlari bor hududlar hamda markaziy dehqonchilik vohalari o‘rtasida minglab kilometrlik yo‘llar, jumladan, "Lojuvard yo‘li" kabi strategik tarmoqlar ochildi. G‘ildirakli transport va yuk tashuvchi hayvonlardan foydalanish ayirboshlash ko‘lamini hududiy chegaralardan xalqaro miqyosga olib chiqdi. Qadimgi jamiyatlar xo‘jaligini tizimli o‘rganish insoniyatning omon qolish strategiyasidan murakkab iqtisodiy tizimlar va xalqaro savdo aloqalari sari bosib o‘tgan yo‘lini ilmiy rekonstruksiya qilish imkonini beradi. Har bir arxeologik artefakt ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim indikatori bo‘lib, o‘tmish sivilizatsiyalarining moddiy asoslarini anglashda asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Xonaki va ixtisoslashgan hunarmandchilik ishlab chiqarishning alohida guruhini tashkil etadi. U oziq-ovqat mahsulotlari olish sohasiga kirmasada, aholi farovonligini o‘sishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xonaki va ixtisoslashgan hunarmandchilikni tiklashda uchta holatni xisobga olish muhim. Birinchisi, bu xunarmandlarning professionalizmi(buni mahsulot sifatida payqash mumkin) va mehnat qurollari(buni xunarmandlarga tegishli qabrlarda kuzatish mumkin). Ikkinchisi, manzilgohda ishlab

chiqarishning xududiy joylashuvini aniqlash(bu qadimda ishlab chiqarishning tashkillashtirilishi borasida ma’lumot beradi). Bu yerda manbaa ishlab chiqarish qoldiqlari, va mehnat qurollarining tarqalishi xisoblanadi. Va nihoyat uchinchi, rivojlangan ayirboshlash yoki ishlab chiqarish mahsulotlari bilan savdoning mavjudligi hisoblanadi.


Tosh davri texnologiyasining darajasi, shunday bo‘lganki, mahsulotni jamoaning barcha a’zolari ishlab chiqarishi mumkin bo‘lgan. Amalda jamoaning barcha a’zolari tosh qurollar ishlab chiqishni uddalay olgan. Har bir oila o‘zi uchun zarur bo‘lgan tosh qurollarni o‘zlari yasaganlar. Dehqonchilik madaniyati rivojining dastlabki bosqichida kulolchilik va turli taqinchoqlar ishlab chiqila boshlanadi. Dastlab ularni ham oila a’zolari yasashgan. Masalan, Joytunda to‘liq o‘rganilgan 30 oilaning 27 tasida teri ishlangan, 25 tasida yog‘och ishlangan va 20 tasida tosh qurollar tayyorlangan. Biroq ishlab chiqarish texnologiyasining murakkablashuvi sabab, ayniqsa metallurgiya va metalga ishlov berish paydo bo‘lgach, maxsus ishlab chiqarishga ixtisoslashgan uchastkalar xattoki mahallar paydo bo‘ladi.[14] Uni bunday ishlab chiqarish maxsus malakani talab etgan. Buni uzoq davr shogird tushibgina egallash mumkin bo‘lgan. Natijada dehqonchilikdan xunarmandchilik ajralib chiqadi. Maxsus hunarmandchilik mahallari, keyinchalik xunarmandchilikga ixtisoslashgan manzilgohlar paydo bo‘ladi.

Ishlab chiqaruvchi ho‘jalikning rivoji hamda metallning kashf etilishi jamiyatda bevosita ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan sohalarning rivojlanishiga imkon yaratadi. Jamiyat a’zolari ehtiyojining ortishi va aholi farovonligi umumiy darajasining o‘sishi jamiyatda tor ixtisoslikka asoslangan hunarmandlar tabaqasining shakllanishiga olib keladi. Natijada mil.avv. III-II ming yilliklarda Markaziy Osiyoda ikkinchi mehnat taqsimoti – dehqonchilikdan

[14] Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 640 б.

hunarmandchilikning ajralib chiqishi yuz berdi. Ushbu davrda hunarmandchilikning metallga ishlov berish, kulolchilik, to‘qimachilik kabi turlari keng tarqaladi.

Kulolchilik Markaziy Osiyoda neolit davrida paydo bo‘lgan bo‘lsada, uning tez sur’atlar bilan rivojlanishi bronza davrida kulolchilik charxining kashf etilishi bilan bog‘liq. Kulolchilikda tez aylanadigan charxning qo‘llanila boshlanishi yuqori sifatli, xaridorgir, turli xil shakldagi sopol idishlarning ko‘plab ishlab chiqarilishiga imkon yaratadi. Jamiyatda o‘z uslubi va an’analariga ega bo‘lgan usta-kulollar paydo bo‘ladi. Akademik A.Asqarovning yozishicha, har bir mahallaning o‘z belgisi yoki tamg‘asiga ega bo‘lgan ustaxonalari bo‘lgan. Markaziy Osiyodagi ilk shaharlar – Oltin-tepa, Gonur-1, Togolok-1 va Jarqo‘tonda esa kulollar mahallalari paydo bo‘lgan[15]. Keyinchalik (mil.avv. II ming yillik oxirlarida) faqatgina kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, aholi manzilgohlari ham paydo bo‘ladi[16].




3.1-rasm. Bronza davridagi Jarqo‘tondagi kulollar mahallasi.

[15] Масимов И. Керамическое производство эпохи бронзы в Южном Туркменистане. Ашхабад.1976.-112 с.
[16] Рахмонов У. Раскопки керамических печей Сапалли на поселении Бустан 4. ИМКУ. Вып. 15. Т., 1979.

Sopollitepadan mato parchalari, shuningdek, ushbu davrga oid deyarli barcha aholi manzilgohlaridan to‘qimachilikda qo‘llanilgan urchuqboshilar topilgan. O‘zbekiston ipakchilikning ilk vatanlaridan biri bo‘lganligi haqida fikrlar ham bir muncha asoslidir[17]. Xuddi shu davrda to‘qimachilik dastgohlarining kashf etilishi, o‘z navbatida, to‘qimachilikning rivojlanishiga turtki bo‘lgan.

Hunarmandchilikning, shuningdek, toshga, yog‘ochga, suyakga ishlov berish kabi turlari ham keng tarqalgan bo‘lgan. Dastlabki davrlarda hunarmandlar dehqonlar bilan birgalikda hayot kechirishgan. Faqatgina hunarmandchilikdan keladigan daromad bilan kun kechirish qiyin bo‘lganligi sababli, ular vaqti-vaqti bilan dehqonchilik bilan ham shug‘ullanib turishgan. Ilk davlatlar shakllanishi davrida hunarmandlar mahsulotiga talabning oshishi, ularning alohida manzilgohlarda joylashishlariga sharoit yaratadi. Hunarmandchilikning ishlab chiqarishning alohida va o‘ziga xos bo‘lgan tarmog‘i sifatida ajralib chiqishi jamiyat tarixi uchun muhim ahamiyatga egadir. Ushbu jarayon o‘z davri uchun yetuk texnik malakaga ega bo‘lgan mutaxassislarning shakllanishiga va buning natijasida, ishlab chiqarish unumdorligining sezilarli o‘sishiga olib keldi. Bu holat jamiyatda davlatchilikning paydo bo‘lishi uchun muhim hisoblanadigan qo‘shimcha mahsulotning ko‘payishiga olib kelgan. Qachonki jamiyat o‘zini boqishdan tashqari qo‘shimcha mahsulot zaxirasiga ega bo‘lgach, aholining muayyan bir qismi daladagi og‘ir mehnatdan ozod bo‘lib, o‘z vaqtini faqat muayyan bir buyumni yasashga (masalan, metall eritish yoki kulolchilikka) bag‘ishlash imkoniga ega bo‘ldi. Aynan shu jarayon hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi deb ataladi va bu insoniyat tarixidagi ikkinchi yirik ijtimoiy mehnat taqsimotidir.

[17] Аскаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1977. – С. 126.



3.2-rasm. Hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi jarayoni.Qayta tiklangan illustrativ rasm.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Tarixiy bilimlar jamiyat dunyoqarashini barqarorlashtiruvchi omil sifatida qanday ahamiyatga ega va nima uchun arxeologik materiallar o‘tmishni o‘rganishda eng xolis manba hisoblanadi?
2. Arxeologiya fanida xonaki (uy-ro‘zg‘or) va ixtisoslashgan hunarmandchilik turlarini bir-biridan ajratishda qaysi metodik mezonlarga tayaniladi?
3. Tosh davridagi "universal" mehnatdan metallurgiya va kulolchilik charxi kabi texnologik kashfiyotlar natijasida hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqish jarayonini tahlil qilib bering.

4- MAVZU: PALEODEMOGRAFIYA VA QADIMGI IQTISODIYOT MASALALARI

REJA:

1. **Qadimgi iqtisodiy munosabatlar jarayonlarini o‘rganishdagi ilmiy qarashlar.**
2. **Arxeologiya ma’lumotlari va paleodemografiya masalasi.**
3. **Makonlar, uy-joylar va qadimiy shaharlarni o‘rganishda aholi taxminiy miqdorini aniqlash uslublari.**
4. **Iqtisodiyot tarixini umumlashtirish, tiklash muammolari, asosiy yondoshuvlar.**

1. Tarixiy demografiya paleodemografiyaga qaraganda ancha qadimgi. O‘tgan davrlarning demografik holatini tiklash uchun yozma dalillarning ahamiyati nihoyatda erta anglangan va ushbu yozma dalillar asosida zudlik bilan ayrim mintaqalar aholisi soni, janglar ishtirokchilari soni va boshqalar to‘g‘risida taxminlar tuzilgan. Deyarli ikki ming yilliklar davomida qadimgi mualliflarning xalqlar soni va mashhur janglarning ishtirokchilari to‘g‘risidagi xabarlari tanqidiy qabul qilinmagan va hayoliy raqamlar ishdan ishga o‘tib, qadimgi xalqlarning haqiqiy sonidan bir necha baravar yuqori bo‘lgan. Faqatgina o‘tgan asrning so‘nggi choragidagi mumtoz tadqiqotlar bilan boshlangan, shubhasiz K. Beloxning kitobi manbalarni tahlil qilish va mutanosib xulosalarni tayyorlashda birinchi o‘rinni egallab, tarixiy demografiya rivojlanishida, ishonchli ma'lumotlarni olish va ularni o‘zaro tekshirish, rivojlantirish davrida haqiqatan ham ilmiy davrni boshladi.

Rivojlanishning yuz yillik davrida tarixiy demografiya juda katta ma'lumot yukini to‘plab qo‘ydi, bu haqda nafaqat ayrim davlatlar aholisi yoki turli xil tarixiy davrlarda yirik geografik hududlar, balki bu raqamning dinamikasi to‘g‘risidagi ma'lumotlarni ham vaqt oralig‘i o‘z ichiga olganligini aytish kerak. Qadimgi ovchilar-

baliqchilar-terimchilarning ho‘jalik hududlari tabiiy omil bilan, shuningdek oziq-ovqat olishning texnik imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan.

Manzilgohning joylashishi, maydoni, undagi madaniy qatlamning qoldiqlar bilan to‘laligi xo‘jalikning darajasi borasida ma’lumot beradi. Xo‘jalikni rekonstruksiya qilishda aholining sonini bilish muhim, zero, aynan aholi soni umumiy tabiiy muhitga ekologik bosimni belgilaydi.

Iqtisodiy vaziyat oziqlanishda ko‘rinadi. Chorvadorlar ratsionida go‘shtli mahsulotlar yetakchilik qilsa, dehqonlar rasionida shubhasiz boshoqli o‘simliklardan tayyorlangan oziq-ovqatlar ustunlik qilgan.sopol idishlardagi nagarlar ham qanday oziq-ovqatlar tayrlanganligi borasida guvohlik beradi. Badrablar tahlili ham oziq-ovqatlar borasida ma’lum ma’lumotlar beradi. Asqarov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida sholi va paxta qoldiqlari topilgan.

Qo‘l tegirmon toshlari esa dehqonchilik bilan shug‘ullanganligi borasida guvohlik beradi.Shuni unutmaslik kerakki, yog‘ochdan yasalgan mehnat qurollari bizgacha yetib kelmaydi, yongan yog‘och qurollarningina qoldiqlari yetib keladi.

Arxeologik tadqiqotlar asosidagi har qanday tarixiy rekostruksiyada demografiya masalasi muhim o‘rin tutadi. Chunki, madaniyat modelini, ekotizimni, etnogenezni va madaniyatlarning o‘zaro aloqalarini tiklash uchun shu madaniyat vakillarining sonini va aholi zichligini bilish zarur. Busiz, aholining ekotizimga bosimi va aloqalar ehtimoli va faolligi darajasini baholash mumkin emas. Qadimgi jamiyatlardagi demografik vaziyat etnografik kuzatishlar asosida baholanadi. Shuningdek, qurilishlarga jalb qilingan bo‘lishi mumkin bo‘lgan taxminan aholi, savdo va xiroj miqdoridan, armiyadagi jangchilar sonidan va qabrlar sonidan kelib chiqib ham aholi soni taxmin qilinadi. Biologlar aholi sonini landshaftning mahsuldorligidan kelib chiqib taxmin qiladilar. Ya’ni aholi yashagan hudud landshaftini o‘rganib u qancha aholining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirishi mumkinligidan kelib chiqadilar.

Paleodemografiya, paleoantropologik materiallarga asoslanib, qadimgi jamiyatlarda kechgan demografik jarayonlar rekonstruksiyasini amalga oshiradigan tarixiy demografiyaning bo‘limi. Paleodemografiya qadimda yashagan isonlarning turli joylarga o‘rnashishi, sog‘lig‘i va nea yil yashaganligi, tarqalishini tiklaydi. Paledemografiya qadimda yashagan aholi sonining o‘sib borish dinamikasi, o‘rtacha umri, ma’lum yoshda vafot etganlarning ulushi borasida ma’lumot beradi. Paledemografiya sabab yuqori paleolit davridan boshlab aholi sonining yillik oshib borish natijalari aniqlangan. Ushbu davrda aholi sonining o‘sib borishi 0,001 va 0,01 foizni tashkil etgan.[18] Bu o‘sish sur’ati 20.000-40.000 yilda aholi sonining ikki barobar o‘sishini ta’minlagan. Ishlab chiqaruvchi xo‘jalikga o‘tilgan neolit davriga kelib, aholi soni sezilarli ravishda oshgan. Neolit davriga kelib, aholi sonining o‘sish darajasi yiliga 0,1 foizni tashkil etgan (taqqoslash uchun bugungi kunda aholining yillik o‘sish darajasi 2-4 foizni tashkil etmoqda). Bu o‘sish darajasida taxminan 700 yilda yer yuzi aholisi ikki barobarga oshgan. Neolit davri oxiriga kelib, Yer shari aholisi taxminan 8-12 million nafarni tashkil etgan. Neolit davriga kelib, aholining umri uzayib, o‘rtacha umr 35-40 yoshni tashkil etgan. Bolalar o‘limining yuqori darajada (taxminan 50 foiz atrofida) bo‘lishiga qaramay bolalarning umumiy soni oldingi davrlarga qaraganda oshgan. Paledemografiya qadimda bo‘lib o‘tgan epidemiyalarning xarakterini aniqlashda ham yordam beradi.

Arxeologlar yodgorlikdagi turar-joy uchastkalari hududidan kelib chiqib, aholi sonini aniqlashni ilgari suradilar. Aholi soni manzilgohlar soni, maydoni, qancha vaqt davomida ushbu manzilgohda aholi yashaganligi va qatlamning xarakteriga bog‘liqligi arxeolog tadqiqotlarda kuzatiladi.

Aholi zichligi bu ekologik v iqtisodiy omillar bilan bog‘liq Ishlab chiqaruvchi ho‘jalikga o‘tilishi bilan aholi zichligi 10-25 barobarga oshadi.

Paleodemografiyaning ma’lumot bazasini: yozma (aholini ro‘yxatga

[18] Bocquet-Appel J.P. The Neolithic Demographic Transition and Its Consequences. – Dordrecht: Springer, 2008. – 320 p.

olish xujjatlari, qabrtosh yozuvlari), paleoantropologik(qadimgi odam qoldiqlari), arxeologik(arxeologik yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar natijalari), etnoarxeologik(etnografik kuzatuvlar), manbalar tashkil etadi. Paleodemografiya yuqoridagi manbalarni o‘rganish bilan bog‘liq va insoniyat tarixining yozuv bo‘lmagan butun davrini qamrab oladi. Paleodemografiya yozma manbalar orqali zarur demografik ma’lumotlar olishni iloji bo‘lmagan taqdirda yuqoridagi manbalardan foydalaniladi.

Paleodemografiya ma’lumotlari nafaqat qadimda yashagan aholi rivojining umumiy qonuniyatlarini, shuningdek, aholi soning oshishi dinamikasini, ishlab chiqaruvchi kuchlar xarakteri singari ma’lumotlar to‘g‘risida ham fikr bildirish imonini beradi. Paleodemografiya insoniyat tarixining turli davrilaridagi ijtimoiy va ijtimoiy-etnik munosabatlarni o‘rganishda muhim o‘rin tutadi.

Paleodemografiyaning o‘ziga xosligi shundaki, u arxeologiya,antropologiya, etnografiya va demografiyani o‘zida aks ettirishida. Ayniqsa, paleantropologiya ma’lumotlari Paleodemografiyada muhim ahamiyat kasb etadi. XIX asrdayoq antropologlar inson skletiga qarab, uning yoshi va jinsini aniqlashni egallaganlar. Shuningdek, jinslarning son jihatdan munosabati, turli yoshdagilarning son jihatdan munosabati, bolalar o‘limi darajasi, erkak va ayollarning umr ko‘rish darajasi kabilarni aniqlash mumkin bo‘ldi. Bolalar skletiga qarab aniqlash nisbatan ishonchli hisoblangan. Zero, bu yerda bolalarning sut tishlariga qarab aniqlash mutaxassislarga plyus minus 1-2 yil aniqlikda fikr bildirish imkonini bergan. Katta yoshdagilarning yoshi tish va miya chanog‘iga qarab plyus minus 5-10 yil davr oralig‘ida aniqlangan. Skletga qarab uning jinsini aniqlash 16-18 yoshdan keyingina aniq bo‘lgan. Jins ko‘proq miya chanog‘iga qarab aniqlanadi. [19]

Erkaklarning turli harbiy to‘qnashuvlarda olingan jarohatlarini o‘rganish muhim, zero buni hisobga olmasdan turib, erkaklarning umrini aniqlashda xatoliklar

[19] Ходжаев Т.К. Антропология Средней Азии. – Ташкент: Фан, 2011. – 210 с.

yuzaga keladi. Paledemografiya uchun asosiy manbaa bu qadimgi qabrlar xisoblanadi. Bu yerda qancha vaqt maboynida qabristonga marhumlar qo‘yilganligini e’tiborga olish zarur. Aks holda aholi soni borasidagi raqamlar noto‘g‘ri bo‘lib chiqadi. Arxeologik yodgorlik to‘liq o‘rganilgan taqdirdagina paleodemografik holat borasida ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Shuni unutmaslik zarurki arxeologik tadqiqotlar jarayonida aniqlanadigan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji shubhasiz, demografik ko‘rsatkichlar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Arxeologiyada paleodemografik hisob-kitoblar uchun ochilgan o‘choqlar soni, uy-joylarning razmerlari, qurilishlar intensivligidan kelib chiqib, aholi zichligini aniqlash kabi usullar qo‘llaniladi. Ba’zan, taraqqiyotda orqada qolgan, o‘xshash ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyatda yashayotgan xalqlar hayotini etnoarxeologik o‘rganish va olingan ma’lumotlarni qadimgi davr insonlarga qo‘llash ham yaxshi natija beradi.



4.1-rasm. Paleodemografiya

Arxeologik va etnoarxeologik ma’lumotlar aholining taxminiy soni borasida bavosita fikr bildirish imkonini beradi xolos. Shu sababli ham paledemografiyada barcha manbalardan foydallanish tadqiqotning eng samarali usuli xisoblanadi.

Qisqasi paleodemografik tadqiqotlar natijasida qadimgi qabilalarning joylashish dinamikasini kuzatish imkoniga ega bo‘lamiz. Bu juda ham muhim ahamiyatga ega. Paleodemografiya hududlarni o‘zlashtirish qaysi yo‘l bilan borganligini, yodgorliklarning konsentratsiya rayonlarini(irrigasion rayonlar). Shuningdek paleodemografiya tadqiqot o‘rganilayotgan hudud bu qaysidir madaniyatga tegishli qabilaga tegishlimi yoki bu qaysidir madaniyatnng varianti bo‘lganligi borasida fikr bildirish imkonini ham beradi.

Antropologiya va arxeologiya sohasidagi materiallar birgalikda ayrim masalarga javob berishi mumkin. Bu borada V.P.Alekseyevning tarixiy antropologiya va paledemografiya asoslariga bag‘ishlangna maqolasi muhim. Shuni qayd etish lozimki, paleodemografik tadqiqotlar asosan tosh davri ovchilari va terimchilari jamiyatlari o‘ragnish bilan cheklanib qolingan.[20] Masalan, Bronza davri uchun paleodemografik tadqiqotlar sanoqligina. Bu chamasi, bunday tadqiqotlarni olib borishning murakabligi bilan izohlansa kerak. Gap shundaki, bronza davri hudulari to‘liq o‘rganilmaganligi sabali ham ushbu davr yodgorliklarni joylashishi borasida to‘laqonli ma’lumot berish imkoniga ega bo‘linmaydi. Umuman olganda bu barcha davrlar uchun ham xos muammo xisoblanadi. Biroq bugungi kunda tadqiqotlarga yangi texnologiyalar va usullarni joriy etilayotganligi bu muammoni yechish imonini bermoqda. S.N. Bibikova xulosasiga ko‘ra uy ichidagi va tashqarisidagi o‘choqlar soni va uy joydagi ishlab chiqarish bilan bog‘liq joylarning xisobi manzilgohdagi oilalar soni borasida ob’yektiv ko‘rsatkichlarni beradi. Shundan kelib chiqib, Bibikov o‘choqlar soni oilalar soniga to‘g‘ri keladi. A. N. Gey qadimda demografik vaziyati dafn inshoatlari bo‘yicha aniqlash usulini ilgari suradi. Unga ko‘ra xududdagi dafn inshoatlarining zichligiga qarab, aholi sonini aniqlash usulini ketiradi. Aytish kerakki, bu usul ko‘chmanchi va yarim – ko‘chmanchi chorvadorlar uchun.

[20] Алексеев В.П. Историческая антропология и этногенез. – Москва: Наука, 1989. – 445 с.

I.D. Telegina fikricha mezolit davri yodgorliklari aholisining o‘rta umri 23 yoshni tashkil etgan, neolit davriga kelib esa aholining o‘rta umri 29, 5 yoshni tashki qilgan. 1995-yil “Российская археология” jurnalida A.Ye. Kisliyning maqolasi chop etiladi. Unda muallif mezolitdan to ilk davlatlar davri aholisi dinamikasini tahlil qilgan.[21] Mezolit davri arxeologik yodgorliklari soni kam, shundan kelib chiqqan holda aholisi ham kam bo‘lgan. Neolit davrida aholi soni bir muncha oshadi. Bronza davriga kelib esa, aholi soni sezilarli ravishda ko‘payadi. A.Ye. Kislыy aholi soni va o‘rtacha umrning oshishini o‘zlashtirma xo‘jalikdan ishlab chiqaruvchi xo‘jalikga o‘tish bilan izohlaydi. Qisqasi, ishlab chiqaruvchi xo‘jalik rivoji jamiyatda ortiqcha mahsulotning paydo bo‘lishiga va o‘sishiga olib keladi. Bu o‘z navbatida ilk davlatlarni yuzaga kelitrgan asosiy omil hisoblanadi. Markaziy Osiyoda ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning sun’iy sug‘orishga asoslangan sohasi asos o‘rin tutgan. Sun’iy sug‘orish tabiiyki sun’iy sug‘orish tarmoqlarini talab qilgan sun’iy sug‘orish tarmoqlarini barpo etish esa boshqaruvni va aholi uyushmasini taqoza etgan. Suvning jamiyat hayotidagi o‘ta muhim ahamiyati ushbu davrda yerni xususiylashtirish imkonini bermagan. O‘rta Osiyoda yerga egalik munosabatlari milodiy III-IV asrga kelibgina shakllana boshlaydi. Shu sababli O‘rta Osiyodagi ilk sinfiy jamiyatlar davrida asosiy ishlab chiqaruvchi kuch bu ozod dehqonlar bo‘lgan. To‘g‘ri bu davrda qullarning bo‘lganligini inkor etmaslik lozim. Lekin ular jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi bo‘la olmaganlar.

Bu davr jamiyatning iqtisodiy tomoni borasida fikr bildirish ancha mushkul. Sababi bizgacha yetib kelgan yozma manbalar ma’muriy, yuridik, diniy, xo‘jalik ahamiyatiga oid bo‘lib, o‘sha davr iqtisodiy hayoti borasida ma’lumot beruvchi ma’lumotlar yo‘q hisobi. Bir oz keyingi davr borasida ma’lumot beruvchi zma manbalarda esa davlatni boshqarish, ahloq-odob borasidagi ma’lumotlardan iborat. Ulardan o‘sha davr iqtisodiyoti to‘g‘risida juda kam ma’lumot olish mumkin. Shu

[21] Кислый А.Е. О динамике населения от мезолита до возникновения первых государств // Российская археология. – Москва, 1995. – № 1. – С. 27–41.

o‘rinda shuni ta’kidlash joizki ko‘p holatda yozma manbalar diniy-afsonaviy qarashlar nuqtai nazaridan berilgan. Iqtisodiy hodisalar ham tabiiy va tabiatdan ustidan xukmron kuchlar ta’siri natijasi sifatida qaralgan. Hosildorlining yuqori bo‘lishi yoki aksincha hosil bo‘lmasligi kabi holatlar. Otashparastlik va uning qonun-qoidalari aks etgan “Avesto” O‘rta Osiyodagi ijitmoiy-iqtisodiy rivojiga ta’sir o‘tkazgan. O‘rta Osiyo(O‘zbekiston)ning qadimgi jamiyatlari tarixini uch bosqichga bo‘lish mumkin. Birinchi, mil.avv. III-II ming yilliklar ilk shahar va davlatlar paydo bo‘lish davri, Ikkinchi, davr temirni tarqalishi bilan boshlanadi, ya’ni mil.avv. IX-VI asrlardan bu davrda ilk podshohliklar paydo bo‘ladi, Uchinchi davr, milodiy III-IV asrlar ya’ni yerga egalik munosabatlari shakllana boshlagan davr.

O‘rta Osiyoning iqtisodiy rivojlanishi uzoq tarixga ega, bu davr insonni tabiatning ehsonlarini oddiy o‘zlashtirish va ishlab chiqaruvchi xo‘jalik davrlarini qamrab oladi. So‘nggi paleolit davri odami(Homo sapines), bundan 50-40 ming yillar ilgari yashagan, dastlabki 30 ming yilida o‘zi ishlab chiqqan qurollar yordamida tabiat ehsonlari bilan oziqlangan. O‘zlashtirishning bu formasi yovvoyi o‘simliklarni terib olish,ov, baliqchilik hisoblanib, ushbu davrda inson tashqi sharoitlarga iqlim, ov mahsulotlarining mo‘l yoki kamligiga va baliqchilikda ovning baroridan kelishi yoki aksincha bo‘lishiga to‘la bog‘liq bo‘lgan. Natijada, yarim och hayot kechirish tarzi ba’zan to‘la ochlik davri bilan almashgan. O‘limning yuqori darajada bo‘lishi ayrim jamiyatlarning to‘liq qirilib ketishiga sabab bo‘lgan. Yer yuzi aholisi deyarli o‘smagan, xatto ba’zan kamaygan. Ushbu murakkab vaziyatdan uzoq davom etgan jarayonda ortirilgan tajriba va qulay tabiiy iqlim sharoiti sabab chiqishgan. Bu mezolit davriga taxminan to‘g‘ri keladi. Muzliklarning cheiknii sabab daryo bo‘ylarida hayot kechirish mumkin bo‘ladi.Ma’lumki daryo bo‘ylari ov uchun ham termachilik hamda balig‘chilik uchun ham qulay bo‘lgan.[22]

[22] Сагдуллаев А.С., Костецкий В.А. Древние цивилизации Центральной Азии. – Ташкент: Университет, 2004. – С. 18–35.



4.2-rasm. Temirning kashf qilinishi va uning taraqqiyotga ta’siri.

Mil.avv. VI ming yillikga kelib O‘rta Osiyoning janubida bug‘doy ekisha boshlagan.Shu davrda hayvonlarni xonakilashtira boshlashgan. Dastlab echki, qo‘y, eshak keyinchalik yirik shohli hayvonlar ham xonakilishtirilgan. Ma’lumki it mezolit davridayoq qo‘lga o‘rgatilgan. Ushbu davrda to‘qimachilik va kulolchilik kashf etiladi. Qadimgi jamiyatlar hayoti bir muncha ta’minlana boshlaydi. Doimiy ravishda, jumladan, go‘sht, sut mahsulotlari bilan ovqatlanish imkonining paydo bo‘lganligi, g‘orlardan tuproqdan, toshdan, keyinchalik xom g‘ishtdan bo‘lgan uy-joylarga o‘tilishi o‘limni bir muncha kamytiradi va aholi sonining muntazam oshib borishini ta’minlagan.natijada, yer yuzasining boshqa qismlari ham insoniyat tomonidan o‘zlashtirila boshlanadi. To‘g‘ri bunga ya’ni insonlarning migratsiyasiga ma’lum ma’noda iqlimdagi o‘zgarishlar ham sabab bo‘lgan. Natijada(migratsiyalar sabab), daryolar bo‘ylari egallana boshlandi. Masalan, Murg‘ob, Sherabod, kabi daryo bo‘ylari o‘zlashtiriladi. Bu yerlarda sun’iy sug‘orishsiz dehqonchilik qilib bo‘lmaganligi sabab, sun’iy sug‘orish rivojlanadi. Natijada hosildorlik keskin oshishga erishiladi. Bu esa dehqonchilik bilan band bo‘lgan bir qism aholini dehqonchilikdan ozod etib, hunarmandchilik bilan shug‘ullanishlariga imkon

yaratadi. Shu tariqa hunarmandchilik dehqonchilikdan ajaralib chiqadi. Sun'iy sug'orishni tashkillashtirish bir toifa insonlarni shu bilan ya'ni boshqarish bilan shug'ullanishlarini taqoza qiladi. Shu tariqa boshlqaruv paydo bo'ladi. Aynan ular jamiyatdagi ortiqcha mahsulotni o'zlashtirishadi. Ibodatxonalarga tegishli yerlar ham ularga tegishli bo'lgan. Shu tariqa shoh-qohin boshchiligidagi dastlabki uyushmalar –davlatlar paydo bo'ladi. (Shu yerda shahar-davlatlarga ta'rif berib o'tish lozim)

Mil.avv. I mignng yillik boshlarida temirning kashf etilish bilan insoniyat taraqqiyoti yanada tezlashadi. Temirdan yasalgan mehnat qurollari bilan qattiq joylarda ham kanallarni qazish tezlashadi, temir omoch bilan ilgari foydalanishga yaroqsiz deb hisoblangan yerlar haydaladi, temirdan bo'lgan boltalar yordamida o'tib bo'lmas o'rmonlardan ochiladi. Temirdan yasalgan g'ildiraklar esa aravalarning imkoniyatlarini oshirgan.Bularning hammasi ish unumdorligini keskin ko'tarib, ishlab chiqilayotgan mahsulot hajmini oshiradi. Bu sivilizatsiyaning paydo bo'lishiga zamin bo'ladi. Biroq yer yuzasida vaqti vaqti bilan bo'lib turadigan uzoq muddatli qurg'oqchilik sabab inqirozlarni ham boshdan kechirgan. Shunday qurg'oqchiliklarning biri mil.avv. II ming yillikda bo'lgan. Bunday holatda ortiqcha mahsulotni harbiy yo'l bilan boshqalardan olishga bo'lgan harakat kuchayadi. Natijada, qo'shnilar o'rtasida harbiy to'nashuvlar ko'payadi. Yangi yerlarni kuch bilan bosib olish odatiy holga aylanadi. Shuningdek, xalqaro savdo ham ortiqcha mahsulotni yaratishning omili hisoblangan. Bunday sharoitda dehqonlar va chorvadorlar o'rtasidagi mahsulot ayirboshlash ham ustuvor ahamiyat kasb eta boshlaydi. Yana bir holatga e'tibor qaratish lozim. Bu davrda rivojlangan sivilizatsiya markazlari o'rtasida xom-ashyo manbalari (ruda, chorva) uchun kurash boshlanadi. Shu tariqa ilk jahon imperiyalari paydo bo'ladi. Aynan shu yo'l bilan ular qo'shimcha mahsulotga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlaganlar. Buning uchun ular harbiy qurol-yarog' sifati borasida ustunlikga ega bo'ishi zarur edi. Shu tariqa qilich, qalqon, dubulg'a va sovut paydo bo'ladi. Shu davrda ponton(suzuvchi) ko'priklar, devor

teshgich qurollar, tosh uloqtirgich, naftandozlar masalan, saklarga tegishli bronzadan ishlangan o‘q-yoylar va yengil suvoriylar...O‘sha davrda bosib olingan hudud aholisi qirib tashlanmagan, aksincha o‘z yurtlaridan uzoqroq biror-bir hududga tashkiliy ravishda ko‘chirilgan. Masalan, xorasmiylar Xirot atrofidan Amudaryoning quyi oqimiga ko‘chirilgan.Ular yangi joylarda mahalliy aholi bilan qo‘shilib, imperiyaning tayanchiga va ishlab chiqaruvchilariga aylanishadi.imperiyalar podsho tomonidan tayinlanadigan satraplar tomonidan boshqariladigan satrpliklarga bo‘lingan. Bundan masad yangi sulolarning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘lgan. Imperiyalar o‘z xududida sivilizatsiya markazlari bilan xom-ashyo yetkazib beruvchi mintaqalarni qamrab olganligi sabab ham tez kuchayib borgan. Xom-ashyoni qisqa va bexatar olib kelish maqsadida imperiya bo‘ylab tosh yo‘llar quriladi. Yo‘llarda xavsizlikni ta’minlash maqsadida esa bekatlar o‘rnatiladi. Tosh yo‘llar o‘z navbatida pochta aloqasi o‘rnatiladi.

Xalqaro savdo uchun oltin pul zarb etiladi. Imperiyalar avvalombor o‘zga yurtlarning boyliklarini talash orqali o‘zlarida qo‘shimcha mahsulotni barpo qilish maqsadida paydo bo‘ladi. Shubhasiz, imperiyaning mohiyatidagi doimiy urushlar oxir-oqibat imperiyaning insoniy resurslarini kamaytiradi shuningdek, tobora ortib boradigan turli xarajatlar imperiyalarni tanazulga olib keladi. E’tiborlisi shundaki, bir imperiyaning qulashi bilan yangi bir imperiya paydo bo‘lgan. Qadimgi jamiyat tarixi bu iqtisodiyot tarixi. Bu davrda davlat bo‘lmaganligi sabab biz davlat tarixi to‘g‘risida gapiraolmaymiz. Xuddi shu sabab huquq tarixi borasida ham fikr bildiraolmaymiz. Ibtidoiy odamlar hayotini tiklashga yordam beradigan asosiy material bu arxeologik material xisoblanadi. Biroq ular mashhur arboblar nomini bermaydi. Hattoki qabila sardorlari shuningdek qabilalar ham ibtidoiy davr oxirida paydo bo‘ladi. Ibtidoiy davr insonlarining ayrim jihatlarini tiklashga yordam beruvchi etnografik materiallar ham o‘sha davr siyosiy hayoti borasida ma’lumot bera olmaydi. Shuning uchun biz ibtidoiy davr siyosiy hayoti borasida fikr yurita olmaymiz va aynan shu sababli ham

yozuv va davlatlar paydo bo‘lgungacha bo‘lgan davrni tarixoldi davri deb atash qabul qilingan. Arxeologik va etnografik materiallar inson qay tariqa hayot kechirganligi, qanday qurollardan foydalanganligi va nima bilan kun ko‘rganligi borasida fikr bildirish imkonini beradi.

Bizning davrga yaqinlashgan sari arxeologik davrlar qisqarib boradi. Buning sababi insoniyat jamiyati rivoji tezlashib borganligi bilan izohlanadi.Umuman olganda inson surovli tabiat bilan bo‘lgan kurashlarda chiniqib boradi. Muzliklar davrida olovdan foydalanishni, uy-joylarini takomillashtirib borgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi iqtisodiy munosabatlar va paleodemografik jarayonlarni o‘rganishda arxeologik ma’lumotlardan foydalanishning qanday nazariy yondashuvlari mavjud?
2. Paxsa va xom g‘isht binokorligining paydo bo‘lishi uy-joylarning funksional evolyusiyasiga hamda jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?
3. Katta patriarxal uylarning tuzilishi va rejalashtirilishida qadimgi jamiyat tabaqalanishi qanday aks etgan?

5-MAVZU: QADIMGI QABRLAR VA MOZORLAR IJTIMOIY MUNOSABATLAR OBYEKTI SIFATIDA

Reja:

1. **Qadimgi qabrlar va mozorlar-ijtimoiy munosabatlar ko‘zgusi.**
2. **Qabrlarning ijtimoiy munosabatlardagi o‘rni**
3. **Qabrlardagi ashyoviy topilmalarning diniy-mifologik xususiyatlari**

Qabriston, mozor - marhumlar dafn etiladigan maxsus joy. Qabriston turlari va ularni muhofaza qilish tartibi dafn marosimi, muayyan xalq, din, mazhab, ijtimoiy guruh va boshqalar, hokimiyat organlari tomonidan o‘rnatilgan ma’muriy va sanitariya normalari bilan belgilanadi. Dafn etish joylari antik davrda va qadimiy Sharqda nekropol deb atalgan. O‘zbekistonda qabristonga qadimdan alohida e’tibor berilgan. Qabriston uchun ko‘pincha tepalik joylar tanlangan, atrofi devor yoki panjaralar bilan o‘ralgan. Mashhur kishilar uchun esa maqbaralar qurilgan. O‘rta Osiyoda yashovchi boshqa dinga mansub xalqlarning alohida qabristonlari bo‘lgan (masalan, Buxoro yahudiylari qabristoni, eroniylar qabristoni (shialar uchun), yevropaliklar qabristoni va boshqalar).

Bronza davridan e’tiboran zardushtiylik dini chorvadorlar orasida ildiz otib, quyosh eng muqaddas, oliy ibtido sifatida qadrlangan.Bu davr aholisi tog‘ tepalarida, ko‘l bo‘ylarida, quyosh yaxshi ko‘rinadigan joylarda quyoshga sig‘inib, yaylovga boy yerni so‘rashgan. Bronza davrida vujudga kelgan o‘troq dehqonchilik vohalari aholisining diniy qarashlari dastlabki davrda dasht aholisi diniy qarashlari bilan ko‘p jihatdan o‘xshash bo‘lsada, o‘troq aholining keyingi tarixiy taraqqiyotida cho‘l aholisidan keskin farq qila boshlaydi, din jamiyatni boshqarishning ustuvor omiliga aylanadi. Tabiiyki o‘troq dehqon hayotida yer, suv, havo, olov (quyosh) muhim o‘ringa ega. Tabiat unsurlariga e’tiqod qilish dehqonlar jamoasida tobora uyg‘unlashib, aniq tizimga kirib boradi.

Qabrlardan topilgan bronza kurakchadan Sopollitepada, Ilk Tulxor qabristonida va Zamonbobo qabristoni topilmalari bilan qiyoslanadi. Murg‘ob vohasi, janubiy Tojikistondagi Nurek, Tandiryo‘l, Toxirboy3 va Zarkamar qabristonida o‘tkazilgan izlanishlar natijasida topilgan ashyolar, sopol buyumlar Mo‘lali bosqichi sopol buyumlaridan farq qilmaydi. Nurek va Tandiryo‘lning davriy sanasi mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi bilan belgilangan. Toxirboy-3 yodgorligi sopollari ustiga solingan zigzak belgilar Mo‘lali sopol idishlarida ham uchraydi. Bundan tashqari, yana Janubiy Turkmanistondan, Eronning Kaytarex qabristoni (mil.avv. II ming yillik oxirlari) sopollariga o‘xshashligi aniqlangan. Mo‘lali bosqichidan topilgan ikkita silindrli idish Eron Seistoni – Shaxri-Soxta manzilgohi 413-qabr sopollari bilan qiyoslanadi. Shunday qilib,Mo‘lali bosqichi kulolchilik mahsulotlari O‘rta Osiyo, Eron va Afg‘oniston yodgorliklari bilan bir davrga tegishli bo‘lib, bular Bo‘ston3, Mo‘lali, Nurek, Tandiryo‘l va Zarkamardir. Ularning sanasi mil.avv. XI – X asrlar bilan belgilangan.Chorvador qabilalar madaniyati jamoalarida dafn marosimlari va ularning xususiyatlari Shimoliy Baqtriyaning bronza davri chorvador qabilalarining yodgorliklari, asosan ja- nubi-g‘arbiy Tojikiston hududlarida joylashgan. Ularni keng ko‘lamda o‘rganish ishi A.M. Mandelshtam tomonidan 1950-yillarning o‘rtalaridan Ilk Tulxor qabristonini ochishdan boshlanadi. Dafn marosimlarini kuzatishda belgilariga qarab, asosan quyidagi uch kategoriyaga ajratish mumkin. 1) qabr tuzilishi; 2) ko‘mish usuli; 3) dafn anjomlarining turlari.

Odatda marhum vafot etgandan so‘ng, qurbonlik qilinib, xotirlash marosimi o‘tkazilgan. Qabristonlar arxeologik jihatdan ham etnografik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, qimmatli ashyoviy dalillarga boy bo‘ladi. Bu ashyolar orqali ularning dafn marosimlari va diniy qarashlari qanday bo‘lganligini aniqlab olish mumkin. Shu bilan birga marhum va uning hayotlik chog‘idagi kasb-hunari haqida tegishli ma’lumotlar beradi.

Ilk Tulxor qabristoni Shimoliy Baqtriyaning Bishkent vodiysida joylashgan bo‘lib, ushbu qabristonda olib borilgan qazishmalar natijasida 75 ta qabr ochilgan. Ularning uchtasida marhum tosh yashikka solib dafn etilgan. Qabrlar orasida 9 ta jasad kuydirib so‘ng dafn etilgan. 9 ta mozorda juft ko‘milgan skeletlaruchratilgan. Ilk Tulxor qabristonining 2 ta (№ 51, 58) qabrida srub madaniyatiga xos bronza pichoqlar topilgan.

Ilk Tulxor qabrlari tuzilishiga ko‘ra, asosan 4 turga bo‘linadi. Ular ayvoni qiya zinali qabrlar; tosh g‘ovli yorma qabrlar; katakomba qabrlar; yorma qabrlarning janubiy qismida o‘choq sifat chuqurchali qabrlar bo‘lib, ularning orasida ko‘p qo‘llanilgan usul ayvonli qiya zinali qabrlardir. Bu qabrlarga dafn etish uch xil usulda amalga oshirilgan. Bular bir skeletli qabrlar (ular 33 ta), juft skeletli qabrlar (9 ta) va bolalar qabrlari (4 ta) dir. Qabrlarning asosiy qismini yakka holatda ko‘milgan katta yoshdagilarning mozorlari tashkil etadi. Marhum va marhumalar jinsiga qarab, bir xil tartibda, qo‘l-oyoqlari bukilgan holatda, erkaklar o‘ng tomoni bilan, ayollar chap tomoni bilan ko‘milgan. Ilk Tulxor qabrlarining 3 tasida (№ 56, 57 va 62) qabr o‘rasining o‘rta qismi to‘g‘riburchak tarzda bo‘lib, uning devorlari plita toshlar bilan mustahkamlangan. Bu qabrlarda marhum skeleti tosh yashiklarda dafn etilgan. Skeletning bosh chanog‘i tosh yashikning sharqiy tomonida, oyoq suyaklari g‘arbida joylashgan.

Tosh yashikdagi skeletlarning ustki qismi qamish bilan yopilgan. Bu qabrlar erkaklarga ham, ayollarga ham tegishli bo‘lib, ularning jinsi bosh chanog‘i va toz suyak qoldiqlari orqali aniqlangan. Bunday qabrlarda dafn bilan bog‘liq hech bir ashyoviy dalillar uchratilmagan. Tosh yashiklar qabrlarning o‘rtasida joylashgan bo‘lib, A.M.Mandelshtam ularning davriy sanasini mil.avv. XI–X asr bilan belgilaydi.[23] Ilk Tulxor qabristonining 63, 64 qabrlarida odam skeleti kuydirib dafn etilgan bo‘lib, ushbu qabrlarda Yevroosiyo dasht mintaqalarining chorvador

[23] Мандельштам А. М. Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане // Материалы и исследования по археологии СССР (МИА). № 145. – Ленинград: Наука, 1968. – С. 64–82.

Andronova qabilalarida uchraydigan ramziy belgi svastikaning toshdan terib ishlangan shakli mavjud.Ilk Tulxor qabrlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri Deyarli barcha qabrlarda kul va ko‘mir parchalari uchratiladi. Ushbu qabristonda Deyarli barcha qabrlarda marhumning bosh qismi atrofiga kul Sepib chiqilgan. Bu ularning olov bilan bog‘liq diniy qarashlarining ramziy belgisidir. Bu qabristonda barcha katta yoshli marhum va marhumalar qabrida dafn anjomlari mavjud. Dafn anjomlarining asosiy qismini xuddi Sopolli madaniyati singari sopol idishlar, turli xil taqinchoqlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, bronza pichoqlar, bronza hanjar, bronza oyna va munchoqlar tashkil etadi.

Umuman, olganda Ilk Tulxor qabristonidagi ayvoni qiya zinali qabrlarda dafn anjomlarini tarkibiga ko‘ra, 4 turga ajratish mumkin. Bular – metall buyumlar; toshdan yasalgan buyumlar; sopol buyumlar; zeb-ziynat, pardoz buyumlaridan iborat. Bundan tashqari teridan va kigizdan ishlangan buyumlarning parchalari ham topilgan. Ushbu yodgorlikning katakomba qabrlarida esa dafn anjomlari ko‘p emas. Bu ashyolarning asosiy qismini sopol idishlar tashkil etadi. Idishlarning sirti asosan chizma va bosma naqshli shakllardan iborat. Dafn anjomlari orasida ko‘mish vaqtida qurbonlik uchun so‘yilgan qo‘yning suyaklari (oyog‘i va qovurg‘asi) uchratiladi.
Ilk Tulxor qabristonining to‘rtinchi tur qabrlarida kul va kuygan odam suyaklariga to‘la mitti o‘choqchalar bo‘lib, ular erkaklar qabrida to‘g‘riburchak plitadan yasalgan bo‘lsa, ayollarga tegishli qabrlarda aylana shaklidagi o‘choqlar uchratiladi. Bunday topilmalarning uchrashi, ularning diniy-falsafiy dunyoqarashidan guvohlik beradi. Erkaklarning qabrida to‘g‘riburchakli mitti o‘choqlarning uchrashi ularning oila posboni, qolaversa oila mulkini, boyligini yaratuvchi, himoyachisi sifatida qaralsa, ayollarning qabridagi aylana mitti o‘choqlar, ularning Ona yerga va quyoshga qiyoslanib, shakliy ramzi sifatida qo‘yilgan bo‘lishi mumkin.

Bolalarga tegishli bo‘lgan qabrlarda sopol idishlar, metall buyumlar va zeb-ziynat buyumlari deyarli topilmagan. Biroq, № 72, 73, 74, 75 qabrlarda tuxumning

mayda po‘choqlari borligi aniqlangan. Chunki bitta qabrning o‘zida 17 tadan 20 tagacha yosh bolalarning jasadi birgalikda dafn etilgan bo‘lib, bunday qabrlar qabristonning to‘rt joyida uchratiladi. Yosh bolalarning ham katta yoshdagilarning qabrida ham qizil rang uchraydi. Bu ham ularning e’tiqodi bilan bog‘liq udumlardan bo‘lib, bu udum so‘nggi bronza davri dafn marosimlari uchun xosdir.

Chunki qabrlarda qizil rangning uchrashi nafaqat Ilk Tulxor qabristonida, balki Sopolli madaniyatining so‘nggi bosqichlari qabrlarida ham ko‘plab uchraydi. Dafn anjomlari tarkibini sopol buyumlar, bronzadan ishlangan o‘roq, zeb-ziynat buyumlarining parchalari va qo‘yning suyaklari tashkil etadi. Dafn anjomlarining ko‘p qismi o‘roq yoki yarim oy shaklida bo‘lib, ular odam bosh chanog‘i yaqinida joylashgan bo‘lsa, o‘roq qo‘l panjalari yaqiniga qo‘yilgan. Bu yerda temirdan yasalgan buyumlarning borligi aniqlanmagan.

A.M.Mandelshtam tomonidan Ilk Tulxor qabristonida olib borilgan izlanishlar, qabrlardan topilgan ashyoviy dalillar va qabr tuzilishiga qarab, yodgorlikning davriy sanasi aniqlangan.[24] Bunga ko‘ra, Ilk Tulxor qabrlarining ko‘p qismini ayvonli qiya zinali qabrlar tashkil etadi. Bu usuldagi qabr tuzilishi Sopolli madaniyatiga xos urf-odatlar xosilasidir. Tadqiqotchilar Ilk Tulxor qabristonidagi ayvonli qiya zinali qabrlarning sanasini mil.avv. XIII-IX asrlar bilan belgilaydi. Yevroosiyo dasht qabilalarining O‘rta Osiyo hududlariga kirib kelishi arxeologik manbalar tahliliga ko‘ra, mil.avv. XIV-XIII asrlarda yuz bergan. Andronova chorvador qabilalarning janubga migrasiyasi oqibatlari Shimoliy Baqtriya bronza davri jamoalarining dafn marosimlarida o‘z aksini topgan. Mayitni yoqib dafn etilishi Sopolli madaniyatining Mo‘lali va Bo‘ston bosqichlarida ham kuzatiladi. Bu holat Andronova qabilarining janubga migrasiyasi bilan bog‘liq ekanligi inobatga olinsa, ularni Baqtriya hududiga mil.avv. XIII – IX asrlar davomida to‘xtovsiz kirib kelganligi ko‘zga tashlanadi.

[24] Мандельштам А.М. Кочевники на пути в Индию / Труды Таджикской археологической экспедиции Института археологии АН СССР и Института истории им. А. Дониша АН Таджикской ССР. Т. V. (Материалы и исследования по археологии СССР, № 136). – М.-Л.: Наука, 1966. – С. 132–145.

Ilk Tulxor qabristoni bilan bir vaqtda Aruktau yodgorligi ham o‘rganilgan bo‘lib, u qabrlar tuzilishiga ko‘ra 2 turga bo‘linadi. 1) tosh devorli qabrlar; 2) tosh qo‘rg‘on ostidagi yorma qabrlardan iboratdir. Bu yerdan 13 ta mozor-qo‘rg‘onlar o‘rganilgan. Birinchi turdagi tosh qo‘rg‘on aylana yoki to‘g‘riburchak shaklida bo‘lgan. Izlanishlar davomida Aruktau qabristoni yakka holatda dafn etish uchun mo‘ljallanganligi aniqlangan Qabrda skelet o‘ng tomonga yonboshlatilgan holda, boshi sharq yoki shimoliy-sharqqa qaratilgan.



5.1-rasm. Ilk Tulxor qabristonida dafn etishning qayta tiklangan holati

Ikkinchi turdagi qo‘rg‘onlar faqat bitta holatda uchratilgan. Ushbu qo‘rg‘on to‘g‘riburchak shaklida bo‘lib, g‘arb bilan sharqqa qaratib yo‘naltirilgan. Bu yerda qiz bolaning skeleti chap yonboshi bilan qo‘l-oyoqlari bukilgan holatda qo‘yilgan bo‘lib, boshi sharqqa qaratilgan. Oyoqlari tizzasigacha bukilgan, qo‘llari ham bukilgan bo‘lib, panjalari bosh suyagining yuz qismi qarshisida joylashgan. Dafn anjomlari tarkibini sopol idishlar va pardoz buyumlari (bronza sirg‘a va braslet) tashkil etadi. Umuman olganda, Aruktau qabrlaridagi dafn anjomlarini faqat sopol buyumlar emas, metall buyumlardan ishlangan idishlarning parchalari ham uchraydi.

Tairsu daryosining o‘rta oqimidagi Vaxsh vodiysi va Dangara platosi hududida bir necha dehqonchilik manzilgohlari va qabristonlari aniqlangan. Bularga Kangurttut, Daxana, Teguzak, Baraki Kurug va Nurek qabristonlari kiradi. Bu yodgorliklarda bir necha yillardan buyon Janubiy Tojikiston arxeologik ekspedisiyasi izlanishlar olib bormoqdalar. Tojikiston hududida bronza davri yodgorliklarini o‘rganish bo‘yicha yetuk mutaxassislar N.Vinogradova va L.T.Pyankovalar ushbu hududda izlanishlarni davom ettiradilar. N.Vinogradova tomonidan Kangurttut va Tandiryo‘l qabristonlari L.T.Pyankova tomonidan Tigrovaya Balka qabristoni o‘rganildi.

Kangurttut qabristonida 1300 kv m ga yaqin joydan 91 ta qabr ochib o‘rganilgan. Qabrlarning asosiy qismi qabristonning markaziy va sharqiy qismida joylashgan. Qabrning ustki qismi va kirish teshigi toshlar bilan berkitilgan. Qabrlarni tuzilishiga qarab 3 turga ajratish mumkin. Bular 1) yorma; 2) ayvonli lahad; 3) katakomba qabrlardir. Qabrlarning lahadga kirish teshigi aylana yoki oval shaklida bo‘lib, qabr kamerasida ba’zan toshlar, ba’zan sopol parchalari va ko‘mir izlari uchraydi. Bu yerda o‘rganilgan barcha qabrlarda deyarli odam suyaklari uchratilmagan ya’ni Kangurttutdagi 91 ta qabrdan 3 ta ingumasiya (№ 53, 65, 74), qolganlari kenotaf qabrlarni tashkil etadi. Faqat, ikkita qabrda hayvon suyaklari borligi aniqlangan (№ 23, 53 qabr). Qabr kamerasida odam skeleti qo‘yilishi zarur bo‘lgan joylarda odam yoki hayvon haykalchalari qo‘yilgan bo‘lib (73-qabr), ularning atrofiga bir nechtadan sopol idishlar qo‘yilgan. Bulardan 53-qabrdagi odam suyaklari yaxshi saqlanib qolgan. Qabrlarda 1 tadan 12 tagacha sopol idishlar, bronzadan mitti buyumlar (pichoq, oynacha va boshqalar), urchuqtoshlar uchratiladi. Bundan tashqari Andronova qabilalariga tegishli sopol parchalari ham topilgan. Bu qabristonda kremasiya izlari uchratilmagan. Kangurttut qabrlari ashyoviy dalillari va tuzilishiga ko‘ra, Surxondaryo vohasidagi qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklari – Sopollitepa, Jarqo‘ton, Bo‘ston, Shimoliy Afg‘onistonning Dashli Janubiy Turkmanistonning Sumbar (Xlopin, 1983), Murg‘ob vohasi yodgorliklari – Gonur,

Auchun tepa, Toxirboy 3, To‘g‘oloq 1, To‘g‘oloq 21 yodgorliklari bilan yaqin – urug‘dosh bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Dafn kamerasining kirish qismi juda ko‘plarida maxsus pishgan va xom g‘ishtlar hamda toshlar bilan yopilgan. Bu qabr tuzilishi Janubiy-g‘arbiy Tojikistondagi katakomba va ayvonli lahad qabrlarga tegishlidir. Kangurttutdagi ayvonli lahad qabrlarining topilmalari Jarqo‘ton 4 qabristoni materiallari bilan deyarli bir ekanligi aniqlangan.

Kangurttutdagi № 65, 74 qabrlardan bosh suyak qoldiqlari, qo‘l va oyoqning uzun suyaklari topilgan. Qabrlarda qo‘y va bo‘rining suyaklari uchraydi. Dafn anjomlari esa, Parxar, Qizlar qal’a va Nurek qabristonlari bilan bir xil ekanligi aniqlangan. Tandiryo‘l qabristoni Tojikistonning Tursunzoda tumanidagi Negmad-Bacha II qishlog‘ida joylashgan. Qabristonning umumiy maydoni 300x500 m bo‘lib, bu yerdan 34 ta qabr ochib o‘rganilgan. O‘rganilgan qabrlarning 2 tasigina kenotaf qabrdir. Qabrning ustki qismi va kirish teshigi toshlar bilan berkitilgan.

Qabrlar tuzilishiga ko‘ra, 4 ta turga bo‘linadi. Bular: 1) yorma qabrlar; 2) qiya yorma; 3) ayvonli lahad; 4) katakomba qabrlardir. Ikkinchi turdagi qabrlar faqat Tandiryo‘l qabristoni uchun xarakterlidir. Shunday bo‘lishiga qaramay qabrlarning asosiy qismini ayvonli lahad va katakomba qabrlar tashkil etadi. Marhumning dafn etish usuli odatdagidek, yon tomoni bilan oyoq-qo‘llari bukilgan holatda ko‘milgan. Ularning boshi shimoliy-sharqqa qaratilgan. Odam suyaklari antropologik jihatdan yaxshi saqlangan.

Qabrlarda 1 tadan 9 tagacha sopol idishlar, mitti mehnat qurollari topilgan. Ular bilan birga, sirg‘a va popuk, bezaklar ham topilgan. Qabrlardan topilgan barcha ashyoviy dalillar Shimoliy Baqtriyaning dehqonchilik madaniyati yodgorligi – Sopolli madaniyatining Mo‘lali bosqichi topilmalariga o‘xshashligi bilan xarakterlanadi. Bu qabristonda nafaqat idishlar, bronzadan ishlangan mitti pichoqlar, turli xil bezaklar, qimmatbaho toshdan munchoq, Terrakota urchuqtoshlar uchratilgan. Bunday dafn etish usuli Shimoliy Baqtriyaning – Jarqo‘ton 4a, Bo‘ston

6 qabrlari bilan bir xilligi aniqlangan. Tandiryo‘l qabristonida Kenotaf mozorlar ham uchratilib, ularda loydan yasalgan odam haykalchalari, haykalchalar atrofida sopol idishlar va boshqa buyumlar topilgan. Qabrdagi odam suyaklarini antropologik jihatdan o‘rgangan T.P.Kiyatkina ularni yevropoid irqining sharqiy o‘rta yer dengizi tipiga oid ekanligini aytadi.

Nurek qabristoni Vaxsh daryosining o‘ng qirg‘og‘ida Amudaryo bilan tutash qismida joylashgan. Bu qabristonda beshta mozor ochilib, ularning 3 tasi (№ 1-3) adirlik Tepasida, qolgan 2 tasi (№ 4-5) Vaxsh daryosining ikkinchi terrasasining pastrog‘ida joylashgan. Bu yerdagi 1,3 va 4-qabrlardagi ashyoviy dalillar qabristonni bronza davriga tegishli ekanligini asoslaydi. Qabrlar yomon saqlanganligi sababli ularning tuzilishini aniqlash imkoni bo‘lmagan. Qabrdagi odam suyaklari (bosh chanoq va qo‘l suyaklari) tosh plita bilan yopib qo‘yilgan. Marhum skeleti g‘ujanak holatda uchratiladi. Ba’zi qabrlarda suyak qoldiqlari topilmagan, ammo ularda sopol idishlar uchraydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Nurek qabristonida xuddi Kangurttut qabrlari singari Kenotaf qabrlar ham bo‘lgan. Qabrlarda 1 tadan to 5 tagacha dafn anjomlari uchratilib, bular asosan sopol vazalar, tog‘orachalar, tuvak shaklidagi idishlar, shuningdek munchoqlar, oltin uzuk va bronza pichoqlardan iborat. Qabrlarda dashtliklarga xos pichoq ham topilgan.

Nurek qabristonidan topilgan ashyoviy buyumlar ushbu qabristonni bronza davriga tegishli ekanligini ko‘rsatadi. Idishlar orasidagi ingichka oyoqli vazalar, bolta ko‘rinishidagi devorga ilib qo‘yishga mo‘ljallangan buyumlar, idishlarning ustki qismidagi angobning uchrashi, idishlarning bo‘g‘zidagi Vertikal tarzida o‘tkazilgan chiziqlar Sopolli madaniyatining Mo‘lali bosqichi uchun xarakterli bo‘lib, aynan bunday idishlar Tandiryo‘l, Jarqo‘ton-4S, Bo‘ston 6 qabristonining Mo‘lali bosqichi qabrlariga xosdir. Topilmalarning boshqa qismi Sopolli madaniyatining Bo‘ston bosqichi qabrlari, Kangurttut, Jarqo‘ton – 4S, Bo‘ston 6 qabrlari uchun xosdir. Nurek qabristonidagi 3-qabrdan topilgan noyob topilma – tilla uzukni hyech bir topilmaga

qiyoslab bo‘lmaydi. Bronza pichoqning qoldiqlari esa dasht tipida bo‘lib, Kangurttut topilmalariga juda ham yaqin.

Shundan kelib chiqib, ushbu qabristonni davriy jihatdan Sopolli madaniyatining Mo‘lali va Bo‘ston bosqichlari orasi bilan Belgilash mumkin. So‘nggi bronza davrida Janubiy-g‘arbiy Tojikiston hududiga Andronova madaniyati qabilalari kirib kelishi kuzatiladi. Ularning izlari Qumsoy - Hisor vodiysida, Kirov nomli savxozdagi manzilgoh, Kurgan-Tyuba (Qo‘rg‘on tepa)da, Xavolin rayonidagi Tuyun qabristonida, Sharqiy Pomir hududlarida uchratiladi.


Qumsoy qabristoni Xisor vodiysining tog‘ bo‘yi hududlarida joylashgan. Qumsoy chap tomondagi tepaliklarda, Tursunzoda hududida joylashgan. Bu hududda arxeologik izlanishlar Janubiy Tojikiston arxeologik ekspedisiyasi tomonidan 2 yil davomida 1987-1988 yillarda olib borilgan. Qazish ishlari natijasida 21 ta qabr va 1 ta Kenotaf qabr ochib o‘rganilgan. Qabrlar asosan ayvonli-lahad tuzilishida bo‘lib, ularning kirish chuqurchasi katta toshlar bilan berkitilgan. O‘rganilgan qabrlar orasida katta yoshdagi erkak kishilar qabri mutlaqo uchramaydi. 35-45 yoshlardagi ayol kishiga tegishli faqat 1 ta (№13) qabr topilgan. Qabrlarning bir qismida 18-22 yoshli yigit-qizlarga tegishli skeletlar bo‘lsa, qolgan ko‘p qismi chaqaloqlarga, yosh bolalarga tegishli qabrlarligi aniqlangan.

Qabrlarda jasadning joylashish holati bronza davri odatiga ko‘ra, jinsiga qarab, o‘ng yoki chap tomonga qo‘l-oyoqlari bukilgan holatda yonboshlatib ko‘milgan. Marhumning atrofida turli xil idishlar, qizlarnikida bronzadan munchoqlar topilgan. Biroq, chaqaloqlarga va yosh bolalarga tegishli bo‘lgan qabrlar deyarli dafn anjomlarisiz ko‘milgan. Bunday holat Shimoliy Baqtriyaning bronza davri dehqonchilik madaniyati sohiblarida ham kuzatiladi. Bu esa, chorvador va dehonchilik madaniyatlari o‘rtasida o‘zaro aloqalar bo‘lganligidan dalolat beradi. Qabrlarda olov va ko‘mir izlari topilmagan. Dafn etilganlarni antropologik jihatdan

o‘rgangan T.P.Kiyatkina jasadlar yevropoid irqining sharqiy o‘rta yer dengizi tipiga tegishli ekanligini aniqlaydi.

Qabrlardan topilgan idishlar qizg‘ish-jigarrang tusda, ularning ustki qismiga yupqa qilib oq angob berilgan. Bunday xildagi idishlar Sopolli madaniyatining Mo‘lali, Bo‘ston 6 va Jarqo‘ton 4 qabristonlarida, hamda Janubiy Tojikistondagi dehqonchilik madaniyati yodgorligi – Tandiryo‘l qabristonidan ham topilgan. Qumsoy qabristoni sopol buyumlari ikki xil an’anaviy asosda tayyorlangan. Biri dasht Andronova yodgorliklari idishlarini eslatsa, ikkinchisi dehqonchilik madaniyati an’analarini eslatadi.

Qumsoy qabristonining arxeologik topilmalari Zarafshon vodiysidagi Andronova madaniyati yodgorliklari turkumiga kiruvchi Dashti-Qozi qabristoni buyumlarini eslatadi. Qabrlardan topilgan ashyoviy dalillar, naqshli idishlar marhumning boshi yaqinida, bronzadan ishlangan sirg‘a, oyna, bilakuzuk va munchoqlar marhuma skeletining tegishli qismlaridan topilgan. Bu ashyolar Zarafshon vodiysi Andronova yodgorliklari – Mo‘minobod va Gujayli yodgorliklari uchun ham xarakterlidir.



5.2-rasm. Qumsoy qabristonida dafn an’analarining ko‘rinishi.

Janubiy Tojikiston chorvador qabilalarning dafn etish usuli Sopolli dehqonchilik madaniyatining Jarqo‘ton, Bo‘ston 6 qabristoni dafn marosimlariga o‘xshaydi. Ulardan farqi, faqatgina katakomba qabrlarning kirish qismi pishgan g‘isht bilan yopilganligida. Aynan bunday qabr tuzilishi Xisor vodiysidagi Tandiryo‘l qabrlarinikiga yaqin ekanligi bilan ajralib turadi. Qumsoy madaniyati materiallari, sopol buyumlari dehonchilik madaniyati yodgorligi – Sopolli madaniyati Mo‘lali bosqichi davri bilan bir ekanligini ko‘rsatadi.

Demak, Qumsoy qabristoni bronza davri dasht chorvador qabilalar madaniyatini o‘rganishda noyob yodgorlik hisoblanadi. Qabr tuzilishi, ko‘mish usuli, dafn anjomlariga ko‘ra, ikkita bir-biriga yaqin bo‘lgan an’anaga: shimoliy qismi Zarafshon vohasi (Chaka, Mo‘minobod, Dashti-Qozi) – Andronova doirasida, janubiy qism materiallari Sopolli – Dashtli dehqonchilik madaniyatlari bilan qo‘shilib ketgan, deyish mumkin. Andronova qabilalariga Tegishli ikkinchi qabriston Tuyun qabristoni bo‘lib, bu qabriston 1997-yil Xovalin tumani yaqinidagi Tuyun qishlog‘idan topilgan. Qizilsuv daryosi yonida dastlab, Andronova madaniyati qabristoni ochiladi. Ushbu qabrlarning tuzilishi katakomba shaklida bo‘lib, lahadga kirish yo‘lagi (1x0,8 m, chuqurligi 0,6 m) tosh bilan berkitilgan. Dromosning janubiy- sharqiy qismida dafn kamerasi (1,6 x 1 m) joylashgan. Qabrning ichida kichik yoshdagi bolaning skeleti chap tomonga yonboshlatilib, yuzi qabrning kirish qismiga qaratilgan holda ko‘milgan. Bu qabrdan topilgan ashyoviy dalillar – sopol idishlarning tuzilishi, sirtidagi Belgili naqshlar Andronova qabilalarining Fedorov bosqichi sopol buyumlari uchun xarakterlidir. Bronza buyumlar esa Qumsoy qabristoni Teriallariga xosdir.Bu qabriston ham xuddi Qumsoy qabristoni singari Andronova madaniyatining Zarafshon variantini eslatadi. Zarafshon vodiysi dasht qabilalarining dafn marosimlari hamda antropologik tipi Qozog‘iston va Janubiy Sibir hududidagi Andronovaliklarnikidan farq qiladi. O‘rta Osiyo dasht qabilalari antropologik

jihatdan ko‘proq janubiy hududlarning dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi qabilalarga yaqinroqdir.

Chorvador dasht qabilalarining moddiy madaniyat izlari Sharqiy Pomirdan ham topilgan. Arxeologik materiallar shuni ko‘rsatadiki, Andronova madaniyati qabilalarining sharqqa, Sharqiy Pomirgacha ko‘chish harakati kuzatiladi. Qabrlar qo‘rg‘on tuzilishida bo‘lib, qo‘rg‘on ostida toshdan g‘ov ochilgan, g‘ov ichida esa marhum tosh qutida yotganligi kuzatilgan. Ammo qo‘rg‘on o‘g‘irlangan. Ushbu qo‘rg‘ondagi skelet yosh bolaga tegishli bo‘lib, u juda yomon saqlangan. Tosh g‘ovning ichki qismida otning bosh chanog‘i, markazida gulhan o‘rni, hayvon suyaklari hamda naqshli sopol parchalari topilgan. Bu sopol parchalaridan biri taroqsimon bosma (chekma) naqshlar bilan bezalgan bo‘lib, u Andronova madaniyati yodgorliklarining fedorov tipi uchun xarakterlidir. Andronova madaniyati yodgorliklarida olib borilgan izlanishlarning guvohlik Berishicha, bu qabila Xisor vodiysidan Sharqiy Pomirgacha bo‘lgan hududlarga Kelib joylashgan. Chorvador aholi bilan dehqonlar an’anasi qo‘shilgan Andronova madaniyati qabristonlari (Qumsoy, Tuyun) dafn etish inshootining tuzilishi, ko‘mish holati va dafn anjomlariga ko‘ra, ular bir biriga o‘xshash ikki etnik jamoalar an’anasi: shimoliy - Andronova madaniyati va janubiy- mahalliy tub joyli dehqonchilik an’analari qo‘shilgan deyish mumkin.

Janubiy-g‘arbiy Tojikistonda istiqomat qilgan Andronova madaniyatining quyi davriy chegarasi Qumsoy qabristonining “dehqonchilik” sopol buyumlari bilan belgilanadi. Bu idishlar dehqonchilik madaniyati yodgorligi bo‘lgan Mo‘lali bosqichi uchun xarakterli bo‘lib, uning davriy sanasi mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi bilan chegaralanadi. Yuqori davriy chegarasi esa, Yaz I idishlariga xos bo‘lgan sopol buyumlar (Kirov nomli savxozdan topilgan) ning topilishi bilan belgilanadi.

1961 – 1967 yillarda qadimgi Vaxsh va Qizilsu daryolari atrofida Janubiy Tojikiston arxeologik guruhi B.A.Litvinskiy rahbarligida so‘nggi bronza davriga tegishli 5 ta

yodgorlikda (Vaxsh, Tigrovaya Balka, Oykoʻl, Jarkoʻl va Makoni mor qabristonlari) izlanishlar olib boradi. Ular Vaxsh daryosining oʻng qirgʻogʻida, Kobadian tumani hududida joylashgan. Vaxsh madaniyatini oʻrganishda bu hududdan topilgan qadimgi qabristonlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu qabrlar tuzilishiga koʻra, ustki qismiga aylana shaklida toshlar terilgan. Qoʻrgʻonlar halqasimon tarzda bir-biriga yaqin joylashgan. Vaxsh I qabristonining umumiy maydoni 3,6 ga boʻlib, bu yerda 50 ta qoʻrgʻon borligi aniqlangan. Ulardan 40 tasida arxeologik qazishmalar olib borilgan. Oykoʻl qabristoni 5,75 ga boʻlib, unda 52 ta qoʻgʻon borligi aniqlangan va ularning barchasida qazish ishlari olib borilgan. Jarkoʻl qabristoni maydoni 8,5 ga. Bu joyda 80 ta qoʻrgʻon aniqlangan boʻlib, ularning 13 tasidagina qazish ishlari olib borilgan. Makonimor qabristoni maydoni 6 ga boʻlib, bu joydagi 40 ta qoʻrgʻondan 12 tasida izlanishlar olib borilgan.

Vaxsh madaniyati qabristonlarida marhumni dafn etish usuli odatdagidek, jasadlar qoʻl-oyoqlari bukilgan holatda, yonboshlatib koʻmilgan. Ba’zi-ba’zi hollarda marhum orqasi bilan yoki qorni bilan yotganlik holatlar ham uchratilgan. Qabrlarning asosiy qismini kenotaf mozorlar tashkil qiladi. Ularda dafn marosimlari bilan bogʻliq ashyoviy dalillar deyarli uchramaydi. Ba’zilarida bittadan idish uchratilib, ularning sirti naqshlangan. Vaxsh madaniyati yodgorligining davriy sanasi mil.avv. XII-X asrlar bilan belgilangan. Qabrlar tuzilishiga koʻra, ayvonli – lahad tuzilishida boʻlib, qabrning tag qismiga tosh Terib chiqilgan. Bu yerda oʻrganilgan yodgorliklarning ichida eng yirigi Tigrovaya Balka qabristoni boʻlib, uning maydoni 54,4 ga teng. Mana shu maydonda 130 ta qoʻrgʻon aniqlangan.

L.T.Pyankova Tigrovaya Balkada 116 ta qoʻrgʻonda arxeologik qazishmalar olib borgan boʻlib, shulardan 82 tasida jasadlar kuzatildi. Qolganlari Kenotaf qabrlar ekanligi aniqlangan. Qabrning dromos qismi turli xil koʻrinishga ega boʻlib, ular – oval, toʻgʻriburchak (koʻp qismni tashkil etadi), uchburchak, T– shaklida va yoysimon koʻrinishda boʻlgan. Tigrovaya Balka qabrlari oʻxshashligi jihatidan Vaxsh

madaniyatining Oykoʻl va Vaxsh I qabrlariga juda yaqin. Qoʻrgʻonning ustki koʻrinishi, umumiy tuzilishi ham ushbu tadqiqotchi tomonidan oʻrganilgan.

Tigrovaya Balka qabristonida ochilgan mozor-qoʻrgʻonlardan 29,2% ni kenotaf qabrlar tashkil etadi. Kenotaf qabrlarning tashqi koʻrinishi, oʻlchami marhum dafn etilgan qabrlardan farq qilmaydi. Bu qabriston kenotaf qabrlarning koʻpligi bilan Vaxsh madaniyatining boshqa yodgorliklaridan ajralib turadi. Vaxsh va Bishkent madaniyatida chorvador dasht qabilalari sopol buyumlari topilgan. Andronova sopol parchalari aynan Ilk Tulxor, Aruktau, Makoni-Mor, Oykoʻl, Jarqoʻl, Tigrovaya Balka qabristonlarida hamda Teguzak, Kangurttut manzilgohlarida uchratiladi. Vaxsh madaniyati bilan Sopolli madaniyatining soʻnggi bosqichlaridagi sopol buyumlar bu ikki madaniyat oʻrtasida oʻzaro aloqalar boʻlganligini koʻrsatadi. Vaxsh madaniyati qabrlari Sopolli madaniyati qabrlaridan farq qilib, tashqi tuzilishiga koʻra, tosh qoʻrgʻon koʻrinishida boʻlib, bundagi holat ularning hududiy joylashish oʻrnidan kelib chiqqan. Antropolog T.Q.Xodjayov bu madaniyat aholisining antropologik tipi Qadimgi Baqtriya hududidagi oʻtroq dehqonchilik yodgorliklariga xos qiyofada boʻlganligini ta’kidlaydi.

Vaxsh madaniyati qabristonlaridan topilgan sopol buyumlari Shimoliy Afgʻonistonning soʻnggi bronza davri yodgorliklari topilmalariga oʻxshab ketadi. Bishkent madaniyati sopol buyumlari esa, Qadimgi Baqtriyaning Janubiy Oʻzbekiston hududidagi Sopolli madaniyatining Moʻlali bosqichi sopol buyumlariga oʻxshaydi.

Vaxsh va Bishkent madaniyatiga tegishli katakomba qabrlar tashqi koʻrinish jihatidan bir –biridan ajralib turadi. Barcha Vaxsh qabrlarining tashqi koʻrinishi aylana shaklida tosh qoʻrgʻon tarzida boʻlgan. Bunday koʻrinishdagi qabr tuzilishi Ilk Tulxor qabrlarida uchramaydi. Ilk Tulxor qabristonida faqat katakomba qabrlarning ustki qismi tosh uyumi bilan qoplangan. Asosan aylana shaklida tosh bilan qoplangan

qabrlar Aruktau qabristonida mavjud bo‘lsada, uning ostidagi mozorlar yorma qabrlardir.

Yuqorida tavsif etilgan materiallar mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida shimoliy dasht chorvadorlarining Shimoliy Baqtriya hududlariga kirib kelishi va mahalliy aholi bilan o‘zaro munosabatlari haqida ma’lumot beradi. Bu ma’lumotlarning ilmiy tahlili Shimoliy Baqtriya hududlarida so‘nggi bronza davrida, ro‘y bergan tarixiy jarayonlar va turli etnik guruhlarning dafn marosimlari bilan bog‘liq diniy va dunyoviy qarashlar majmuasi haqida tasavvurlar hosil qilishga yordam beradi. Ilk Tulxor qabristonining deyarli barcha o‘rganilgan qabrlarida olov bilan bog‘liq holatlar (kul, ko‘mir, altar va boshqalar) uchratilgan. Eng muhimi qabrlarning ikkitasida (№ 63-64) svastika belgisining toshdan ishlangan shakli topilgan. Bu qabr Andronova qabilalariga tegishli ekanligiga ishoradir. Vaxsh madaniyati yodgorliklari ichida eng yirik yodgorlik Tigrovaya Balka qabristoni bo‘lib, uning qabrlarida ham olov bilan bog‘liq ramzlar uchraydi. Qabrlarda qizil rangning tez-tez uchrashi bronza davri jamoalarining umumiy e’tiqodi bilan bog‘liq ramziy ma’no bo‘lgan, degan xulosaga kelish mumkin. Ularning diniy e’tiqodi dafn marosimlarida aks etib, ular aynan zardushtiylik dinining oddiy ko‘rinishdagi, ilk ildizlari, asosi bronza davri bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bronza davrining o‘rtalarida zardushtiylikning izlari aks etar ekan, demak bu davr e’tiqodini ilk zardushtiylik paydo bo‘la boshlagan davr, deb atash imkonini beradi.

Ajdodlarimiz mehnati tufayli hayvont olamidan ajrab, odam sifatida shakllanish davrining so‘nggi bosqichlarini o‘tayotgan kezlarda (qadimgi tosh davrining mustye bosqichi), yashash uchun kurash og‘irliklari, tabiat kuchlari oldida ojizligini Seza boshlaydilar. Shuning uchun o‘zlarining yashash mintaqalarida tirikchilik manbai bo‘lgan turli xil tabiat ne’matlariga topina boshlaydi, ular tufayli yashashda davom etayotganligi haqidagi ilk tasavvurida ularni ilohiylashtira boshlaydilar. O‘sha davrlarda tabiatning ularga tortiq etgan mo‘jizasi turli hayvonlar va yovvoyi

o‘simliklar bo‘lgan. Shu boisdan bo‘lsa Kerak, odamzod ilk diniy qarashlarida hayvonlar va daraxtlarga e’tiqod qilish Kelib chiqadi. Bu totemizm nomi bilan fanda o‘z o‘rnini topgan.

Kishilik tarixida odamzodni jamoa bo‘lib yashash, ya’ni urug‘chilik davri boshlanadi. Dastlab, urug‘ni onalar boshqarib, ular urug‘ning davomiyligini ta’minlovchi, odamzodga jon ato etuvchi iloh sifatida tasavvur qilina boshlandi. Bu qadimgi tosh davrining yuqori paleolit bosqichida yuz beradi. Shunday qilib, ajdodlar ruhiga sig‘inish, onalarni ilohiylashtirish fan tilida animizm, fetishizm, ajdodlar ruhiga sig‘inish, deb atalgan diniy qarashlarni paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu ibtidoiy diniy qarashlar arxeologik obyektlarda, ajdodlarimizdan qolgan dafn marosimlarida yaxshi kuzatiladi. Ular arxeologik obyektlarda ramziy ma’noda qoya toshlarga, hayvon suyaklariga chizilgan turli xil shakllar, haykalcha qiyofasidagi ramziy ilohlar ko‘rinishida uchraydi.

Ibtidoiy jamiyat tarixini davrlashtirishda mezolit (o‘rta tosh davri), Neolit (yangi tosh davri) va eneolit (mis-tosh davri) bosqichlarida odamlarning diniy tasavvurlar haqidagi qarashlari kengayadi. Bular urug‘ jamoalarining kichik-kichik jamoaviy tarmoqlarga, jamoaviy guruhlarga bo‘linishi bilan bog‘liq jarayonlar bo‘lib, bu jarayonlar davomida har bir jamoa guruhining o‘ziga xos xarakteri va fazilatlari shakllanib borgan. Bunday totemistik diniy tasavvurlar fanda zoolatrik totemlar, ya’ni o‘zbekona iborada urug‘ jamoasining “laqabi” (totemiy belgisi) sifatida hayotiy an’anaga aylangan.

Bunday kultlar dinning norasmiy, markazlashmagan ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, tarixiy shakl-shamoyiliga ko‘ra, oilaviy yoki urug‘ kultlari va qabila kultlaridan iborat bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Ular eneolit va bronza davriga tegishli tosh munchoqlar va tumorlarda, oilaviy, jamoaviy muhrlarda o‘z aksini topgan va bizgacha yetib kelgan. Bunday diniy qarashlarning ayrim ko‘rinishlari xalq orasida hozirgacha saqlanib qolgan. Masalan, yosh bolaning qo‘liga, bosh kiyimiga ko‘zmunchoq, kiyimlariga

tumor taqib qo‘yiladi-ki, bular bolani turli xil ziyondan, nazardan asraydi, deyiladi. Ibtidoiy diniy qarashlarning ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladigan ajdodlar ruhiga sig‘inish alohida diniy qarash sifatida, fanda o‘z isbotini topgan. U tarixiy taraqqiyotning ilk patriarxal urug‘chilik bosqichiga xosdir. “Olamdan o‘tgan ota-bobolar va urug‘ boshliqlarining ruhi avlodlarni balo-qazolardan asraydi”, degan tushuncha, ushbu diniy qarashning mazmunini tashkil etgan. “Ruh doimo tirik, u odamzodni qo‘llab-quvvatlaydi va unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi”, degan tushuncha ushbu ibodat turining asosi hisoblangan.

Janubiy Tojikiston hududida ko‘p yillar izlanish olib borgan A.M.Mandelshtam bronza davriga oid ilk Tulxor qabristonidagi erkak kishi dafn etilgan bir qabrdan to‘rtburchak shakldagi altarni, ayol kishiga tegishli bir qabrdan aylana shaklidagi altarni uchratadi. Odatda doira shakli bu ona yer va quyoshning ramziy ma’nodagi ko‘rinishini ifodalasa, to‘rtburchak shakli o‘sha davr nuqtai- nazaridan qaraganda tabiatning to‘rt muqaddas unsuri – quyosh - yer yuziga issiqlik energiya yetkazuvchi, uning yerdagi parchasi sifatida olov, yer – unumdor tuproq, musaffo havo, suv – obi hayotning bir e’tiqod buyumida mujassamlashganligi bo‘lishi mumkin. Agar bu masalaga falsafiy nuqtai-nazardan yondashilsa, ayol kishi qabridan dumaloq shakldagi altarning topilishi ona yer va energiya, issiqlik, iliqlik taftini ulashuvchi quyoshga yaqin qiyoslab e’zozlangan, erkaklar esa yerning, toza havoning, suvning muqaddasligini, sofligini saqlovchi, qo‘riqchisi sifatida qaralgan bo‘lishi mumkin.
Shunday qilib, eneolit davridan boshlab ibtidoiy ajdodlarimizni mis va qalayi, qo‘rg‘oshin va mishyak konlari qiziqtirib kelgan. Ular aralashmasidan olingan bronza xom ashyosi esa mehnat va harbiy qurollar yasashda juda asqotgan. Metall xom ashyosiga bo‘lgan talab har ikki xo‘jalik sohiblari uchun ham hova va suvdek zarur edi. Shu bois bo‘lsa kerak, chorvadorlarning dashti qazida paydo bo‘lishi, o‘troq dehqonchilik madaniyati sohiblari sarazmliklarning Zarafshon vodiysining bosh

qismiga, Panjikentdan 50 km chamasi sharqda Yori, Konchach, Jilou konlariga yaqin joylashishi bejis emas edi.

Dastlab bu konlar sarazmliklar tomonidan o‘zlashtirildi, so‘ngra bronza davriga kelganda unga egalik qilish jangari chorvador qabilalar qo‘liga o‘tdi. Qadimgi bobo dehqonlarning Sarazmda qolishining istiqboli qolmaydi. Sarazmda qaynoq shahar hayoti keskin qisqarib, uning 100 gektarga yaqin maydoni harobaga aylanadi. Endi shaharsozlik madaniyati bilan bog‘liq yangidan-yangi qadimgi shahar markazlari Zarafshon vodiysining o‘rta va quyi havzalariga ko‘chadi. Masalan, Zarafshon daryosining chap sohilidan topilgan To‘qayli manzilgohini ko‘rsatish mumkin. Afsuski, To‘qaylida olib borilgan arxeologik izlanishlar Sarazm kabi katta natijalar bilan yakunlanmadi. Ammo To‘qaylidan topilgan ruda eritish qo‘rasining topilishi bu zaminda metallurgiya ustaxonalarining tadrijiy rivojidan (faoliyatidan) guvohlik beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi qabrlar va mozorlar ijtimoiy munosabatlar ko‘zgusi sifatida jamiyatning tabaqalanishi hamda ma’muriy-diniy guruhlar tarkibini qanday ochib beradi?
2. Bronza davri o‘troq dehqon va chorvador qabilalarining dafn marosimlaridagi o‘xshashliklar hamda farqli jihatlar ularning ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi bilan qanday bog‘liq?
3. Ilk Tulxor qabristoni misolida qabrlarning me’moriy tuzilishi, ko‘mish usullari va jinsga qarab taqsimlanishi qadimgi jamoalardagi iyerarxik tuzilmani qanday ifodalaydi?

6-MAVZU: QADIMGI E’TIQODLAR, DINIY QARASHLARNI VA DAFN MAROSIMLARINI O‘RGANISH MUAMMOLARI

REJA:

1. **Dafn yodgorliklari ijtimoiy tabaqalanishning ko‘zgusi sifatida**
2. **Dafn odatlari orqali qadimgi aholining dunyoqarashi va turmush tarzini modellashtirish**
3. **Qadimgi e’tiqod va diniy tasavvurlarni o‘rganish muammolari**

Qadimiy o‘zbek davlatchiligi va jamiyatlarining dunyoqarashini belgilovchi diniy qarashlar hamda dafn marosimlari tarixiy rekonstruksiya jarayonida eng muhim axborot manbalari hisoblanadi. O‘zbekiston hududidagi qadimgi madaniyatlarda o‘lim va hayotga bo‘lgan munosabat, shuningdek, marhumlarni kuzatishdagi an’analar jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi va ma’naviy olamini aniqlashga xizmat qiladi. Xususan, zardushtiylik va buddizmning turli mintaqalarda namoyon bo‘lishi, mahalliy aholining etnik hamda madaniy identitetini shakllantirgan. Bunday ritual artefaktlar, jumladan, ossuariylar, sopol idishlar va qabrga qo‘yilgan bezak buyumlari nafaqat marosimlar uchun, balki o‘sha davr xalqlarining mifologik tafakkurini o‘rganishda ham asosiy kalit vazifasini o‘taydi.

Mazkur jarayonlar mintaqaviy miqyosda tahlil qilinganda, Xorazm vohasi o‘ziga xos arxitektura va madaniy yodgorliklari bilan ajralib turadi. S.P. Tolstov tadqiqotlari asosida Tuproq-qal’a, Qoy-qirilgan-qal’a va Ayaz-qal’a kabi yodgorliklar nafaqat mudofaa istehkomlari, balki muhim diniy va siyosiy markazlar bo‘lganligini ko‘rsatadi.[25] Ushbu obidalardagi freskalar va relef tasvirlarida o‘z aksini topgan mifologik mavzular G.A. Pugachenkova tomonidan yuqori san’at darajasi sifatida qayd etilgan. Bu yodgorliklar o‘z davrining keskin siyosiy vaziyatini va o‘zgaruvchan tarixiy sharoitlarini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, Xorazmning o‘ziga xos madaniy qiyofasini shakllantirgan. Mintaqadagi topilmalar, shuningdek, xorazm tiliga oid yozma yodgorliklarning tahlili xalqaro

[25] Толстов С.П. Древний Хорезм . — М.: ИМГУ, 1948. – С. 341

aloqalar va mintaqalararo g‘oyalar almashinuvida Xorazmning o‘ziga xos o‘rnini belgilab beradi. O‘rta asrlar Xorazm me’moriy yodgorliklari va qabr majmualari mintaqa ijtimoiy-madaniy rivojlanishining muhim bosqichlarini aks ettiruvchi ko‘zgudir. Xususan, Ko‘hna Urganchdagi Kutlug-Temur va To‘rabek-xonim maqbaralari nafaqat me’moriy yechimi, balki davrning diniy va ijtimoiy qarashlarini ifodalovchi yirik inshootlardir. Kutlug-Temur maqbarasidagi geometrik naqshlar va epigrafik yozuvlar o‘sha davr islom san’atining yuksalishini hamda diniy me’morchilikka bo‘lgan yuksak e’tiborni namoyish etsa, To‘rabek-xonim maqbarasi o‘zining betakror bezaklari va tuzilishi bilan jamiyatda yuqori tabaqali ayollarning mavqeiga bo‘lgan munosabatni aks ettiradi. Ushbu yodgorliklar o‘rta asrlar Xorazmining ma’naviy muhiti va estetik qarashlarini qayta tiklashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan bir qatorda, Jampik-qal’a hududida aniqlangan dafn komplekslari qadimgi Xorazm aholisining o‘lim va oxirat haqidagi tasavvurlari, shuningdek, dafn marosimlaridagi o‘ziga xos an’analarni chuqur o‘rganish imkonini beradi. Mazkur qabr majmualari o‘sha davr jamiyatining tabaqalanishi, marhumlarga bo‘lgan ehtirom va dafn etish marosimlari bilan bog‘liq ritual amaliyotlarning mahalliy xususiyatlarini yoritadi. O‘zbekiston hududidagi ilk o‘rta asrlar davri ijtimoiy manzarasini tiklashda arxeologik qabr yodgorliklari tabaqalanish darajasini ko‘rsatuvchi asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Jampik-qal’a majmuasida aniqlangan oddiy yer qabrlari aholining quyi va o‘rta qatlamlariga mansub bo‘lib, ularning dafn an’analari haqida muhim ma’lumotlar beradi. Ushbu qabrlardan topilgan kundalik ro‘zg‘or buyumlari, sodda liboslar va zarbof mato qoldiqlari o‘sha davr kishilarining turmush tarzi hamda moddiy imkoniyatlarini o‘rganishda tarixiy rekonstruksiya uchun qimmatli ashyoviy dalil hisoblanadi.

Mintaqaviy xususiyatlar Devkesken qal’asi misolida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu yerdagi qabr yodgorliklari o‘zining nisbiy soddaligi bilan ajralib tursa-

da, ularning ilmiy ahamiyati beqiyosdir. Arxeologik qazishmalar davomida topilgan qadimiy qurollar, idish-tovoqlar va bezak buyumlari ilk o‘rta asrlar jamiyatining harbiy, xo‘jalik va diniy hayotini yaxlit tasavvur qilish imkonini beradi. Bunday topilmalar hududiy miqyosda aholining e’tiqodiy qarashlari va marosimchilik madaniyati qanchalik barqaror bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, O‘zbekistonning qadimgi va ilk o‘rta asrlar jamiyatida dafn inshootlarining arxitekturaviy murakkabligi bevosita shaxsning ijtimoiy mavqeyiga bog‘liq bo‘lgan. Hukmdorlar, aslzodalar va diniy peshvolar uchun barpo etilgan mahobatli maqbaralar hamda murakkab qabr konstruksiyalari yuqori tabaqaning siyosiy va ijtimoiy nufuzini namoyish etish quroli bo‘lgan. Aksincha, oddiy fuqarolar uchun qo‘llanilgan sodda yerga ko‘mish amaliyoti jamiyatning ijtimoiy iyerarxiyasini aniq ko‘rsatib beradi. Mazkur ijtimoiy farqlar tarixiy jarayonlarni tizimli tahlil qilish va o‘sha davr davlatchilik tuzumining mohiyatini anglashda poydevor vazifasini o‘taydi. Qabr yodgorliklari nafaqat marosimiy inshootlar, balki Xorazm jamiyatining madaniy va estetik qiyofasini ochib beruvchi muhim tarixiy manbalardir. Ularning arxitekturaviy yechimi, bezak detallari va me’moriy uslublari o‘sha davr san’atining yuksak darajasidan dalolat beradi. Xususan, maqbaralar va qabr toshlariga ishlov berish uslublari marhumning jamiyatdagi mavqeini belgilash bilan birga, uning oilasi va jamiyat tomonidan ko‘rsatilgan ehtiromni ham namoyon etadi. Bunday me’moriy yodgorliklar qadriyatlar tizimi va ijtimoiy iyerarxiyaning o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etishda asosiy tayanch hisoblanadi.

Dafn marosimlarining o‘tkazilish tartibi esa jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishning yana bir ko‘rsatkichidir. Hukmron va yuqori tabaqa vakillari uchun xos bo‘lgan tantanali va rasmiy marosimlar qabristonlarning monumental ko‘rinishi bilan uyg‘unlashgan bo‘lsa, oddiy aholi qatlamida marosimlar ancha sodda va kamtarona amalga oshirilgan. Qabrlar ichida topilgan artefaktlar, marhum

bilan birga ko‘milgan buyumlar va turli ro‘zg‘or ashyolari o‘sha davr kundalik turmush tarzi, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy an’analarni rekonstruksiya qilishda bebahodir. O‘zbekiston tarixiy merosining ajralmas qismi bo‘lgan ushbu qadimgi va ilk o‘rta asrlar qabr yodgorliklarini saqlash hamda restavratsiya qilish dolzarb vazifalardan biridir. Ushbu inshootlar o‘z davrining tarixiy, diniy va ijtimoiy jarayonlarini o‘zida mujassam etgan boy manbalar sifatida avlodlar uchun o‘tmish sirlarini ochishda xizmat qiladi.

Farg‘ona vodiysining qadimgi chorvador va ziroatkor aholisiga oid mozor-qo‘rg‘onlar mintaqada dehqonchilik va chorvachilik madaniyatining shakllanish tarixini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bu borada Farg‘ona viloyatidagi So‘fon yodgorligi alohida o‘ringa ega. So‘fon mozor-qo‘rg‘onlari ilk bor N.G.Gorbunova[26] tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, olima 1956–1961-yillar oralig‘ida 24 ta qo‘rg‘onni qazib, tadqiq etgan. Keyinchalik, 1982–1985-yillarda Farg‘ona viloyati o‘lkashunoslik muzeyi arxeologi G.P. Ivanov ushbu hududda tadqiqotlarni davom ettirib, yana 64 ta qo‘rg‘onni o‘rgangan. Shu tariqa, mazkur yodgorlikda jami 88 ta qo‘rg‘on o‘rganilgan bo‘lsa, keyingi davrlarda tadqiq etilgan navbatdagi qabr shartli ravishda 89-qo‘rg‘on deb qayd etildi.

So‘nggi tadqiqotlar natijasida ochilgan 89-qo‘rg‘on qabr anjomlarining joylashuvi o‘sha davr dafn marosimlari va dunyoqarashi haqida aniq tasavvur beradi. Qabrning sharqiy qismida, marhumning tos va oyoq suyaklari yaqinida qabr devoriga suyalgan holda xurmacha va ko‘za joylashtirilgan. Ularning shimoliy qismidan qo‘y suyagi hamda temir pichoq topilgani marhumning jamiyatdagi mavqei yoki dafn marosimidagi ritual amaliyotlarning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Qabr chuqurining shimoli-g‘arbiy qismida, o‘ng yelka suyagi yonida joylashtirilgan kosa esa mazkur dafn majmuasining tarkibiy qismini boyitib,

[26] Горбунова Н.Г. Древние скотоводы Ферганы (по материалам Суфанского могильника) // Краткие сообщения Института археологии (КСИА). – Москва, 1962. – Вып. 91. – С. 91–98.

mintaqa qadimiy aholisining kundalik turmush tarzi va diniy-marosimiy an’analarini ilmiy jihatdan qayta rekonstruksiya qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.



6.1-rasm. Sufon mozorlaridan olingan rasm.

Qabrning sharqiy qismida, marhumning chap tomonida tos va oyoq suyaklari yonida devorga suyalgan xurmacha va ko‘za, ulardan shimolroqda esa qo‘y suyagi va temir pichoqning topilishi, shuningdek, o‘ng yelka suyagi yaqinidagi kosa o‘ziga xos ritual majmuani tashkil etadi. Bu jarayonning muhim bosqichi sifatida qo‘rg‘on o‘rtasida qolgan kul qoldiqlari qayd etilgan bo‘lib, bu dafn marosimi yakunlangach, olov yordamida marhumni so‘nggi manzilga kuzatishning ramziy bosqichi bo‘lganligini anglatadi.

Mazkur yodgorlikdagi topilmalar xronologik va ijtimoiy jihatdan turlicha bo‘lib, ular ikki xil madaniy qatlamni ifodalaydi. Birinchi qabr topilmalari o‘zining xususiyatlariga ko‘ra so‘nggi bronza yoki ilk temir davriga mansub bo‘lib, ikkinchi qabrga nisbatan tasodifiy va mustaqil xarakterga ega. Ikkinchi qabr esa milodiy IV-V asrlarga tegishli bo‘lib, u o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullangan aholining

madaniyatini aks ettiradi. Bu holat Farg‘ona vodiysi adirlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy transformasiyani yaqqol ko‘rsatadi.

Umuman olganda, vodiydagi qabr tipologiyasi dastlabki davrlarda hudud asosan ko‘chmanchi chorvadorlar tomonidan o‘zlashtirilganini, ular ushbu adirlardagi yaylovlardan unumli foydalanganini dalolatlaydi. Biroq vaqt o‘tishi bilan aholi nufuzining ortishi va dehqon jamoalari bilan o‘rnatilgan yaqin madaniy-iqtisodiy aloqalar ta’sirida, avvallari faqat chorvachilik uchun mo‘ljallangan adir hududlari asta-sekin ziroatchilik maqsadlarida ham o‘zlashtirila boshlangan. Bu jarayonlar mintaqada ko‘chmanchi va o‘troq madaniyatlarning o‘zaro integratsiyasi, hamda hududiy xo‘jalik tizimining ixtisoslashuvi chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanligidan dalolat beradi. So‘fon hududidagi arxeologik dalillar shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona vodiysining boshqa ko‘plab vohalari singari, bu maskan ham milod boshlaridan boshlab murakkab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar markaziga aylangan. Mazkur hududda o‘troq dehqon jamoalari va ko‘chmanchi chorvador xalqlarning yonma-yon yashashi, ular o‘rtasidagi madaniy hamda xo‘jalik integratsiyasining yaqqol tasdig‘idir. Bunday ijtimoiy muhit nafaqat hududning xo‘jalik salohiyatini oshirgan, balki turli madaniyatlarning o‘zaro ta’sirini kuchaytirib, mintaqaviy identitetni shakllantirgan.

Shu nuqtai nazardan, So‘fon yodgorliklari tarixiy rekonstruksiya jarayonida o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Ular vodiydagi adirlarning o‘zlashtirilishi jarayonini, chorvachilik va dehqonchilik madaniyatlarining bir-birini to‘ldirgan holda rivojlanganini ilmiy asoslab beradi. Bu tarixiy manzara O‘zbekiston hududidagi qadimiy davlatchilik va jamiyatlar rivojlanishida turli ijtimoiy guruhlarning o‘rni, ularning o‘zaro integratsiyasi va mintaqaviy taraqqiyotga qo‘shgan hissasi qanchalik chuqur ildizlarga ega ekanligini namoyon etadi.[27]

Qadimgi jamiyatlarning ma’naviy olami, ularning dunyoqarashi va koinot

[27]Матбобоев Б.Ҳ. Қадимги Фарғонанинг илк шаҳарлари (археологик материаллар асосида). – Тошкент: Фан, 2001. – 140 б.

haqidagi tasavvurlarini o‘rganishda dafn marosimlari eng asosiy manba hisoblanadi. Biroq qadimgi e’tiqodlar va diniy qarashlarni arxeologik materiallar asosida o‘rganish o‘ziga xos murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. Bu jarayondagi asosiy muammo — moddiy topilmalarni g‘oyaviy-ma’naviy tushunchalar bilan bog‘lashdagi sub’ektivlikdir. Ya’ni, qabrning tuzilishi, marhumning yo‘nalishi (orientatsiyasi) va uning yoniga qo‘yilgan buyumlar muayyan bir diniy tizimni anglatadi, ammo yozma manbalar bo‘lmagan davrlar uchun bu ramzlarni aniq talqin qilish doimo bahsli bo‘lib qolmoqda.

Dafn marosimlaridagi ramziy belgilar, xususan, olov izlari, kul yoki qabr atrofidagi maxsus qurilmalar qadimgi aholining axrotologik, ya’ni o‘limdan keyingi hayot haqidagi tushunchalaridan dalolat beradi. Masalan, qabrlarda uchraydigan oxirat taomlari, mehnat qurollari va bezaklar marhumning narigi dunyoda ham o‘z faoliyatini davom ettirishiga bo‘lgan ishonchni ko‘rsatadi. Bu yerda metodologik muammo shundaki, bir xil moddiy madaniyatga ega bo‘lgan jamoalar turlicha diniy qarashlarga e’tiqod qilgan bo‘lishi yoki aksincha, turli madaniyat vakillari o‘xshash dafn odatlarini bajargan bo‘lishi mumkin. Bu esa etnik va diniy identifikatsiyani belgilashda arxeologlardan ehtiyotkorlikni talab qiladi.[28]

O‘rta Osiyo mintaqasida turli e’tiqod vakillari istiqomat qilganligi sababli, har bir konfessiya uchun alohida dafn joylari tashkil etilgan. Masalan, Buxoro yahudiylari, shialar (eroniylar) va yevropaliklar uchun ajratilgan maxsus qabristonlar bunga misol bo‘la oladi. Bu esa hududda azaldan diniy bag‘rikenglik va har bir xalqning qadriyatlariga hurmat bilan yondashilganidan dalolat beradi.

Inson hayotining yakunlanishi og‘ir va hissiyotlarga boy davr bo‘lsa-da, islomiy e’tiqod bu jarayonga umid va ilohiy marhamat bilan yondashadi. Musulmonlar uchun o‘lim — bu mavjudlikning butunlay tugashi emas, balki foniy dunyo bilan xayrlashib,

[28] Ртвеладзе Э.В. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. – Ташкент: Университет, 2005. – 288 с.

boqiy hayotga o‘tish demakdir. Shu sababli, yaqinini yo‘qotganlar marhum uchun abadiy tinchlik va baxt so‘rab, Yaratganning mag‘firatidan umid qiladilar.

Jon taslim qilish arafasidagi amallar Kishi hayot bilan vidolashayotgan og‘ir daqiqalarda uning yonidagi yaqinlari bemorga ma’naviy dalda berishga mas’uldirlar. Bu vaqtda Allohning rahmati va kechirimliligi haqida eslatish, Qur’on oyatlarini tilovat qilish hamda bemorning jismoniy holatini yengillashtirish tavsiya etiladi. Musulmon kishining so‘nggi so‘zlari imon iqrori, ya’ni "Allohdan o‘zga iloh yo‘qligiga guvohlik beraman" kalimasi bo‘lishiga yordam berish ulkan savobli amal sanaladi. Vafotdan keyingi dastlabki vazifalar Inson vafot etganidan so‘ng, darhol uning haqqiga xayrli duolar qilinishi va dafn marosimiga tayyorgarlik ko‘rilishi lozim. Marhumning ko‘zlari yumilib, tanasi toza mato bilan yopiladi. Bu jarayonda yaqinlaridan sabr va matonat talab etiladi. Islom dinida o‘lim munosabati bilan dod-voy solish, kiyimlarni yirtish yoki taqdirdan nolib hayqirish kabi amallar qat’iyan man etiladi.

Qayg‘u va sabr tushunchasi Yaqin insonidan ayrilish tabiiy ravishda mahzunlik va ko‘z yoshga sabab bo‘ladi. Islom dini insoniy qayg‘uni inkor etmaydi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) o‘g‘illari vafot etganida: *"Ko‘zlar yoshga to‘lar, yurak mahzun bo‘lar, biroq biz faqat Rabbimiz rozi bo‘ladigan so‘zlarni aytamiz"*, deya marhamat qilganlar. Bu o‘git har bir mo‘minni musibat vaqtida sabrga tayanib, hayotni ato etgan va uni qaytarib olgan Zotning irodasiga taslim bo‘lishga chorlaydi. Musulmonlar o‘lgan odamni o‘limdan keyin imkon qadar tezroq ko‘mishga urinishadilar, bu esa marhumning tanasini buzish yoki boshqa tarzda bezovta qilish zaruratini bartaraf etadi.

Agar zarurat tug‘ilsa, otopsi (qabrni qayta ochilishi) qilinishi mumkin, ammo o‘liklarga nisbatan hurmat bilan bajarilishi kerak.

Poklanish va kafanlash jarayoni

Vafot etgan kishini dafn etishdan avval uni yuvish va poklash (g‘usl) amallari bajariladi. Ushbu jarayon odatda marhumning yaqinlari yoki jamoatning ishonchli vakillari tomonidan amalga oshiriladi. Marhum xuddi namozga tahorat olgandek, pok suv va xushbo‘y ashyolar bilan yuviladi. Shundan so‘ng, jasad "kafan" deb ataluvchi toza, oq matoga o‘raladi. Agar inson Vatan himoyasi yo‘lida shahid bo‘lgan bo‘lsa, u yuvilmasdan, qanday kiyimda bo‘lsa, shundayligicha dafn etilishi islomiy qoidadir. Zarurat tug‘ilganda tibbiy ekspertiza (autopsiya) o‘tkazilishiga ruxsat beriladi, biroq bunda marhumning jasadiga nisbatan hurmat saqlanishi shart.

Janoza namozi (Salotul janoza)

Kafanlangan marhum janoza namozi o‘qiladigan maxsus maydon yoki masjid hovlisiga olib kelinadi. Janoza namozi besh vaqt namozdan farqli o‘laroq, ruku’ va sajdasiz, tik turgan holda ado etiladi. Jamoat imom ortidan saf tortib, marhumning haqqiga duo qiladilar. Bu ibodat asosan sukut saqla gan holda, maxsus takbirlar va duolarni ichda aytish orqali bajariladi.

Dafn etish tartibi

Islomda marhumni u vafot etgan hududda dafn etish tavsiya etiladi. Jasadni uzoq masofaga tashish yoki xorijga yuborish (vaqtni kechiktirishi va jasadga kimyoviy ishlov berishni talab qilishi sababli) ma’qullanmaydi. Dafn marosimida jamoatning barcha vakillari ishtirok etishlari mumkin, biroq qabrga qo‘yish vazifasi erkaklar tomonidan bajariladi. Marhum qabrga o‘ng tomoni bilan, yuzi Qiblaga (Makka shahriga) qaratilgan holda qo‘yiladi. Islomiy kamtarlik tamoyiliga ko‘ra, qabr ustiga dabdabali haykallar o‘rnatish, gullar to‘shash yoki baland inshootlar qurish tavsiya etilmaydi. Buning o‘rniga marhumning haqqiga ixlos bilan duo qilish afzal sanaladi.

Motam va idda muddati

Vafot etgan kishining yaqinlari uchun uch kunlik motam muddati belgilangan. Bu davrda ortiqcha bezakli kiyimlardan va ziynatlardan tiyilish, marhumning oilasiga hamdardlik bildirish odobdandir. Ayollar uchun esa Qur’oni Karimning "Baqara"

surasi (2:234-oyat)ga binoan, turmush o‘rtog‘i vafot etgan taqdirda 4 oy-u 10 kunlik "idda" muddati belgilanadi. Bu vaqt ichida beva ayol boshqa turmush qurmasligi, o‘z bezaklariga e’tibor bermasligi va zaruratsiz uydan ko‘chmasligi lozim.

Abadiy ajr qoldiruvchi amallar

Inson bu dunyoni tark etgach, uning amallar kitobi yopiladi, biroq Payg‘ambarimiz (s.a.v.) ta’kidlaganlaridek, uchta amalning savobi to‘xtovsiz borib turadi:

1. Sadaqai joriya: Insonlar foydalanadigan ko‘prik, yo‘l yoki xayriya muassasalari.
2. Foydali ilm: O‘zidan keyingi avlodga qoldirilgan bilim va kashfiyotlar.
3. Solih farzand: Ota-onasining haqqiga doimiy duo qiluvchi farzand.

O‘lkamizda islom dinidan oldin amalda bo‘lgan otashparastlik va zardushtiylik diniga e’tiqod qiluvchi ajdodlarimizning o‘ziga xos dafn marosimlari kishi e’tiborini jalb etadi. Dafn marosimlari misolida o‘sha davr odamlarining umumiy yashash sharoiti, ularning ijtimoiy- iqtisodiy va diniy mafkurasi qanday bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Jamiyatdagi turli guruhlarning qarashlari va qayg‘u-alamlari ularning qabrlarida namoyon bo‘lgan diniy marosimlari orqali ifodalanadi.

Shuningdek, qadimgi kosmologik qarashlarni tiklashda qabrning geometrik shakli va marhumning osmon jismlariga nisbatan joylashtirilishi muhim ahamiyatga ega. Ko‘pgina qadimgi madaniyatlarda marhumning boshi quyosh chiqishiga yoki ma’lum bir muqaddas hisoblangan tomonga qaratib ko‘milishi bejiz emas. Ammo vaqt o‘tishi bilan diniy qarashlarning transformatsiyaga uchrashi, sinkretizm (turli dinlarning aralashib ketishi) va mahalliy an’analarning saqlanib qolishi tadqiqotchilar uchun xronologik va hududiy chegaralarni aniqlashda qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli, qadimgi e’tiqodlarni o‘rganishda faqatgina moddiy topilmalarga tayanib qolmay, etnografik parallellar va qiyosiy-tarixiy tahlil usullaridan keng foydalanish zaruriyati tug‘iladi.

Qadimgi e’tiqodlar va diniy tasavvurlarni dafn yodgorliklari asosida o‘rganish

tarix fanining eng murakkab va shu bilan birga qiziqarli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Arxeologik qazishmalar davomida aniqlangan moddiy manbalar, ya’ni marhumning yoniga qo‘yilgan buyumlar, qabrning yo‘nalishi va olov izlari shunchaki urf-odat emas, balki o‘sha davr insonlarining koinot va oxirat haqidagi yaxlit falsafiy qarashlari natijasidir. Masalan, bronza davriga oid Jarqo‘ton yodgorligidagi dafn majmualarini tahlil qilganimizda, marhumlar ko‘pincha "ona qorni" holatida, ya’ni g‘ujanak qilib ko‘milganini ko‘ramiz. Bu holat qadimgi insonlarning o‘limni yo‘qlik emas, balki tabiatning aylanish qonuniga ko‘ra "qayta tug‘ilish" deb qabul qilganidan dalolat beradi. Ya’ni, inson qanday holatda dunyoga kelgan bo‘lsa, keyingi dunyoga ham shu holatda qaytishi lozim degan tasavvur mavjud bo‘lgan.

Diniy qarashlarning shakllanishida zardushtiylikdan oldingi va ilk zardushtiylik davriga xos bo‘lgan unsurlarni o‘rganishda olovning o‘rni beqiyosdir. Ko‘plab mozor-qo‘rg‘onlarda va qabrlarda olov yoqilgani yoki kul qoldiqlari borligi kuzatiladi. Bu amaliyot zardushtiylikdagi "poklovchi olov" g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lib, marhumning ruhini yovuz kuchlardan himoya qilish va uni yorug‘lik dunyosiga kuzatish maqsadini ko‘zlagan. Shuningdek, qabrlarga idish-tovoqlar, qurol-yarog‘lar va zeb-ziynatlarning qo‘yilishi "axrotologik" tushunchalar, ya’ni o‘limdan keyingi hayotda ham kundalik ehtiyojlar davom etadi degan e’tiqodning bevosita isbotidir. Misol uchun, skif-saka davri mozor-qo‘rg‘onlarida jangchi bilan birga uning oti va qurollari ko‘milishi uning u dunyoda ham o‘z ijtimoiy mavqeini saqlab qolishiga bo‘lgan ishonchni ko‘rsatadi.[29]

Biroq bu sohada bir qator metodologik muammolar ham mavjud. Eng asosiy muammo — moddiy topilmalarni ma’naviy tushunchalar bilan bog‘lashdagi sub’ektivlikdir. Yozma manbalar bo‘lmagan davrlarda qabrdagi biror ramziy belgi

[29] Матбобоев Б.Ҳ. Фарғона водийсининг илк темир даври мозор-қўрғонлари. – Тошкент: Фан, 2013. – 156 б.

yoki hayvon suyagi aynan qaysi xudoga e’tiqod qilinganini yoki qanday afsungarlik amali bajarilganini aniq aytishga imkon bermaydi. Masalan, qabrlarda uchraydigan tumorlar yoki hayvon shaklidagi tasvirlar (totemizm unsurlari) har xil hududlarda turlicha talqin qilinishi mumkin. Shuningdek, vaqt o‘tishi bilan diniy qarashlarning sintezlashuvi, ya’ni mahalliy e’tiqodlarning yangi diniy oqimlar bilan aralashib ketishi tadqiqotchidan juda ehtiyotkorona tahlilni talab qiladi. Shunga qaramay, dafn yodgorliklari qadimgi insoniyatning mavhum dunyo haqidagi tasavvurlarini moddiy shaklda saqlab qolgan yagona va eng ishonchli manba bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston hududidagi qadimgi dafn yodgorliklari va marosimlari bu mintaqada yashagan xalqlarning murakkab diniy-mafkuraviy evolyutsiyasini o‘zida mujassam etgan o‘ziga xos tarixiy arxivdir. O‘rta Osiyo, xususan, qadimgi Xorazm, So‘g‘d va Baqtriya hududlarida dafn an’analari zardushtiylik, buddaviylik va mahalliy totemistik e’tiqodlar ta’sirida o‘ta rang-barang shakllangan. Zardushtiylik dinining qat’iy talablariga ko‘ra, tuproq, suv va olovni murda bilan bulg‘ash taqiqlangan, shu sababli ham mayit tanasi ochiq havoda (daxmalarda) tozalanganidan so‘ng, suyaklar maxsus ostodonlarga (suyakdonlarga) solib ko‘milgan. Bu ostodonlar ko‘pincha uycha, hayvon yoki inson shaklida yasalgan bo‘lib, ulardagi bezaklar va yozuvlar o‘sha davrning kosmologik tasavvurlari hamda marhumning ijtimoiy kelib chiqishi haqida qimmatli ma’lumot beradi. Masalan, Mullaqo‘rg‘on yoki Yerqo‘rg‘ondan topilgan ostodonlardagi tasvirlar qadimgi so‘g‘diylarning ilohiy kuchlar va oxirat olami haqidagi tushunchalarini vizual tarzda tiklash imkonini beradi.[30]

Shu bilan birga, janubiy hududlarda, ayniqsa, Termiz va uning atrofidagi yodgorliklarda (Fayoztepa, Qoratepa) buddaviylik dini bilan bog‘liq dafn unsurlari ko‘zga tashlanadi. Buddaviylik an’analarida murdani kuydirish (krematsiya) va

[30] Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент: Фан, 2002. – 154 с.

kulini maxsus stupalarga qo‘yish kabi holatlar kuzatilsa-da, O‘rta Osiyoda bu jarayon mahalliy an’analar bilan sintezlashib ketgan. Arxeologik qazishmalarda topilgan qabrlar va ulardagi inventarlar — kundalik idishlar, qurol-aslahalar va zeb-ziynatlar — nafaqat marosimning texnik jihatlarini, balki jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishini ham ochiq ko‘rsatadi. Boy bezatilgan maqbaralar va oddiy tuproq qabrlar orasidagi farq jamiyatdagi iyerarxiyaning aks-sadosidir.

Metodologik jihatdan qadimgi e’tiqodlarni o‘rganishda asosiy muammo — yozma manbalarning yetishmasligi va mavjud moddiy topilmalarni simvolik talqin qilishdagi noaniqliklardir. Islom dinining kirib kelishi bilan dafn marosimlari keskin o‘zgarib, mayitni bevosita tuproqqa qo‘yish va janoza amallari ustuvorlik qila boshlagan bo‘lsa-da, ba’zi hududlarda islomgacha bo‘lgan davr unsurlari (masalan, motam paytida olov yoqish yoki ma’lum ramziy buyumlarni saqlash) xalq urf-odatlari ko‘rinishida uzoq vaqt saqlanib qolgan. Bu esa arxeologik va etnografik materiallarni qiyosiy tahlil qilish orqali mintaqa tarixining ma’naviy qatlamlarini chuqur rekonstruksiya qilish zaruratini tug‘diradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qabrlarning me’moriy tuzilishi va ashyoviy tarkibi jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishini qanday aks ettiradi?
2. So‘fon va Jampik-qal’a misolida chorvador hamda dehqon jamoalarining o‘zaro integratsiyasi qanday namoyon bo‘ladi?
3. Qabrlardagi olov izlari, kul va ramziy belgilar qadimgi aholining diniy-mifologik dunyoqarashini qanday tavsiflaydi?
4. Arxeologik topilmalarni muayyan diniy tizimlar bilan bog‘lashda qanday metodologik muammolar mavjud?

7-MAVZU: YOZUV VA UNING IJTIMOIY TARAQQIYOTIDA TARIXIY REKONSTRUKSIYA USULLARI

REJA:

1. **Yozuvning sivilizatsiya poydevori sifatidagi evolyutsiyasi va ijtimoiy funksiyalari.**
2. **Qadimgi yozuv tizimlarini o‘rganishda tarixiy-lingvistik va arxeologik rekonstruksiya metodlari.**
3. **Yozuvning jamiyat ijtimoiy-siyosiy tuzilmasi va madaniy meros daxlsizligiga ta’siri.**

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida yozuvning kashf etilishi intellektual inqilobning eng yuqori nuqtasi hisoblanadi. Yozuv nafaqat tilning grafik ifodasi, balki jamiyatning ijtimoiy xotirasini saqlash, davlat boshqaruvini markazlashtirish va madaniy merosni avloddan-avlodga uzatishning universal mexanizmidir. Tarixiy rekonstruksiya usullari esa bizga o‘tmishning "so‘zsiz" qolgan qatlamlarini so‘zlatish, yo‘qolgan sivilizatsiyalar tafakkurini qayta tiklash imkonini beradi. Mazkur ma’ruza yozuvning evolyutsiyasi, uni o‘rganishning zamonaviy metodologiyasi va uning ijtimoiy taraqqiyotdagi fundamental rolini tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

Yozuvning kelib chiqishi insoniyatning xo‘jalik faoliyati va ijtimoiy munosabatlarining murakkablashishi bilan uzviy bog‘liq. Ibtidoiy jamiyatda axborot og‘zaki shaklda yoki oddiy vizual belgilar (qoyatosh rasmlari) orqali uzatilgan bo‘lsa, ilk davlat tuzilmalari shakllanishi bilan hisob-kitob, soliq va boshqaruv hujjatlarini yuritish ehtiyoji tug‘ildi. O‘rta Osiyo hududida, xususan, Zarautsoy kabi yodgorliklarda kuzatiladigan piktografik (tasviriy) belgilar yozuvning ilk "embrional" holati hisoblanadi. Bu davrda tasvir shunchaki san’at emas, balki muayyan voqelikni muhrlovchi ijtimoiy xabardir.

Yozuv tizimi piktografiyadan fonetizatsiyagacha (tovushli yozuv) bo‘lgan

uzoq yo‘lni bosib o‘tdi. Dastlabki piktogrammalar aniq predmetlarni ifodalagan bo‘lsa, keyinchalik ideogrammalar orqali mavhum tushunchalar ifodalana boshlandi. Shumer mixxatlari va Misr iyerogliflari ushbu o‘tish davrining eng yorqin namunalaridir. Finikiyaliklar tomonidan kashf etilgan ilk alifbo tizimi esa yozuvni murakkab ramzlar iyerarxiyasidan oddiy va tushunarli tovushlar tizimiga aylantirdi. Bu o‘zgarish savodxonlikni faqatgina kofinlar va amaldorlar imtiyozi bo‘lishidan chiqarib, jamiyatning kengroq qatlamlariga yoyilishiga xizmat qildi.[31]

Piktografik yozuvlarni rekonstruksiya qilish (qayta tiklash) jarayoni shunchaki qadimiy tasvirlarni ko‘zdan kechirish bilan cheklanmay, balki grafik kodlarni (tasviriy belgilar tizimini) tahlil qilish orqali o‘tish davri jamiyatlarining intellektual salohiyatini o‘rganishni anglatadi. Ushbu yo‘nalishda qo‘llaniladigan maxsus uslublar piktogrammalarni tizimli matn sifatida tadqiq etishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Semantik-statistik metod (ma’noviy-miqdoriy tahlil usuli) inson ko‘zi bilan bevosita ilg‘ab bo‘lmaydigan qonuniyatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Mazkur metod doirasida olimlar minglab piktogrammalarni raqamli ma’lumotlar bazasiga kiritib, ularning takrorlanish chastotasini (tezligini) hisoblab chiqadilar. Kontekstual tahlil (matniy bog‘liqlik tahlili) orqali, masalan, ma’lum bir hayvon shoxi yoki nuqtalar tizimi doimo ovchi tasviridan keyin kelishi aniqlansa, u muayyan harakatni yoki natijani ifodalovchi tushuncha sifatida talqin qilinadi. Statistik tahlillar piktogrammaning takrorlanish darajasi oshgani sayin uning abstraktlashuvi (mavhumlashishi) ham kuchayib borishini ko‘rsatadi. Bu holat yozuvning oddiy rasm-xabar bosqichidan umumlashtirilgan ramz darajasiga o‘tish jarayonini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Etnografik parallellar metodi (qiyosiy-etnografik tahlil usuli) esa rekonstruksiya jarayonida mintaqaning madaniy genetikasi, ya’ni saqlanib qolgan urf-odatlar va

[31] Фридрих И. История письма. – Москва: Наука, 1979. – 463 с.

folklor materiallaridan foydalanishni ko‘zda tutadi. Xususan, O‘rta Osiyo qoyatosh suratlaridagi turli geometrik shakllar, masalan, ayri yoki doira kabi piktogrammalar keyinchalik shakllangan turkiy tamg‘alar bilan qiyoslanganda, ularning muayyan urug‘ yoki qabilaga tegishli hududiy va mulkiy chegaralarni belgilashda xizmat qilgani ma’lum bo‘ladi. Mifologik interpretatsiya (mifologik sharhlash) usuli yordamida qoyatoshlarda uchraydigan shoxli odam kabi tasvirlarni qadimiy shomonlik an’analari yoki turkiy mifologiyadagi ruhlar haqidagi tasavvurlar bilan bog‘lash orqali ularning diniy va ijtimoiy mazmunini qayta tiklash imkoniyati yuzaga keladi

Tipologik solishtirish metodi O‘rta Osiyo piktografiyasini (tasviriy yozuvini) yopiq tizim sifatida emas, balki qo‘shni sivilizatsiyalar bilan umumiy arealda (hududda) shakllangan vizual muloqot tili sifatida tadqiq etish imkonini beradi. Xususan, Janubiy O‘zbekiston hududidagi Sopolli va Jarqo‘ton kabi yodgorliklardan topilgan belgilarning qadimgi Proto-Elam (Janubiy-g‘arbiy Eron) piktografiyasi bilan bir xil strukturaviy (tizimli) o‘xshashlikka egaligi diqqatga sazovordir. Mazkur holat bronza davrida O‘rta Osiyoning Mesopotamiya va Eron sivilizatsiyalari bilan yagona axborot makonida bo‘lganligini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Diffuziya (madaniy yoyilish) jarayonlarini tahlil qilish orqali yozuv madaniyatining tarqalish yo‘nalishlarini aniqlash, sivilizatsiyalararo iqtisodiy va siyosiy aloqalar xaritasini qayta tiklash mumkin.

Tarixiy rekonstruksiya fanida ushbu metodlar majmuasi jamiyatning ijtimoiy iyerarxiyasini (pog‘onali tuzilishini), ya’ni bitik qoldirish huquqiga ega bo‘lgan tabaqalarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mahsulot ayriboshlash va hisob-kitob tizimi kabi iqtisodiy munosabatlar hamda milliy ramzlarning necha ming yillik mafkuraviy ildizlarini o‘rganish imkonini beradi. Yozuv evolyutsiyasi (rivojlanish jarayoni) piktografiyadan fonetizatsiyagacha (tovushli yozuvgacha) bo‘lgan murakkab yo‘lni bosib o‘tgan. Dastlabki

piktogrammalar aniq predmetlarni ifodalagan bo‘lsa, keyinchalik ideogrammalar (tushuncha ifodalovchi belgilar) orqali mavhum mazmunlar berila boshlangan. Finikiyaliklar tomonidan kashf etilgan ilk alifbo tizimi esa yozuvni murakkab ramzlar tizimidan oddiy va tushunarli tovushlar shakliga keltirib, savodxonlikning keng jamiyat qatlamlariga yoyilishiga xizmat qilgan.



7.1-rasm.O‘rta Osiyoda yozuvning tarqalishi va zivilizatsiyalararo aloqalar.

O‘rta Osiyo qoyatosh rasmlari yoki petrogliflari shunchaki san’at namunasi emas, balki kodlashtirilgan axborotni saqlovchi vizual matnlardir. Surxondaryodagi Zarautsoy yodgorligida uchraydigan maskali odamlar tasviri totemistik (ajdod-hayvonga sig‘inish) qarashlar va ov marosimlari haqidagi protomatn (ilk matn) hisoblanadi. Sarmishsoy va Saymaliitosh kabi yodgorliklarda esa tasvirlarning murakkablashib borishi ijtimoiy taraqqiyot bilan hamohang kechgan. Bronza davriga kelib, qoyatoshlarda geometrik shakllar, solyar (quyoshga oid) ramzlar va arava tasvirlarining paydo bo‘lishi jamiyatda xo‘jalik yuritishning yangi bosqichga o‘tganligini hamda koinot haqidagi mavhum

tasavvurlarning shakllanganligini anglatadi.

Piktografiyaning rivojlanish bosqichlari ko‘chma ob’ektlarda, xususan, Janubiy O‘zbekiston (Sopolli, Jarqo‘ton) va Janubiy Turkmaniston (Oltintepa, Namozgoh) hududlaridan topilgan sopol buyumlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu arxeologik topilmalardagi ramziy belgilar iqtisodiy munosabatlarni rekonstruksiya qilishda (qayta tiklashda) muhim manba hisoblanadi. Eneolit va bronza davri sopollarida uchraydigan qush panjasi, xoch yoki ilon izi kabi sxematik (shartli) belgilar ko‘pincha mahsulot egasining yoki hunarmandning o‘ziga xos imzosi — mulkdorlik tamg‘asi vazifasini o‘tagan. Bu esa jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish va xususiy mulk tushunchasining yozma shaklda muhrlanishidan dalolat beradi. Shuningdek, sopol idishlardagi belgilarning tizimli takrorlanishi piktografiyadan ideografiyaga (belgi-tushuncha) o‘tishning O‘rta Osiyoga xos modelini ko‘rsatib, mahsulot miqdori yoki turi haqidagi axborotni ifodalagan.

Tarixiy rekonstruksiya metodikasi (uslubiyoti) nuqtayi nazaridan ushbu piktogrammalarni tahlil qilishda zamonaviy arxeologiyaning bir qator usullari qo‘llaniladi. Xronologik tahlil (vaqt bo‘yicha ketma-ketlik) va stratigrafiya (qatlamlarni o‘rganish) orqali tasvirlarning davri aniqlansa, qiyosiy-tipologik metod yordamida O‘rta Osiyo piktogrammalari qadimgi Shumer yoki Elam yozuv tizimlari bilan solishtiriladi. Kogerentlikni (aloqadorlikni) tiklash usuli esa alohida belgilarni yagona bir ma’muriy yoki diniy tizim doirasida birlashtirib o‘rganish imkonini beradi.

Yozuvning ijtimoiy vazifalari jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi o‘rin tutgan. Administrativ-huquqiy (ma’muriy-huquqiy) funksiya markazlashgan davlat apparatini shakllantirish va qonunlarni standartlashtirish (bir xillashtirish) quroli bo‘lib xizmat qilgan. Iqtisodiy funksiya doirasida savdo-sotiq, yer egaligi va soliq tizimi, xususan, qadimgi O‘rta Osiyo sug‘orish dehqonchiligi madaniyatida suv taqsimoti va hosil hisobini yuritish nazorat qilingan. Kultural-estetik (madaniy-

badiiy) funksiya esa adabiyot va falsafaning shakllanishiga zamin yaratgan. "Gilgamesh" kabi epik (doston janridagi) asarlarning yozma shaklga o‘tishi ularning badiiy strukturasi va falsafiy ko‘lamini yanada kengaytirib, insoniyat ma’naviy merosining saqlanib qolishini ta’minlagan.[32]

Qadimgi yozuv tizimlarini tadqiq etishda tarixiy-lingvistik (tilshunoslikka oid) va arxeologik rekonstruksiya (qayta tiklash) metodlari o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llaniladi. Yo‘qolib ketgan yoki o‘qish murakkab bo‘lgan bitiklarni o‘rganish jarayoni ilm-fanda deshifrovka (shifrini ochish) yoki tarixiy rekonstruksiya deb yuritiladi.

Paleografik va epigrafik tahlil usullari yozuvning tashqi shakli va u bitilgan material xususiyatlarini o‘rganadi. Paleografiya asosan papirus, teri yoki qog‘oz kabi yumshoq ashyolardagi yozuvlarni tadqiq etsa, epigrafika tosh, metall va ganch kabi qattiq jismdagi bitiklar bilan shug‘ullanadi. Rekonstruksiya jarayonida harflarning yozilish uslubi — duktyus (qo‘l harakati) tahlil qilinadi. Xususan, Surxondaryo vohasidagi Termiz, Dalvarzintepa va Xolchayon yodgorliklaridan topilgan baqtriya, xorazmiy va sug‘diy yozuvlari epigrafik tahlil yordamida o‘sha davrning siyosiy va diniy manzarasini aniqlash imkonini bergan.

Lingvistik komparativistika (qiyosiy-tarixiy metod) noma’lum tildagi yozuvni o‘qish uchun uni mavjud qarindosh tillar bilan solishtirishga asoslanadi. Masalan, Jan-Fransua Shampolyon Misr iyerogliflarini kopt tili bilan qiyoslash orqali o‘qishga muvaffaq bo‘lgan. Bu borada bilingva (ikki tilli) va trilingva (uch tilli) matnlar, xususan, Rozetta toshi yoki Behistun kitobalari kabi topilmalar rekonstruksiyaning asosiy kaliti bo‘lib xizmat qiladi. [33]

Kontekstual rekonstruksiya (sharoitga oid tahlil) metodida matn bevosita arxeologik muhit bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Agar bitik ibodatxonadan topilsa — diniy, saroydan topilsa — diplomatik, bozordan topilsa — iqtisodiy mazmunga

[32] Before Writing: From Counting to Cuneiform. – Austin: University of Texas Press, 1992. – 269 p.
[33] The Story of Decipherment: From Egyptian Hieroglyphic to Linear B. – London: Thames & Hudson, 1999. – 232 p.

ega deb faraz qilinadi. Afrosiyob devoriy rasmlaridagi sug‘diy bitiklar elchilar tashrifini tavsiflagani sababli, aynan ushbu metod orqali Markaziy Osiyo diplomatiyasi tarixi qayta tiklangan.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan, multispektral suratga olish, rentgen-skanerlash va sun’iy intellekt (AI) algoritmlari o‘chib ketgan yoki chirigan qo‘lyozmalarni tiklashda yangi davrni ochib berdi. Bu usul ayniqsa palimpsestlar (ustidan boshqa matn yozilgan qadimiy pergamentlar) tahlilida yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda.

Yozuv tizimi nafaqat axborot almashish vositasi, balki davlat mustaqilligi va milliy o‘zlikni muhofaza qiluvchi strategik resurs sanaladi. Mazkur yo‘nalishda yozuvning ijtimoiy-siyosiy tuzilmaga ta’siri va madaniy meros daxlsizligini ta’minlashdagi o‘rni fundamental ahamiyatga ega.

Xususan, Orxun-Enasoy bitiklari milliy identifikatsiyani (o‘zlikni anglashni) qayta tiklashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. VIII asrga mansub ushbu turkiy bitiktoshlar uzoq davr mobaynida "runik yozuvlar" sifatida talqin qilinib, ularning mazmuni noma’lum qolishi turkiy xalqlarning qadimiy sivilizatsiya yaratishdagi rolini inkor etishga zamin yaratgan edi. Biroq 1893-yilda V. Tomsen va V. Radlov tomonidan ushbu yozuvlarning deshifrovka qilinishi (shifrining ochilishi) jahon tarixshunosligida tub burilish yasadi. Rekonstruksiya jarayonida ilk o‘qilgan so‘zlarning “Tengri” va “Turk" ekanligi ramziy ma’no kasb etib, turkiy xalqlarda murakkab davlat boshqaruvi, iyerarxik unvonlar tizimi (xoqon, shod, yabg‘u) va yuksak harbiy mahorat mavjudligini tasdiqladi. Shunga ko‘ra, qadimiy yozuv matnlarini tiklash xalqning siyosiy sub’ektligini va tarixiy qiyofasini qayta barpo etish bilan tengdir.[34]

Shu bilan birga, yozuv va tarixiy xotira o‘rtasidagi uzviylik jamiyatda intellektual davomiylikni kafolatlaydi. Yozuv muayyan davrdagi ijtimoiy vaqtni

[34] Эски туркий ёзув. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 1994.

muhrlab, uni kelajak avlodlarga yetkazish xususiyatiga ega. Masalan, Abu Rayhon Beruniy yoki Ibn Sino kabi mutafakkirlar merosining tahrir va rekonstruksiya qilinishi natijasida nafaqat matn, balki XI asr Markaziy Osiyo intellektual muhiti qayta jonlanadi. Bu jarayon hozirgi zamon ilm-fanini tarixiy poydevor bilan bog‘lovchi uzviylikni (kontinuumni) hosil qiladi. O‘zbekiston arxiv fondlarida saqlanayotgan minglab hujjatlar jamiyatning "genetik xotirasi" hisoblanib, XVIII–XIX asrlarga oid iqtisodiy va huquqiy manbalarni tahlil qilish bugungi islohotlar uchun zaruriy tarixiy model va tahliliy baza vazifasini o‘taydi.

Zamonaviy antropologiya va arxeologiya fanlari kesishmasida shakllangan tarixiy rekonstruksiya sohasi bugungi kunda an’anaviy metodologik chegaralardan chiqib, yuqori texnologik va raqamli transformatsiya bosqichiga qadam qo‘ydi. Raqamli paleografiya fanining shakllanishi qog‘oz, teri, suyak yoki tosh ustidagi bitiklarni nafaqat vizual tahlil qilish, balki ularning fizik-kimyoviy xususiyatlarini molekulyar darajada o‘rganish imkonini bermoqda. Xususan, multispektral skanerlash texnologiyasi yorug‘likning turli to‘lqin uzunliklaridan foydalangan holda, inson ko‘zi ilg‘ay olmaydigan spektrlarda tasvir hosil qiladi. Bu usul, ayniqsa, palimpsestlarni — resurs taqchilligi tufayli qadimgi matni o‘chirilib, ustidan yangi yozuv bitilgan pergamentlarni o‘qishda inqilobiy ahamiyat kasb etdi. Arximed qo‘lyozmalari yoki qadimgi sug‘diy bitiklar misolida ko‘rish mumkinki, ushbu texnologiya o‘chib ketgan qatlamlarni optik jihatdan ajratib olib, yo‘qotilgan ilmiy merosni qayta kashf etishga xizmat qilmoqda.

Sun’iy intellekt va mashinali o‘rganish (Machine Learning) algoritmlari esa matnlarni deshifrovka qilish jarayoniga kognitiv tahlil elementlarini olib kirdi. Google va DeepMind kabi texnologik gigantlar tomonidan ishlab chiqilgan "Ithaca" kabi neyron tarmoqlar nafaqat yunon epigrafikasini, balki Markaziy Osiyo sivilizatsiyasiga xos bo‘lgan murakkab yozuv tizimlarini ham tadqiq etmoqda. Ushbu algoritmlar matndagi tushib qolgan yoki fizik shikastlangan qismlarni

lingvistik kontekst, tarixiy uslub va sintaktik qonuniyatlar asosida 70-80 foizlik aniqlikda tiklashga qodir. Bu jarayon, ayniqsa, o‘qilishi va transliteratsiyasi o‘ta murakkab bo‘lgan, ligaturalarga boy nasta’liq, shikasta yoki devoniy xatlaridagi arxiv hujjatlarini raqamli formatga o‘tkazishda beqiyos yordam bermoqda.

Raqamli rekonstruksiyaning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri — tarixiy "katta ma’lumotlar" (Big Data) bazasini yaratishdir. Kelajakda barcha jahon arxiv fondlarining, jumladan, O‘zbekiston Milliy arxivlari va qo‘lyozma markazlaridagi nodir manbalarning raqamlashtirilishi insoniyat sivilizatsiyasi tarixidagi "oq dog‘larni" bartaraf etishga xizmat qiladi. Raqamli nusxa nafaqat asl nusxani fizik emirilishdan saqlaydi, balki dunyoning istalgan nuqtasidagi tadqiqotchiga manba bilan masofadan turib ishlash imkonini beradi. Natijada, sivilizatsiyalar o‘rtasidagi madaniy va siyosiy muloqotlar xaritasi eng mayda detallarigacha aniqlashtirilib, tarixiy haqiqatning obyektiv va maksimal darajada tiklanishiga erishiladi. Bu esa o‘tmish tajribasini bugungi ijtimoiy-madaniy muammolarni hal etishda tahliliy baza sifatida qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Yozuvning paydo bo'lishi va evolyutsiyasi insoniyat sivilizatsiyasi hamda ijtimoiy xotira shakllanishida qanday rol o'ynagan?
2. Qadimgi piktografik va fonetik yozuv tizimlarini o'rganishda qo'llaniladigan asosiy tarixiy-arxeologik rekonstruksiya metodlari nimalardan iborat?
3. O'rta Osiyo qoyatosh rasmlari va sopol idishlaridagi belgilar ijtimoiy tabaqalanish hamda mulkiy munosabatlarni qanday ochib beradi?
4. Zamonaviy raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt algoritmlari yo'qolgan matnlarni tiklash hamda madaniy meros daxlsizligini ta'minlashda qanday imkoniyatlar yaratmoqda?

8-MAVZU: TARIXIY TOPOGRAFIYA-SHAHARSOZLIK MADANIYATINI O‘RGANISH MANBASI SIFATIDA

REJA:

1. Turar-joylar — ijtimoiy-iqtisodiy va texnik an’analarni rekonstruksiya qilishning fundamental asosi.
2. Ilk makonlar evolyutsiyasi: g‘or turar-joylaridan jamoaviy ko‘pxonali uylargacha.
3. Paxsa-xom g‘isht me’morchiligining shakllanishi va katta patriarxat oilalarning ijtimoiy mohiyati.
4. Urbanizatsiya jarayonlari: manzilgohlarning murakkablashuvi va ilk shaharlarning paydo bo‘lish omillari.

Turar-joylar arxeologiyasi nafaqat moddiy madaniyat namunasi, balki o‘tmish jamiyatlarining iqtisodiy va texnologik salohiyatini tiklashda birlamchi manba bo‘lib xizmat qiladi. Turar-joy ob’ektlarini ilmiy rekonstruksiya qilish muayyan davr sotsiumini tushunishning va uning ijtimoiy modelini qayta barpo etishning fundamental shartidir. Rekonstruksiya jarayonida tarixiy ob’ektning konstruktiv elementlarini — uning tarkibiy qismlari va barpo etilish texnikasini aniqlash talab etiladi. O‘rta Osiyoning ekologik-geografik sharoitidan kelib chiqib, arxeologik tadqiqotlar mintaqa me’morchiligining asosi sifatida loy moddiyasini (guvala, xom g‘isht, paxsa) ko‘rsatadi. Ushbu ashyolarning sifat darajasi va qo‘llanish uslubi o‘sha davrning muhandislik bilimlarini tahlil qilish imkonini beradi.[35]

Turar-joy majmualari tarkibidagi xo‘jalik o‘ralari va saqlanib qolgan konstruksiyalar ikki tomonlama ilmiy qiymatga ega. Birinchidan, ular xronologik ko‘rsatkich vazifasini o‘tab, ob’ektning istiqomat qilinish muddatini va qurilish qatlamlarining ketma-ketligini aniqlashga yordam beradi. Ikkinchidan, topilgan oziq-

[35] Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент: Фан, 2002.

ovqat qoldiqlari va ashyoviy dalillar aholining xo‘jalik ixtisoslashuvi hamda kundalik turmush tarzini qayta tiklash imkonini beradi.

Qadimgi jamiyatlarning ijtimoiy tabaqalanishini o‘rganishda uy-joylar va manzilgohlar eng xolis dalil hisoblanadi. Turar-joy insonning yashash tarzini tabiiy muhitdan ajratib, uni ijtimoiy tartibga soladi. Binolarning hajmi, xonalar soni va ichki interyerdan topilgan xo‘jalik inventarlari jamoaning demografik tarkibi va sonini, oilaning ichki tuzilishini hamda binolarning ijtimoiy-funksional vazifalarini (shaxsiy turar-joy, jamoat binosi yoki ma’muriy markaz) aniqlashda xizmat qiladi.



8.1-rasm. Qadimgi aholi turarjoylarining ko‘rinishi. Qayta tiklangan ko‘rinishi

Qadimgi manzilgohlarda istiqomat qilgan aholi sonini va ularning ijtimoiy tarkibini aniqlash tarixiy rekonstruksiya fani oldidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Turar-joylardagi demografik holatni tahlil qilishda hududning paleoiqlimiy sharoiti hamda madaniy-xo‘jalik tipi fundamental ko‘rsatkich sifatida e’tiborga olinishi shart. O‘rta Osiyo misolida uy-joylar evolyutsiyasi jamiyatning ijtimoiy strukturasi murakkablashib borganini yaqqol ko‘rsatadi.

Ilk dehqonchilik davri: Kichik oilalar modeli (Miloddan avvalgi VI–V ming yilliklar) O‘rta Osiyoning janubiy hududlarida ilk dehqonchilik madaniyati shakllangan davrda turar-joylar asosan bir xonali, markazida muqaddas o‘chog‘i

bo‘lgan ixcham uylardan iborat bo‘lgan. Ushbu me’moriy struktura mazkur davrda jamiyatning asosiy bo‘g‘ini kichik oila, ya'ni er-xotin va farzandlardan iborat guruh ekanligini hamda ijtimoiy iyerarxiya hali murakkablashmaganini tasdiqlaydi.

Katta patriarxat oilalar va jamoaviy xo‘jalik (Miloddan avvalgi IV ming yillik oxiri) Eneolit davrining yakuniga kelib, me’moriy rejalashtirishda tub o‘zgarishlar kuzatiladi. Endilikda 5–7 xonadan tashkil topgan ko‘pxonali majmualar paydo bo‘ladi. Bunday uy-joylarning o‘ziga xosligi shundaki, ularda hovli, omborxona va oshxona kabi funksional qismlar umumiy foydalanishda bo‘lgan. Tarixiy rekonstruksiya ma’lumotlariga ko‘ra, bu bir necha kichik oilalarning birlashmasidan iborat, birgalikda xo‘jalik yurituvchi katta patriarxat oilalarga xos hayot tarzidir.

Urbanizatsiya va mulkiy tabaqalanish (Miloddan avvalgi III ming yillik oxiri) Ilk shaharlar va murakkab davlat tuzilmalari shakllanishi bilan turar-joylar o‘zining hashamati, hajmi va qurilish materiallari bilan bir-biridan keskin farq qila boshladi. Mazkur davrda elita qatlamining monumental binolari murakkab rejali va keng maydonni egallagan bo‘lsa, oddiy aholi turar-joylari funksional jihatdan sodda va kichik hajmdagi xonalardan iborat bo‘lib qoldi. Ushbu tabaqalanish jamiyatda nafaqat ijtimoiy, balki chuqur mulkiy tengsizlik qaror topganidan dalolat beruvchi eng xolis arxeologik dalildir. Qizig‘i shundaki, me’morchilikda kuzatilgan ushbu iyerarxiya o‘sha davr qabrlaridagi dafn ashyolarining miqdori va sifati bilan ham to‘liq tasdiqlanadi.

Tarixiy rekonstruksiya nuqtai nazaridan manzilgoh tushunchasi shunchaki turar-joylar yig‘indisini emas, balki murakkab ijtimoiy-funktsional tizimni anglatadi. Mudofaa inshootlari, diniy ehtiyojlar uchun xizmat qiluvchi ibodatxonalar, jamoaviy to‘planish maydonlari hamda ishlab chiqarish markazlarining mavjudligi manzilgohning fundamental elementlari hisoblanadi. Aynan manzilgohlar ma’lum bir davrdagi jamiyatning ichki strukturasini va

ijtimoiy tashkil etilish darajasini moddiy jihatdan aks ettiradi.

Ilmiy ta’rifga ko‘ra, manzilgoh — bu jamoa a’zolari muayyan vaqt oralig‘ida istiqomat qiladigan va o‘zlarining ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini amalga oshiradigan hududdir. Yodgorlikni manzilgoh sifatida tasniflashda jamoaning ushbu hududda qancha vaqt davomida yashaganligi asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy arxeologiya va tarixshunoslikda jamoa a’zolari kamida bir mavsum davomida muqim yashagan yodgorliklar manzilgoh sifatida qabul qilinadi.

Aholining muqimlik darajasi va yashash muddati arxeologik qazishmalar davomida aniqlanadigan madaniy qatlamning holatiga qarab rekonstruksiya qilinadi. Madaniy qatlamning shakllanishi va qalinligi o‘sha davrning madaniy-xo‘jalik tipiga hamda qurilish materiallarining xususiyatiga bevosita bog‘liqdir. Xususan, O‘rta Osiyo sharoitida uy-joylar asosan loy va tuproqdan barpo etilganligi sababli, bir mavsumiy qurilish gorizontining o‘rtacha qalinligi taxminan 50–60 santimetrni tashkil etishi kuzatiladi. Bunday manzilgohlarning o‘zaro tizimli birlashishi natijasida yaxlit vohalar va mintaqaviy madaniyat areallari shakllangan.

Tarixiy rekonstruksiya va shaharsozlik madaniyati evolyutsiyasi: paleolitdan ilk shaharlargacha

Paleolit davri manzilgohlarini funksional tavsifiga ko‘ra uchta asosiy turga ajratish mumkin. Birinchisi — tayanch (asosiy) turar-joylar bo‘lib, ularda qalin madaniy qatlamlar, o‘choq qoldiqlari va inson faoliyatining jadalligidan dalolat beruvchi ko‘plab artefaktlar mavjud bo‘ladi. Bunday makonlarning klassik namunasi sifatida mashhur Teshik-tosh g‘orini keltirish mumkin. Ikkinchi tur — vaqtinchalik turar-joylar (mahsulot taqsimlash punktlari) bo‘lib, ularda odatda o‘choqlar uchramaydi. Tayanch turar-joylarda 1 kub metr madaniy qatlamda 500 tagacha suyak qoldiqlari topilsa, vaqtinchalik makonlarda bu ko‘rsatkich keskin kamayib, 100 tadan oshmaydi. Uchinchisi — oraliq turar-joylar bo‘lib, ular qisqa muddatli

xo‘jalik ehtiyojlari uchun xizmat qilgan.

Ilk dehqonchilik manzilgohlarida ijtimoiy va ma’naviy hayotning markazi sifatida muqaddas o‘choq joylashgan maxsus xonalar shakllangan. Ushbu xonalar o‘zining hajmi va bezatilishi bilan oddiy turar-joylardan ajralib turgan, ko‘p hollarda ularning devorlari bo‘yoqlar bilan naqshlangan. Aholi zichligining ortishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashishi natijasida manzilgohlar mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Ushbu ilk istehkomlar o‘zining me’moriy tuzilishi bilan keyingi davlatlar davri mudofaa inshootlaridan farq qilsa-da, jamoaning hududiy yaxlitligini ta’minlashda muhim rol o‘ynagan.

Yirik aholi markazlarining shakllanishi manzilgohlar strukturasida sifat o‘zgarishlariga — ilk shaharlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Vohadagi ayrim manzilgohlarning hunarmandchilik, savdo va diniy markaz sifatida ixtisoslashuvi shaharsozlik madaniyatining poydevori bo‘ldi. Ilk shaharlardagi diniy majmualar ibtidoiy davrning muqaddas o‘choqlaridan o‘zining monumental hashamati bilan ajralib turadi. Aynan mana shu hashamatli ibodatxonalar qurilishi shaharlar uchun xos bo‘lgan monumental me’morchilik an’analariga asos solgan va urbanizatsiyaning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida e’tirof etilgan.

Tarixiy rekonstruksiya nuqtai nazaridan manzilgohlarni tadqiq etish jamiyatning nafaqat ijtimoiy, balki siyosiy arxitekturasini ham tiklashda keng imkoniyatlar ochib beradi. Vohalar miqyosida yirik va kichik manzilgohlarning iyerarxik tarzda birga uchrashi, bizningcha, shahar-davlatlarga xos bo‘lgan klassik tizimning shakllanganidan dalolat beradi.

Manzilgohlarning topografik joylashuvi ko‘p jihatdan iqtisodiy va tabiiy omillarga bog‘liq. Xususan, muhim savdo yo‘llari bo‘yida joylashgan aholi punktlari o‘sha davr transport imkoniyatlaridan kelib chiqib, bir-biridan muayyan masofada qad ko‘targan. O‘rta Osiyoning o‘ziga xos geografiyasida manzilgohlarning suv tarmoqlari bo‘yida, voha-voha bo‘lib joylashishi bronza davridan boshlab turg‘un

xarakterga ega bo‘lgan.

Shaharlar va davlatlarning shakllanishi uzviy bog‘liq jarayon bo‘lib, insoniyatning sivilizatsiya ostonasiga qadam qo‘yganligining fundamental ko‘rsatkichidir. Agar davlatning qaror topishi uchun markazlashgan iqtisodiy va diniy tugunlar zarur bo‘lgan bo‘lsa, o‘z navbatida, davlat instituti shaharlarning barpo etilishi va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratgan. O‘zbekiston hududida davlatchilikning ilk ko‘rinishlari aynan shahar-davlatlar shaklida namoyon bo‘lganligi ushbu mavzuga alohida ilmiy e’tibor qaratishni taqozo etadi. Dunyoda ilk shaharlar miloddan avvalgi IV–III ming yilliklarda Shumer, Elam va Hindiston hududlarida yuzaga kelgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda Xitoy, Mezoamerika va Shimoliy Yevropada urbanizatsiya jarayonlari kuzatiladi. Markaziy Osiyoda ham mustaqillik yillarida o‘tkazilgan so‘nggi tadqiqotlar urbanizatsiya masalasiga yangicha nuqtai nazarlarni shakllantirdi. Olimlar o‘rtasidagi "inqilobiy" va "evolyutsion" paydo bo‘lish nazariyalari shaharlarni yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlarni chuqurroq o‘rganishni talab etadi.

Urbanizatsiyaning birlamchi omili tabiiy muhitdir. Unumdor tuproq, yetarli suv resurslari va qulay iqlim ortiqcha mehnat sarflamasdan yuqori hosildorlikka erishish imkonini bergan. Bu esa jamiyatda qo‘shimcha mahsulot to‘planishiga va natijada hashamatli arxitektura — saroylar, ibodatxonalar hamda ijtimoiy institutlarning moddiy aksini topishiga zamin yaratgan. Nil, Furot va Dajla daryolari havzasidagi kabi, O‘rta Osiyo daryolari bo‘yida ham davlat xo‘jaligi va u bilan bog‘liq jarayonlar ilk shaharlarning qurilishiga turtki bergan. Qadimgi Misr va Mesopotamiya sivilizatsiyalarida ilk shaharlarning miloddan avvalgi IV–III ming yilliklarda shakllanishi, ko‘p jihatdan mazkur mintaqalardagi barqaror va qulay tabiiy-iqlimiy sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Aksincha, Markaziy Osiyo hududida birinchi shahar markazlarining paydo bo‘lishi miloddan avvalgi III–II ming yilliklarga to‘g‘ri keladi.

Mintaqamizda urbanizatsiya jarayonlarining Misr va Mesopotamiyaga nisbatan birmuncha kechroq kechishi Markaziy Osiyoning murakkab tabiiy-geografik landshafti va iqlimiy xususiyatlari bilan izohlanadi. Bu hududlarda dehqonchilik madaniyati murakkab irrigatsiya tizimlarini barpo etishni, katta miqdordagi jismoniy mehnat va iqtisodiy resurslarni talab qilgan. Natijada, jamiyatda ortiqcha mahsulot to‘planishi va ishlab chiqarish hajmining o‘sishi nisbatan sekinroq kechgan, bu esa o‘z navbatida ilk shaharsozlik markazlarining shakllanish sur’atlariga ta’sir ko‘rsatgan. Shunga qaramay, Markaziy Osiyo shaharsozligi o‘zining texnik va me’moriy yechimlari bilan jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismiga aylangan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Turar-joylar va qurilish texnologiyalari o‘tmish jamiyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy modelini qayta tiklashda qanday fundamental rol o‘ynaydi?

2. Arxeologik ob’ektlarning konstruktiv elementlari va qurilish ashyolari (paxsa, xom g‘isht) muayyan davrning muhandislik salohiyatini qanday ochib beradi?

3. Turar-joy majmualari tarkibidagi xo‘jalik o‘ralari va qatlamlar ketma-ketligi manzilgohlarning xronologiyasi hamda xo‘jalik ixtisoslashuvini aniqlashda qanday ahamiyatga ega?

4. Binolarning hajmi, xonalar soni va ichki interyeri qadimgi jamoalarning demografik tarkibi hamda ijtimoiy tabaqalanish darajasini qanday tavsiflaydi?

9-MAVZU: ILK SHAHARLAR VA DAVLATLARNING ARXEOLOGIK BELGILARI

REJA:

1. Ilk shaharlar va davlatlar tarixiga tizimli yondashuv: urbanizatsiya jarayonlarini ashyoviy manbalar asosida tahlil qilish

2. Davlatchilik tarixini o‘rganishda arxeologik tadqiqotlarning o‘rni va manbashunoslik ahamiyati

3. Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida davlatchilik genezisi: arxeologik interpretatsiya, konseptual muammolar va zamonaviy metodologik yondashuvlar

1. V.M. Masson tomonidan Old Osiyo, Yaqin Sharq va Kolumbgacha bo‘lgan Amerika dehqonchilik jamoalari materiallari asosida ilk sinfiy jamiyatning arxeologik belgilari sxemasi ishlab chiqilgan. Mazkur tizimning markazida ekspluatatorlik munosabatlarining shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha moddiy ko‘rsatkichlar turadi. Ushbu sxemaga ko‘ra, davlatchilik va sinfiy tabaqalanishning asosiy indikatorlari quyidagilardan iborat:

Aholi sonining jadal o‘sishi va shunga monand ravishda yodgorliklar hududining kengayishi jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, hunarmandchilikning alohida soha sifatida ajralib chiqishi, uning markazlashuvi va ishlab chiqarishning tizimli tashkil etilishi masalalari hisobga olingan.

Iqtisodiy asos sifatida dehqonchilikning murakkab sug‘orish tarmoqlari (kanallar) hisobiga agrotexnik takomillashuvi hamda ko‘chmanchi chorvachilikning rivojlanish darajasi olingan. Aholining ijtimoiy tabaqalanish jarayoni esa boy va kambag‘al qatlamlarga oid uylar hamda qabrlar, xususan, harbiy sarkardalarga tegishli ashyolarning xilma-xilligi orqali asoslangan. Bundan tashqari, mudofaa tizimiga ega bo‘lgan ilk shaharlarning paydo bo‘lishi, yozuvning vujudga kelishi, ichki va tashqi savdo yo‘llarining rivojlanishi hamda ayirboshlash jarayonlarining jadallashuvi ilk

davlat va sinfiy jamiyat shakllanishining muhim mezonlari sifatida ko‘rsatilgan.[36] V.M. Masson tomonidan ishlab chiqilgan ushbu sxema bronza davrining rivojlangan dehqonchilik madaniyatiga ega Qadimgi Sharq jamiyatlarida sinfiy munosabatlar shakllanishini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, arxeolog olim Sh. Shaydullayevning qayd etishicha, mazkur modelni O‘zbekistonning bronza va ilk temir davri yodgorliklariga to‘liq tatbiq etib bo‘lmaydi.

Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonning shimoliy hududlarida ko‘chmanchi chorvador madaniyatlar keng tarqalgan bo‘lsa, janubiy viloyatlarda ilk shahar madaniyati shakllangan. Masalan, Tozabog‘yob yoki Burgali kabi madaniyatlarda yodgorliklar iyerarxiyasi va ixtisoslashgan hunarmandchilik tizimi hali to‘liq shakllanmagan edi. Shuningdek, Baqtriya, So‘g‘diyona va Xorazmning ilk temir davriga oid qabrlari hozirgi kunga qadar arxeologiyada deyarli noma’lumligicha qolmoqda.

Shu sababli, Sh. Shaydullayev V.M. Masson sxemasini O‘zbekiston hududidagi ilk sinfiy munosabatlarni o‘rganish uchun moslashtirish va takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Buning uchun arxeologik belgilarni birinchi va ikkinchi darajali mezonlarga ajratish lozim deb hisoblaydi.

Uning fikricha, qadimgi jamiyatlardagi ijtimoiy-moddiy tengsizlikni ko‘rsatuvchi eng asosiy belgi — bu kishilar yashagan uylarning oddiyligi yoki mahobatli ko‘rinishidir. V.M. Masson Janubiy Turkmanistondagi Oltintepa yodgorligi misolida turar-joylarning uch xil ko‘rinishini ajratib ko‘rsatgan bo‘lib, shunga muvofiq ravishda shahar aholisini ham uchta asosiy ijtimoiy qatlamga ajratadi[37]. Ikkinchi asosiy arxeologik belgi sifatida qabrlar va dafn marosimlari e’tirof etiladi. Qabrlardan topilgan ashyolarning miqdori, xilma-xilligi va sifat darajasiga qarab, marhumlarning hayotlik davridagi ijtimoiy mavqeyi hamda tegishli guruhlari aniqlanadi.

[36] Массон В.М. Экономический и социальный строй древних обществ. - Л., Наука, 1976. - С. 184.
[37] Массон В.М. Алтын-Депе // Труды ЮТАКЭ. Том XVIII. Л.: 1981. - С. 100-104.

Ushbu yo‘nalishda V.A. Alekshin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Olim Qadimgi Sharq (Shumer, Anatoliya) va Janubiy Turkmaniston hududlaridagi eneolit hamda bronza davri aholisining ijtimoiy tabaqalanish jarayonlarini qabrlardagi moddiy madaniyat namunalari asosida chuqur tahlil qilgan. Uning tadqiqotlari natijasida qabrlar strukturasi va ulardagi inventarlar jamiyatning ichki ijtimoiy iyerarxiyasini ko‘rsatuvchi eng ishonchli manbalardan biri ekanligi isbotlangan.[38] Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar qatorida Sopollitepa madaniyati qabrlari misolida Shimoliy Baqtriya o‘troq dehqonchilik jamiyatida ilk sinfiy munosabatlarning shakllanishini o‘rgangan I.V. Ionesov[39], Qadimgi Xitoyning Chjou davri ijtimoiy tabaqalanishini qiyosiy-tarixiy tahlil qilgan M.V. Kryukov tadqiqotlarini ko‘rsatish mumkin[40].

Uchinchi asosiy arxeologik belgi — rivojlangan hunarmandchilik bo‘lib, bunda ishlab chiqarishning markazlashuvi va ixtisoslashuvi jarayonlari kuzatilishi shart. Garchi bu yo‘nalishda alohida yaxlit ilmiy ishlar kam bo‘lsa-da, hunarmandchilik mahsulotlarining aynan bozor (ayirboshlash) uchun tayyorlanganligini isbotlovchi dalillar mavjud. Masalan, Oklaxoma shtatidan topilgan ikkita noyob majmuani eslatib o‘tish joiz: ularning birida ikki mingta chaqmoq toshdan yasalgan paykon, ikkinchisida esa mingta paykon va pichoqlar jamlangan.

Shuningdek, Sopolli madaniyatiga oid xumdonlarning yodgorlik hududidan tashqariga chiqarilishi, kulolchilik va boshqa hunarmandchilik buyumlari shakllarining aynan o‘xshashligi hamda sifat darajasining bir xilligi ushbu sohada faqat ixtisoslashgan ustalar guruhi bozor uchun mahsulot ishlab chiqarganidan dalolat beradi.

[38] Алекшин В.А. Социальная структура и погребальный обряд древнеземледельческих обществ. - Л.: Наука, 1986. – С. 89

[39] Ионесов В.И. Становление и развитие раннеклассовых отношений в оседлоземледельческом обществе Северной Бактрии. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Самарканд, 1990. – С.19.

[40] Крюков М.В. Социальная дифференциация в древнем Китае: Опыт сравнительно-исторической характеристики // Разложение родового строя и формирование классового общества. - М.: Наука, 1968. - С. 199-293.

To‘rtinchi muhim arxeologik belgi — bu ilk shaharlarning shakllanishidir. O‘rta Osiyo hududida ilk urbanizatsiya jarayonlari borasida T.Sh. Shirinov va B.J. Eshovning izlanishlari diqqatga sazovordir. Ushbu tadqiqotchilar arxeologiya fanida mavjud barcha nazariyalarni tahlil qilgan holda, G. Chayld, V.I. Gulyayev, V.M. Masson va V.I. Sarianidilarning ilk shaharlar to‘g‘risidagi konsepsiyalarini qayta ishlab chiqdilar. Natijada O‘rta Osiyoning o‘ziga xos sharoitidan kelib chiqqan holda, mintaqa ilk shaharlarining ilmiy asoslangan arxeologik mezonlarini shakllantirdilar[41].Shuni alohida ta’kidlash lozimki, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan to‘rtta arxeologik belgidan birontasi mavjud bo‘lmasa, iqtisodiy jihatdan dehqonchilikka asoslangan har qanday madaniyatni ilk sinfiy jamiyatlar sirasiga kiritish imkonsiz. Garchi bunday madaniyatlarda aholining ma’lum ijtimoiy guruhlarga ajralishi tabiiy hol bo‘lsa-da, faqat shu to‘rt mezonning yaxlitligi davlatchilik darajasini belgilab beradi. Ushbu mezonlarning amaliy tasdig‘ini Jarqo‘ton yodgorligi misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Olib borilgan tizimli arxeologik qazishmalar natijasida bu yerda ilk shaharlarga xos bo‘lgan barcha muhim elementlar: muhtasham ibodatxona, hukmdorlar saroyi, mustahkam mudofaa tizimi, ixtisoslashgan hunarmandchilik inshootlari hamda aholi yashaydigan turar-joy qoldiqlari aniqlangan. Aynan mana shu yuqori moddiy madaniyat namunalari va me’moriy majmualar Jarqo‘tonni haqli ravishda mintaqadagi ilk shaharlar toifasiga kiritish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi .[42] T.Sh. Shirinov Jarqo‘ton yodgorligi tadqiqotlariga tayanib, ilk shaharlarga xos bo‘lgan quyidagi arxeologik mezonlarni shakllantirdi:

1. Jamoa boshliqlari yoki hukmdorlar istiqomat qiladigan muhtasham saroylarning mavjudligi.

[41] Ширинов Т.Ш. Ранняя городская култура эпохи бронзы юга Средней Азии. Автореф. дисс. ... д.и.н. - М.: 1992. – С.42; Эшов Б.Ж. История формирования и развития раннегородской культуры Средней Азии. Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. Ташкент, 2008. С. 42.

[42] Аскаров А.А, Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии – С. 168.

2. O‘lkaning diniy hayotini boshqaruvchi mahobatli ibodatxonalarning mavjudligi.

3. Mudofaa devorlari bilan o‘ralgan va ichida saroy ahli uchun mo‘ljallangan turar-joylar joylashgan arkning bo‘lishi.

4. Keng hududni egallagan shahar aholisi uylari, umumjamoa ehtiyojlari uchun xizmat qiluvchi inshootlar hamda markazlashgan ishlab chiqarish quvvatlarining mavjudligi.


5. Yuqori darajada rivojlangan hunarmandchilik turlari jamlangan maxsus kvartallarning bo‘lishi.

6. Muhrlar yoki nodir qimmatbaho buyumlar uchraydigan, ijtimoiy elita vakillariga tegishli boy qabrlarning mavjudligi.

7. Aholi istiqomat qiladigan uylarning hajmi, tuzilishi va bezaklari bo‘yicha bir-biridan tubdan farq qilishi.

8. Savdo munosabatlari rivojlanganini ko‘rsatuvchi, boshqa madaniyatlarga xos bo‘lgan import ashyolarning topilishi.

9. Gliptika, epigrafika va yozuvning ibtidoiy shakllari mavjudligi.[43]



9.1-rasm. Jarqo‘ton shahrinining qayta rekonstruksiya holatidan keyingi illustrativ ko‘rinishi.

Ma’lumki, shaharlar ilk sinfiy jamiyatlar davrida, ya’ni davlatlar bilan bir vaqtda paydo bo‘ladi. Arxeologiya va tarix fanida bu o‘zaro bog‘liqlik "Sivilizatsiya triadasi" (shahar, yozuv va davlat) tushunchasi bilan izohlanadi. Haqiqatan ham, shahar shunchaki aholi punkti emas, balki davlatning moddiy va ma’muriy qobig‘idir. O‘rta Osiyo arxeologiya fanida shaharlar va davlatlarning o‘zaro aloqadorligi masalasi hali yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu sababli, ilk shahar markazlarining paydo bo‘lishi va ularning taraqqiyot bosqichlari borasida mutaxassislar o‘rtasida yagona ilmiy to‘xtam mavjud emas.

Xususan, so‘nggi bronza davriga oid ilk shahar tipidagi yodgorliklarning tavsifi turlicha talqin qilinadi. Ayrim tadqiqotchilar ushbu manzilgohlarni "bronza davrining

urbanizatsiyalashgan qishloqlari" deb ta’riflasalar[44], boshqa bir guruh olimlar ularni shaharmonand (protogorod) tuzilmalar deb hisoblaydilar. [45]. Bunday xilma-xil yondashuvlar mintaqada urbanizatsiya jarayonlarining o‘ziga xos murakkablikka ega ekanligidan dalolat beradi. Ilk temir davri shaharlarini tavsiflashda ham yuqoridagiga o‘xshash xilma-xil yondashuvlar ko‘zga tashlanadi. Xususan, akademik E.V. Rtveladze ushbu davr markazlarini "shakllanayotgan shaharlar" toifasiga kiritadi. Bunga zid o‘laroq, B.A. Litvinskiy bu turdagi manzilgohlarni "shaharlashayotgan qishloqlar" deb ta’riflashni lozim topadi.

Bunday terminologik farqlar tadqiqotchilarning ilk shahar va davlat mezonlariga turlicha yondashayotganini, shuningdek, ilk temir davri ijtimoiy-siyosiy tuzilmalarining o‘tish davri xususiyatiga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.Ilk temir davri shaharlarini ta’riflashda ham shu holat kuzatiladi. E.V. Rtveladze bu davr shaharlarini «shakllanayotgan shaharlar» toifasiga kiritsa, B.A. Litvinskiy «shaharlashayotgan qishloqlar» deb ta’riflaydi[46].

Urbanizatsiya va davlatchilik genezisi borasidagi ilmiy qarama-qarshiliklarning tub ildizi ushbu ikki tushunchani bir-biridan ayri holda tadqiq etishga urinishlar bilan bog‘liq. Vaholanki, tarixiy metodologiya nuqtai nazaridan, ilk shaharlar bevosita ilk davlatlarning ma’muriy o‘zagi sifatida shakllangan bo‘lib, ularning taraqqiyoti uzviy bir butunlikni tashkil etadi. Shundan kelib chiqib, shaharlar va davlatchilik evolyutsiyasini quyidagi tizimli bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Dehqonchilik o‘choqlari doirasidagi shahar-davlatlar (mil.av. II ming yillik). Mazkur davrda muayyan hudud doirasida cheklangan siyosiy tuzilmalar paydo bo‘ldi. Qadimgi Baqtriya hududidagi Jarqo‘ton va Dashli I kabi yodgorliklar bunga yorqin

[44] Ртвеладзе Э.В. Формирование городов Бактрии-Тохаристана // Городская среда и культура Бактрии - Тохаристана и Согда (IV в. до н.э. - VII в. н.э.). Тезисы докладов Советско - Французского коллоквиума. - Ташкент, 1986. С. 68-71.

[45] Литвинский Б.А. Древний среднеазиатский город. (Местные традиции и иноземные модели) // Древний Восток. Города и торговля (III-I тыс. до н.э.). - Ереван, 1973. С.131.

[46] Ртвеладзе Э.В. Формирование городов Бактрии-Тохаристана ... С.69; Литвинский Б.А. Древний среднеазиатский город ... С. 131.

misol bo‘lib, ular o‘zaro iqtisodiy-madaniy aloqalarda bo‘lgan mustaqil boshqaruv markazlari edi.

2. Hududiy davlatlarning markaziy shaharlari (mil.av. I ming yillik boshlari). Bu bosqichda shahar faqatgina aholi maskani emas, balki yaxlit bir hududning yagona siyosiy va g‘oyaviy markaziga aylandi. Baqtriyadagi Qiziltepa, Jondavlattepa, Xaitobodtepa, Farg‘onadagi Dalvarzin, Chust, hamda So‘g‘ddagi Ko‘ktepa kabi yodgorliklar shunday maqomga ega bo‘lgan. Mazkur davr uchun bitta hududiy davlat doirasida faqat bitta bosh shahar (dominanta) mavjudligi xosdir.

3. Markazlashgan davlatlar va imperiyalar davri shaharlari. Qadimgi Baqtriya va Katta Xorazm kabi yirik podshohliklarning shakllanishi, keyinchalik ularning Ahamoniylar imperiyasi tarkibiga integratsiyalashuvi shaharlar iyerarxiyasini murakkablashtirdi. Endilikda shaharlar o‘z mavqeyiga ko‘ra bir necha toifaga ajraldi:

- Imperiya poytaxtlari (Suza, Persopol kabi ulkan ma’muriy markazlar);
- Satraplik (viloyat) markazlari (masalan, Baqtr shahri);
- Mahalliy ahamiyatga ega yirik va kichik shaharlar (Afrosiyob, Ko‘ktepa, Xaitobodtepa kabi strategik nuqtalar).

Bu davrda shaharlar nafaqat mudofaa va boshqaruv maskani, balki murakkab iqtisodiy va ijtimoiy tabaqalanishga ega bo‘lgan tizimga aylandi.

Ilk davlatlarning ko‘rsatib o‘tilgan barcha arxeologik belgilari Vatanimiz hududidagi eng qadimgi shahar deb ta’riflanayotgan Jarqo‘ton yodgorligida mujassamlashgan. Jarqo‘ton yodgorligini nafaqat ilk shahar deb, balki shahar - davlat deb atasak tarixiy xaqiqat bo‘ladi, negaki bu yodgorlikning arxeologik belgilari Qadimgi Sharq shahar – davlatlariga monandligi va mosligi bilan xarakterlanadi[47].

Vatanimiz hududidagi davlatchilik tarixini o‘rganishda Jarqo‘ton yodgorligi markaziy ahamiyatga ega. Ushbu yodgorlik ilk davlatlarga xos bo‘lgan barcha arxeologik mezonlarni o‘zida mujassam etgan. Jarqo‘tonni shunchaki shahar emas,

[47] Аҳмадали Асқаров. Энг қадимий шаҳар ... – Б. 24.

balki Qadimgi Sharq tizimidagi shahar-davlat deb e’tirof etish tarixiy haqiqatga mos keladi, chunki uning belgilari o‘sha davrning yirik madaniy markazlari bilan bir xil xususiyatga ega.

Yodgorlikda aholi sonining ko‘pligi va jamiyatning tabaqalanganidan dalolat beruvchi ko‘plab ashyoviy dalillar mavjud. Hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik, me’morchilik va harbiy sohalarning yuksak darajadagi taraqqiyoti ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanganini ko‘rsatadi. Bu jarayon natijasida paydo bo‘lgan ortiqcha mahsulot boshqaruvchi hukmdorlar qatlamini yuzaga keltirgan. Hukmdorlar saroyining mavjudligi esa ilk davlatchilik shakllanganidan dalolat beruvchi asosiy arxeologik belgidir. Tadqiqotchi T.Sh. Shirinov tomonidan Jarqo‘ton olov ibodatxonasining kashf etilishi bronza davridayoq mintaqada markazlashgan din shakllanganini ilmiy jihatdan isbotladi. Shu bilan birga, Jarqo‘ton aholisining xalqaro savdo va madaniy aloqalarga asos solgani ham aniqlandi. Mesopotamiya madaniyatiga xos muhrlar hamda faqat Mesopotamiya va Xarappa hududlarida uchraydigan sirlangan idishlarning topilishi Jarqo‘tonning Qadimgi Sharq davlatlari bilan uzviy aloqada bo‘lganini tasdiqlaydi. Shuningdek, Xarappa hamda Yevroosiyo dashtlaridagi Andronovo madaniyati vakillari bilan iqtisodiy munosabatlar o‘rnatilgani haqida yetarli ma’lumotlar to‘plangan. Ilk davlatchilikning muhim belgisi bo‘lgan yozuv masalasida ham Jarqo‘ton yodgorligi muhim kashfiyotlar taqdim etmoqda. So‘nggi yillardagi tadqiqotlar natijasida sopol buyumlarga bitilgan 47 ta piktografik belgi (yozuv shakllari) aniqlandi. Bunday yozuv namunalari Xarappa va Markaziy Eron yodgorliklarida ham uchraydi, bu esa mintaqamizda yozuv madaniyati ildizlari juda qadimga borib taqalishini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqilgan arxeologik mezonlar va Jarqo‘tondan topilgan boy moddiy madaniyat namunalari ushbu yodgorlikni haqli ravishda ilk shahar-davlatlar toifasiga kiritish imkonini beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Nima sababdan Qadimgi Sharq davlatchilik modeli O‘zbekistonning shimoliy (ko‘chmanchi) va janubiy (ilk shahar) hududlari yodgorliklariga farqli ravishda tatbiq etiladi?

2. Sh. Shaydullayev tasnifiga ko‘ra, ijtimoiy-moddiy tengsizlikni ko‘rsatuvchi asosiy arxeologik mezonlar (turar-joy mahobati va dafn marosimlari) jamiyat iyerarxiyasini qanday ochib beradi?

3. Sopolli madaniyati misolida hunarmandchilikning markazlashuvi va mahsulotlarning aynan bozor (ayirboshlash) uchun ixtisoslashgan ustalar tomonidan tayyorlanganligi qanday isbotlanadi?

Jarqo‘ton shahrinining rekonstruksiya Videosini ushbu QR-kodi orqali bilib olishingiz mumkin.

10-MAVZU: ILK O‘RTA ASRLAR DAVRI TARIXIY REKONSTRUKSIYASI MASALALARI MANBA SIFATIDA

REJA:

1. **Ilk o‘rta asrlarda mudofaa inshootlari va qal’a-qo‘rg‘onlar evolyutsiyasi.**
2. **Turar-joylar arxitekturasi jamiyat ijtimoiy tabaqalanishining asosi sifatida.**
3. **Moddiy madaniyat ashyolari orqali etnomadaniy jarayonlarni tiklash.**

1.Ilk o‘rta asrlarda mudofaa inshootlari va qal’a-qo‘rg‘onlar evolyutsiyasi.

Ilk o‘rta asrlarda O‘zbekiston hududida yer egaligi munosabatlarining shakllanishi qishloq xo‘jaligi va dehqonchilik madaniyatida tub burilish yasadi. Bu jarayon yangi yerlarning keng miqyosda o‘zlashtirilishiga, aholining yirik yer egalari atrofiga jipslashuviga va natijada ko‘plab yangi qishloq manzilgohlarining barpo etilishiga zamin yaratdi. Ushbu davr ijtimoiy tabaqalanishining o‘ziga xos me’moriy timsoli sifatida yirik yer egalari — dehqonlarning maxsus qarorgohlari bo‘lmish ko‘shklar vujudga keldi. Bugungi kunda bunday ko‘shklarning xarobalari butun respublika bo‘ylab baland tuproq-qo‘rg‘onlar (tepalar) shaklida saqlanib qolgan. Me’moriy jihatdan ko‘shklar odatda to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida, baland va mustahkam sun’iy platforma ustiga bunyod etilgan bo‘lib, tashqi tomondan chuqur xandaklar hamda qalin mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan. Bunday istehkomlar bitta feodal oilaning xavfsiz yashashiga moslashtirilgan bo‘lib, ular alohida mustaqil suv ta’minoti tizimiga ega edi. Qurilishda asosan xom g‘isht, paxsa, yog‘och va tog‘ toshlari kabi mahalliy xomashyolardan foydalanilgan. Binoning ichki xonalari esa mayin somonshuvoq va maxsus ganch qorishmasi bilan sayqallanib, o‘ziga xos mahobatli ko‘rinishga keltirilgan. Ilk o‘rta asrlarga oid yozma manbalarda shaharlar asosan uch qismdan iborat deb ko‘rsatilsa-da, arxeologik tadqiqotlar ularning aksariyati ikki asosiy qismdan — ark va shahristondan tashkil topganligini tasdiqlaydi. Barcha shaharlarning tarkibiy qismi bo‘lgan ark o‘zining mahobatliligi

va strategik joylashuvi bilan ajralib turgan. Odatda, arklar sun’iy ravishda ko‘tarilgan tuproq va loy tepaliklar ustiga bunyod etilib, mudofaa maqsadida atrofi chuqur xandaklar bilan o‘ralgan. Mustahkam poydevor ustiga xom g‘isht va paxsadan qasr qurilgan bo‘lib, uning ichki tuzilishi o‘ziga xos me’moriy yechimga ega bo‘lgan. Turar joy binolari, odatda, markaziy kvadrat shaklidagi yirik xona hamda uning atrofidagi uzunchoq va to‘rtburchak xonalardan iborat edi. Kvadrat shaklidagi xonalar gumbaz bilan yopilgan bo‘lsa, ayrim hollarda xona o‘rtasiga to‘rtta ustun o‘rnatilib, shifti yog‘och to‘sinlar bilan yopilgan. Bunday xonalarning markaziy qismi to‘rtburchak shaklida ochiq qoldirilgan bo‘lib, tadqiqotchilarning fikricha, bu keng xonalar bir vaqtning o‘zida ham mehmonxona, ham ichki hovli vazifasini bajargan.Ilk o‘rta asrlar (V–VIII asrlar) Markaziy Osiyo, xususan, Surxon vohasi tarixida ijtimoiy-siyosiy va me’moriy transformatsiyalar davri hisoblanadi. Ushbu davr mudofaa inshootlari evolyutsiyasini rekonstruksiya qilish orqali biz antik davr shaharsozligidan ilk feodalizm (dehqonchilik xo‘jaligi) tizimiga o‘tishning aniq manzarasini ko‘ramiz.

Antik davr monumentalizmidan ilk o‘rta asrlar "ko‘shk" tizimiga o‘tish

Antik davrda (Kushon podsholigi davri) mudofaa tizimlari ulkan maydonlarni egallagan, davlat nazoratidagi yirik shahar-qal’alar (masalan, Termiz, Dalvarzintepa) ko‘rinishida bo‘lgan. Biroq, V asrga kelib, bu tizim o‘rnini tarqoq, ammo yuqori darajada himoyalangan lokal mudofaa ob’ektlari egalladi.[48]

Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi natijasida yer egalari — "dehqonlar" (mulkdor aristokratiya) o‘z yerlarida mustaqil siyosiy va harbiy kuchga aylandi. Bu jarayon tarixiy rekonstruksiyada "qal’alashgan qo‘rg‘onlar" (ko‘shklar) paydo bo‘lishi bilan isbotlanadi.

Ilk o‘rta asrlar qal’alarining eng xarakterli belgisi — ularning balandligi 2 metrdan 10 metrgacha yetadigan sun’iy platformalar (stilobatlar) ustiga qurilishidir. Bu

[48] Маликов А.М. Илк ўрта асрларда Ўрта Осиёда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар ва урбанизация жараёнлари. – Тошкент: Фан, 2019. – Б. 112–128.

nafaqat strategik ustunlik (kuzatish va o‘q otish qulayligi), balki binoni zaxdan saqlash va dushmanning devor ostini qazish (podkop) imkoniyatini cheklashga xizmat qilgan. Bu davrda ham asosiy qurilish ashyosi paxsa va xom g‘isht bo‘lib qolsa-da, g‘ishtlarning hajmi biroz kichraygan va zichligi ortgan.

Ilk o‘rta asrlar mudofaa inshootlarini rekonstruksiya qilishda ularning harbiy-muhandislik yechimlari alohida ahamiyatga ega. Bu davrda devorlar nafaqat to‘siq, balki faol mudofaa nuqtasi vazifasini o‘tagan.

Antik davrda shinaklar (o‘q otish teshiklari) bir qatorli va oddiy bo‘lgan bo‘lsa, V–VII asrlarda ular ikki yoki uch qatorli bo‘lib, bir-biriga nisbatan shaxmat tartibida joylashtirilgan. Bu merganlarga dushmanni turli burchaklardan va masofalardan o‘qqa tutish imkonini bergan. Minoralar odatda to‘rtburchak yoki yarim doira shaklida bo‘lib, devor sathidan ancha bo‘rtib chiqqan. Bu “yonlama o‘q“(flankirovanie) imkonini yaratib, dushmanning devorga yaqinlashishini imkonsiz qilgan.

Qal’alarning kirish qismi (darvozaxona) murakkablab borgan. Odatda u "labirint" shaklida yoki uzun yo‘lakli (dalan) ko‘rinishda bo‘lib, darvozani buzib kirgan dushman tor yo‘lakda har tomondan hujumga uchragan.

Surxondaryo viloyati ilk o‘rta asrlar mudofaa me’morchiligining eng noyob namunalariga boy. Xususan, Bolaliktepa yodgorligi ushbu davrni rekonstruksiya qilishda namuna hisoblanadi. V–VI asrlarga oid ushbu qo‘rg‘on 6 metr balandlikdagi stilobat ustiga qurilgan. Uning markaziy qismida hashamatli mehmonxona va marosimlar zali joylashgan bo‘lib, tashqi devorlari mudofaa minoralariga ega bo‘lgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, ko‘shk nafaqat harbiy istehkom, balki hududiy boshqaruv va madaniy markaz ham bo‘lgan.[49]

Vohadagi yirik manzilgohlar atrofida ko‘plab mayda qo‘rg‘onchalarning (chorva va dehqon xo‘jaliklari) joylashishi, markaziy qal’aning (ko‘shkning)

[49] Ҳасанов М. Тохористон мудофаа иншоотлари ва илк феодал кўшклари меъморчилиги ривожи // Самарқанд давлат университети илмий тадқиқотлар ахборотномаси. – Самарқанд, 2021. – № 4. – Б. 56–63.

himoyachilik funksiyasini tasdiqlaydi. Arxeologik qazishmalar davomida Bolaliktepa devorlaridagi rasmlarda tasvirlangan bazm sahnalari mudofaa devorlari ortidagi "tinch hayot"ning kafolatlanganligini, ya’ni qal’aning o‘z vazifasini bajarganini anglatadi.

2. Turar-joylar arxitekturasi jamiyat ijtimoiy tabaqalanishining asosi sifatida



10.1-rasm. Ilk o‘rta asrlar boy dehqon ko‘shkining tashqi ko‘rinishi (rekonstruksiya)

2.Turar-joylar arxitekturasi jamiyat ijtimoiy tabaqalanishining asosi sifatida

Ilk o‘rta asrlar (V–VIII asrlar) turar-joy me’morchiligi O‘rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi eng keskin burilish davrini o‘zida aks ettiradi. Ushbu davr arxitekturasini rekonstruksiya qilish orqali biz antik davrning jamoaviy hayot tarzidan ilk o‘rta asrlarning tabaqalashgan, feodal munosabatlarga asoslangan jamiyatiga o‘tish jarayonini kuzatamiz.[50]

Quyida ushbu jarayonning uchta asosiy yo‘nalishi bo‘yicha batafsil ilmiy-tahliliy ma’lumotlar keltirilgan:

[50] Алимова Д.А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё шаҳарлари ва турар-жой тизими трансформацияси тарихшунослиги // Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 2011. – № 3. – Б. 14–25.

V–VIII asrlarda jamiyatning yuqori tabaqasi bo‘lgan "dehqonlar" (yer egalari) nufuzining ortishi me’morchilikda o‘zining yaqqol ifodasini topdi. Bu davr ko‘shklari nafaqat boshpana, balki siyosiy hokimiyat va boylik ramzi bo‘lib xizmat qilgan. Boy tabaqa vakillarining uylari (masalan, Bolaliktepa, Varaxsha, Panjikent) markaziy qismida keng mehmonxonalar va tantanalar zali mavjudligi bilan ajralib turadi. Ushbu xonalar devorlari rangdor rasmlar (ov sahnalari, elchilarni qabul qilish, diniy marosimlar) bilan bezatilgan. Bu esa egalarining yuqori ijtimoiy mavqeyini va xalqaro madaniy aloqalardan xabardorligini ko‘rsatadi.

Aksincha, qishloq manzilgohlarida yoki shahristonning chekka qismlarida yashagan oddiy mehnatkash aholining uylari funksional jihatdan o‘ta sodda bo‘lgan. Ular odatda 1-2 xonadan iborat bo‘lib, devorlari bezaksiz, xonalari esa kichik hajmli bo‘lgan. Bu me’moriy kontrast jamiyatda mulkiy va tabaqaviy tengsizlikning qanchalik chuqurlashganini isbotlovchi asosiy manbadir.

Turar-joyning ichki tuzilishini o‘rganish aholining kundalik turmush darajasini, ularning gigiyenik va xo‘jalik odatlarini tiklashga imkon beradi.

Xonalarning burchagida yoki markazida joylashgan o‘choqlar (sandal yoki ochiq o‘choq) hamda devor ichiga qurilgan mo‘rilar issiqlikni saqlashning murakkab tizimi shakllanganidan dalolat beradi. O‘choqlarning shakli va ulardan topilgan kul qoldiqlari orqali aholining ratsioni haqida ilmiy xulosalar chiqariladi.

Shahar va ko‘shklarda saqlanib qolgan tahoratxonalar (badrob) va sopol quvurlar orqali o‘tkazilgan suv tarmoqlari ilk o‘rta asrlarda sanitariya-gigiyena madaniyati yuqori bo‘lganini tasdiqlaydi.

Turar-joy majmuasidagi don saqlanadigan xumlar va yerosti omborxonalari (xumxonalar) oilaning iqtisodiy quvvati va zaxira to‘plash imkoniyatlarini rekonstruksiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo shaharlari o‘zining klassik uch qismli strukturaviy qiyofasiga ega bo‘la boshladi. Bu

shaharsozlik madaniyatining yangi va eng yuqori bosqichidir.[51]

Shaharning eng yuqori nuqtasida joylashgan hukmdor qarorgohi. Bu qism qalin mudofaa devorlari bilan o‘ralgan bo‘lib, ma’muriy va siyosiy markaz vazifasini o‘tagan. Shaharning devor bilan o‘ralgan asosiy qismi. Bu yerda aslzodalar, savdogarlar va hunarmandlarning turar-joylari, shuningdek, asosiy ibodatxonalar joylashgan. Shahar devoridan tashqarida joylashgan savdo-hunarmandchilik chekkasi (fovar). V–VIII asrlarda rabodlarning kengayishi iqtisodiy hayotning jonlanishi va aholi sonining ortishi bilan bog‘liq bo‘lgan.

Ulug‘bek tomonidan 1433-yilda G‘ijduvonda bunyod etilgan madrasa esa o‘zining bir qavatli, ixcham kompozitsiyasi bilan ajralib turadi. Ushbu obidaning ichki hovlisi funksional jihatdan mukammal rejalashtirilgan: hovli to‘rida keng yozgi darsxona, o‘ng qanotda masjid va chap qismda maktab-darsxona o‘zaro uyg‘unlikda joylashgan. Talabalar yashashi uchun mo‘ljallangan sakkizta hujra yozgi darsxonaning ikki yon tomoniga simmetrik joylashtirilgan bo‘lib, binoning tashqi burchaklari an’anaviy guldastalar bilan mustahkamlangan. G‘ijduvon madrasasining saqlanib qolgan me’moriy elementlari Temuriylar davri kichik shahar markazlaridagi ma’rifiy maskanlarning o‘ziga xos arxitektura modelini qayta tiklashda asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. 1399–1404-yillarda Samarqandda qad ko‘targan Bibixonim masjidi o‘rta asrlar Sharq me’morchiligining eng mahobatli inshootlaridan biri sanaladi. Sharofiddin Ali Yazdiy kabi tarixchilarning qaydlariga ko‘ra, majmua qurilishiga Hindistondan maxsus tosh tarash ustalari jalb etilgan hamda ulkan tosh ustunlarni tashish uchun fillardan foydalanilgan. Tarixiy o‘lchov birliklarini zamonaviy metrik tizimga rekonstruksiya qilganda, binoning asosiy balandligi 90 gazga (taxminan 55 metr) teng bo‘lganligi uning vertikal dominantlik darajasini ko‘rsatadi.

Majmuaning umumiy tarhi 130x99 metrni, ichki hovlisi esa 78x64 metrni tashkil etadi. Me’moriy kompozitsiyaning to‘rt burchagida to‘rtta minora joylashtirilgan bo‘lib, hozirgi kunda ulardan biri saqlanib qolgan. Bosh peshtoq uchta qisqarib boruvchi toq tizimi asosida murakkab muhandislik yechimi bilan ishlangan va ikki chetidagi minorasimon burjlar bilan mustahkamlangan. Hovli to‘ridagi maqsura (markaziy bino) va xonaqohlarning tomi ikki qavatli gumbaz konstruksiyasi asosida yopilgan. Gumbazlarning ichki qismidagi lojuvard va tilla suvi yugurtirilgan islimiy

naqshlar, shuningdek, tashqi sirtidagi murakkab girih va xattotlik namunalari o‘sha davr badiiy bezak san’atining cho‘qqisi sifatida ilmiy-vizual rekonstruksiya qilinadi.

Shahrisabzdagi Ko‘k gumbaz masjidi

1434–1436-yillarda Shahrisabzda Mirzo Ulug‘bek tomonidan otasi Shohruh Mirzo sharafiga bunyod etilgan Ko‘k gumbaz juma masjidi o‘zining o‘ziga xos me’moriy qiyofasi bilan ajralib turadi. Ushbu obida “Dorut tilovat” majmuasining markaziy qismi bo‘lib, uning baland va moviy koshinlar bilan qoplangan gumbazi shahar panoramasida asosiy o‘rin tutgan. Masjidning fazoviy tuzilishi va bezaklar tizimi XV asr birinchi yarmidagi Temuriylar me’morchilik maktabining klassik an’analarini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, u mintaqadagi boshqa diniy inshootlar qurilishi uchun muayyan darajada etalon vazifasini o‘tagan.

Temuriylar davri maqbarashunosligi va xilxonalar qurilishi nafaqat me’moriy yuksalish, balki sulolaviy vorislik va e’tiqodiy qarashlarning moddiy inobatga olingan shaklidir. Ushbu inshootlarning tarixiy rekonstruksiyasi Sohibqiron va uning avlodlari tomonidan Kesh (Shahrisabz) hamda Samarqandda barpo etilgan majmualarning tarkibiy qismlarini ilmiy tahlil qilish imkonini beradi.

Shohi Zinda va Go‘ri Amir: Memorial ansambllarning shakllanishi

Samarqanddagi memorial me’morchilik 1372-yildan — Shodimulk xonim maqbarasi qurilishidan boshlab yangi bosqichga ko‘tarildi. Shohi Zinda ansamblida Qutlug‘ Turkon og‘o va Shirinbeka og‘o kabi malikalar uchun qurilgan obidalar o‘sha davr bezak san’atining eng nafis namunalarini o‘zida mujassam etgan. Biroq, sulolaviy maqbaralar tarixida Go‘ri Amir ansambli markaziy o‘rin tutadi. Dastlab Muhammad Sulton madrasasi va xonaqohi yonida barpo etilgan ushbu sag‘ana, keyinchalik Sohibqironning vafoti bilan butun sulolaning bosh xilxonasiga aylandi. Uning to‘q niliy rangli qabirg‘ali gumbazi va ichki intererining tilla suvi yuritilgan naqshlari Temuriylar davri memorial san’atining cho‘qqisi sifatida ilmiy-badiiy rekonstruksiya qilinadi.Tarixiy rekonstruksiya fani nuqtai nazaridan ushbu davr maqbaralarini

kompozitsion tuzilishiga ko‘ra ikki asosiy guruhga ajratish mumkin:

Bir xonali maqbaralar:

Chortoq uslubidagi binolar: To‘rt tomoni simmetrik va bir xil shaklda qurilgan (masalan, Ruhobod maqbarasi).

Gumbazli-peshtoqli binolar: Old tomonida mahobatli peshtog‘i bo‘lib, go‘rxonasi ko‘pincha yer ostida joylashgan (masalan, Sulton Saodat va Shamsiddin Kulol maqbaralari).





Oqsaroy inshootining qayta tiklangan illustrativ ko‘rinishi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Amir Temurning markazlashgan siyosati mo‘g‘ullar istilosidan keyingi iqtisodiy-ijtimoiy inqirozni bartaraf etishda qanday burilish yasadi?
2. Samarqand arki (shahri darun) va hisor qismining me’moriy-topografik tuzilishi saltanat poytaxtining harbiy va ma’muriy qudratini qanday ifodalaydi?
3. Ark hududidagi Ko‘ksaroy, Bo‘stonsaroy, noyob kutubxona va zarbxonalarning joylashuvi Temuriylar davri davlat boshqaruvi va intellektual salohiyatini qanday ochib beradi?
4. XIX-XX asr boshlaridagi arxeologik tadqiqotlar, xususan, Ulug‘bek rasadxonasining kashf etilishi Temuriylar Renessansini ilmiy rekonstruksiya qilishda qanday ahamiyatga ega?

13-MAVZU: O‘RTA OSIYO XONLIKLAR DAVRI TARIXIY REKONSTRUKSIYASI MASALALARI MANBA SIFATIDA

REJA:

1. **Shaharsozlik strukturasi va mudofaa tizimining me’moriy transformatsiyasi**
2. **Monumental va xalq turar-joylari arxitekturasining qiyosiy tahlili**
3. **Moddiy madaniyat va hunarmandchilikning texnologik rekonstruksiyasi**

1. Movarounnahr va Xorazm hududidagi o‘rta asrlar shaharsozlik madaniyati, xususan, Temuriylar va undan keyingi xonliklar davri me’moriy transformatsiyasi murakkab muhandislik yechimlari hamda strategik rejalashtirish tamoyillari asosida shakllangan. XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Sohibqiron Amir Temur tomonidan Samarqandning saltanat poytaxti etib tanlanishi mintaqada "shahri darun" va "hisor" tizimidagi yangi urbanizatsiya bosqichini boshlab berdi. 1371–1373-yillarda Tepa qo‘rg‘on hududida barpo etilgan Samarqand arki 34 gektardan ortiq maydonni egallab, uning 8 metrlik baland va 3 metrlik qalin mudofaa devorlari strategik xavfsizlikni ta’minlagan. Ark ichida davlatning ma’muriy va mafkuraviy markazlari hisoblangan Ko‘ksaroy va Bo‘stonsaroy qasrlari, shuningdek, 15 ming jildlik nodir kutubxona va zarbxonalar joylashgan bo‘lib, bu inshootlar davlat boshqaruvining yaxlit makonini ifodalagan. Xonliklar davri (XVI–XIX asrlar) shaharsozlik madaniyatini tarixiy rekonstruksiya qilishda Buxoro, Xiva va Qo‘qon shaharlarining topografik transformatsiyasi harbiy-mudofaa ehtiyojlari hamda xalqaro savdo dinamikasi bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi. Ushbu davr urbanizatsiyasi o‘zidan oldingi Temuriylar an’analarini davom ettirgan bo‘lsa-da, geosiyosiy vaziyatning o‘zgarishi natijasida istehkomlar arxeologiyasi va iqtisodiy infratuzilma tizimida o‘ziga xos muhandislik yechimlari shakllandi.

Xususan, Buxoro va Xiva (Ichan-qal’a) mudofaa tizimlarining me’moriy rekonstruksiyasi shuni ko‘rsatadiki, bu shaharlarning tashqi devorlari paxsa va pishiq

g‘isht uyg‘unligida barpo etilgan bo‘lib, ularning 5 metrdan 8 metrgacha yetadigan qalinligi o‘sha davrda qo‘llanila boshlangan og‘ir qamal to‘plari zarbasini yumshatishga hamda inshootning mustahkamligini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Mudofaa tizimining samaradorligini oshirish maqsadida shinaklar (o‘q otish tuynuklari) va tayanch burjlar har 50–100 metr oraliqda tizimli ravishda joylashtirilgan bo‘lib, bu taktik yechim dushman kuchlarini aylanma o‘t ostiga olish va shahar perimetrini to‘liq nazorat qilish imkonini bergan.

Shahar markazlarining iqtisodiy topografiyasini o‘rganishda esa ixtisoslashgan savdo gumbazlari — tim va toqlar (masalan, Toqi Sarrofon, Toqi Zargaron) hamda karvonsaroylar klasteri alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu inshootlarning ichki me’moriy rejalashtirilishi, ya’ni sarroflik rastalari, keng qamrovli omborxonalar va xavfsiz turar-joy tizimlarining mavjudligi, Buyuk Ipak yo‘lining so‘nggi bosqichidagi tranzit logistikasining naqadar yuqori darajada tashkil etilganligidan dalolat beradi. Mazkur savdo inshootlari nafaqat iqtisodiy almashinuv nuqtalari, balki xonliklar davri ijtimoiy-siyosiy hayotining markaziy bo‘g‘ini sifatida shaharsozlik strukturasining yaxlitligini ta’minlagan.

Xonliklar davri shaharlarining hayotiyligini ta’minlovchi gidrotexnik infratuzilma va mahallalar strukturasi o‘ziga xos ekologik hamda ijtimoiy muvozanat asosiga qurilgan bo‘lib, bu tizimni tarixiy rekonstruksiya qilish mintaqaning o‘rta asrlar oxiridagi turmush tarzini aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Shaharsozlikning "qon aylanish tizimi" hisoblangan kanallar va ariqlar tarmog‘i nafaqat aholini ichimlik suvi bilan ta’minlagan, balki shahar mikroklimatini mo‘tadillashtirishga ham xizmat qilgan. Buxoro va Xiva misolida ko‘radigan bo‘lsak, shahar ichidagi ochiq va yopiq hovuzlar klasteri muayyan ijtimoiy markazlar atrofida shakllangan bo‘lib, ular ko‘pincha masjid, hammom va choyxonalar bilan yaxlit me’moriy ansamblni tashkil etgan. Ushbu gidrotexnik inshootlarning o‘zaro bog‘liqligi va suvning doimiy aylanishini ta’minlovchi muhandislik yechimlari xonliklar davri shahar

ma’muriyatining sanitariya-gigiyena masalalariga bo‘lgan yondashuvini ko‘rsatib beradi. Mahallalar tuzilishini fazoviy rekonstruksiya qilishda esa ijtimoiy iyerarxiya va kasb-hunar ixtisoslashuvi birlamchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Har bir mahalla o‘zining markaziy masjidi, maktabi va kichik bozoriga ega bo‘lgan mustaqil ijtimoiy birlik sifatida shakllangan bo‘lib, ularning tor va egri-bugri ko‘chalari iqlim sharoitidan kelib chiqib, quyosh nurlaridan himoyalanish va tabiiy shamollatish tizimini yaratishga moslashtirilgan. Uy-joy me’morchiligining ichki hovli (ichkari) va tashqi hovli (tashqari) tamoyili asosida qurilishi aholining diniy va oilaviy an’analarini me’moriy shaklda muhrlagan. Arxeologik dalillar va XIX asr oxiri topografik chizmalari asosida mahallalarning joylashuv tartibini tahlil qilish, shahar aholisining demografik zichligi va ijtimoiy tabaqalanish darajasini ilmiy asosda qayta tiklash imkonini beradi. Shuningdek, shahar chetidagi ziroatchilik zonalarining shahar ichki qismi bilan organik bog‘lanishi xonliklar davri urbanizatsiyasining agrar-shahar xususiyatiga ega bo‘lganligini tasdiqlovchi muhim omildir.Xonliklar davri (XVI–XIX asrlar) me’moriy merosini tarixiy rekonstruksiya qilishda monumental inshootlar va xalq turar-joylari o‘rtasidagi tarkibiy farqlarni qiyosiy tahlil etish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy manzarasini tubdan yoritib beradi. Ushbu davr arxitekturasini o‘rganishda hukmron tabaqa tomonidan barpo etilgan mahobatli madrasalar, masjidlar va xon qarorgohlari bilan oddiy aholining maishiy turar-joylari o‘rtasidagi keskin kontrast ijtimoiy iyerarxiyaning vizual ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Monumental me’morchilikda pishgan g‘isht, ganch o‘ymakorligi va sirlangan koshinlar tizimi davlatning mafkuraviy qudratini aks ettiruvchi asosiy vositalar bo‘lib xizmat qilgan. Masalan, Buxoro va Samarqanddagi Ko‘kaldosh, Sherdor va Tillakori kabi madrasalar majmuasini rekonstruksiya qilish orqali o‘sha davrning intellektual va diniy salohiyatini tiklash mumkin. Ushbu binolarning mahobatli peshtoqlari, baland gumbazlari va simmetrik rejalashtirilgan hovli strukturasi murakkab

geometrik hisob-kitoblar mahsulidir. Ayniqsa, koshin va parchinlar ustidagi o‘simliksimon (islimiy) hamda geometrik (girih) naqshlarning kimyoviy tarkibi va ranglar gammasi (ko‘k, havorang, lojuvard) o‘sha davr badiiy hunarmandchiligi va texnologik darajasini ilmiy asosda isbotlovchi moddiy dalillardir. Bunday inshootlar shahar topografiyasida vertikal dominant vazifasini o‘tab, hokimiyat va dinning jamiyat hayotidagi markaziy o‘rnini vizual tarzda mustahkamlagan.

Bunga qarama-qarshi o‘laroq, an’anaviy xalq me’morchiligi ko‘proq utilitar (amaliy) va iqlimga moslashuvchan xarakterga ega bo‘lgan. Xonliklar davriga xos bo‘lgan "hovli" tizimini rekonstruksiya qilish aholining kundalik turmush darajasini o‘rganishda birlamchi manba hisoblanadi. Oddiy aholi turar-joylari asosan paxsa va xom g‘ishtdan tiklangan bo‘lib, bu qurilish materiallari issiq iqlim sharoitida tabiiy issiqlik izolyatsiyasini ta’minlagan. Uy-joy strukturasi "ichkari" va "tashqari" (erkin va oilaviy hudud) qismlarga qat’iy ajratilishi mintaqaning diniy-etik normalarini me’moriy shaklga ko‘chirgan. Yog‘och ustunli ayvonlar, shiftlardagi vassa-juftlar va nafis o‘ymakorlik namunalari xalq ustalari badiiy didining yuksakligini ko‘rsatadi. Bu yerda me’morchilik shunchaki bino qurish emas, balki cheklangan resurslar (loy, somon, yog‘och) yordamida ekologik qulay makon yaratish san’ati darajasiga ko‘tarilgan.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, monumental inshootlar davlatning "yuzi" sifatida tashqi mahobati va bezakdorligi bilan ajralib tursa, xalq turar-joylari ichki osoyishtalik va funksionallikka yo‘naltirilgan. Bezak san’atidagi farqlar — monumental binolardagi qimmatbaho koshinlar va oddiy uylardagi ganch o‘ymakorligi yoki mato naqshlariga o‘xshash devoriy bezaklar — jamiyatning iqtisodiy qatlamlanishini yaqqol ko‘rsatadi. Shunga qaramay, har ikki yo‘nalishda ham umumiy me’moriy til (ravoqlar, gumbazlar, ustunlar) saqlanib qolganligi Markaziy Osiyo shaharsozlik madaniyatining yaxlitligini tasdiqlaydi. Ushbu elementlarni kompleks rekonstruksiya qilish orqali biz nafaqat binolarning

qiyofasini, balki ularning ichida kechgan ijtimoiy hayot, iqtisodiy munosabatlar va madaniy qadriyatlarni ilmiy jihatdan qayta tiklash imkoniga ega bo‘lamiz.

Xonliklar davri (XVI–XIX asrlar) monumental va xalq turar-joylari arxitekturasining qiyosiy tahlili jamiyatning ijtimoiy-siyosiy manzarasini hamda o‘sha davr muhandislik tafakkurini rekonstruksiya qilishda fundamental ahamiyatga ega. Toshkent shaharsozlik tarixining eng mahobatli obidalaridan biri — Ko‘kaldosh madrasasi (1551–1575) xonliklar davri me’moriy an’analarining poytaxtdagi asosiy timsoli hisoblanadi. Ushbu yodgorlikning qurilish tarixi, inqirozi va mustaqillik yillaridagi fundamental regeneratsiyasi murakkab ijtimoiy-siyosiy hamda muhandislik jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Shayboniylar davri me’morchilik maktabining yirik namunasi bo‘lgan Ko‘kaldosh madrasasining bunyod etilishi 1569–1570-yillarda rasmiylashtirilgan vaqfnomalar bilan hujjatlashtirilgan. Biroq, inshootning keyingi taqdiri mintaqadagi seysmik faollik va harbiy to‘qnashuvlar natijasida fojiali kechdi. Xususan, 1865-yilda chor Rossiyasi qo‘shinlarining Toshkentga hujumi paytida madrasa va unga tutash Xo‘ja Ahror Valiy jome’ masjidi jiddiy shikastlangan bo‘lsa, 1866 va 1886-yillardagi kuchli zilzilalar oqibatida bino peshtog‘ining yuqori qismi butunlay qulab tushgan. XIX asr oxirida rus muhandislarining aralashuvi bilan amalga oshirilgan ta’mirlash ishlari madrasaning dastlabki me’moriy qiyofasini tizimli ravishda buzib, uning tarixiy autentikligiga jiddiy putur yetkazgan.

Sho‘rolar davrida obidaga bo‘lgan munosabat yanada ayanchli tus oldi. Kommunistik mafkuraning hukmronligi natijasida madrasa o‘zining ma’rifiy funksiyasini yo‘qotib, turli yillarda omborxona, yotoqxona va ustaxona sifatida foydalanildi. XVIII asrda karvonsaroyga aylantirilgan bino, XX asrning ikkinchi yarmiga kelib tabiiy yemirilish va davlat darajasidagi mas’uliyatsizlik tufayli xaroba holatiga kelib qoldi. Hatto 1974-yilda qabul qilingan qayta tiklash loyihalari ham

byurokratik to‘siqlar va loqaydlik sababli qog‘ozda qolib ketdi.



13.1-rasm. Ko‘kaldosh madrasasi. XIX asr oxiridagi holati. Toshkent shahri.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Ko‘kaldosh madrasasining ma’naviy va me’moriy mavqeyini tiklash yangi bosqichga ko‘tarildi. 1991-yilda obidaning O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufiga o‘tkazilishi tizimli restavratsiya ishlariga yo‘l ochdi. Erkin Saidahmedov va Naim ota Jo‘rayev kabi tashabbuskorlarning sa’y-harakatlari, shuningdek, xalqning xayriya mablag‘lari hisobiga madrasaning shimoliy va janubiy peshtoqlari, ichki va tashqi tomonlari o‘zining dastlabki tarixiy holatiga keltirildi. Ayniqsa, 2002-yilda gidrologik muammolar (suv quvuri yorilishi) natijasida zaxlagan devorlar ostiga yangi poydevor qo‘yish va g‘ishtlarni almashtirish jarayonida mahoratli muhandis-restavratorlar Mirobid Mirzoahmedov va buxorolik Ahror Asqarovlarning hissasi katta bo‘ldi.

Bugungi kunda Ko‘kaldosh madrasasi nafaqat Islom me’morchiligining durdonasi, balki o‘zbek restavratsiya san’atining yuksak namunasidir. Binoning g‘arbiy qismidagi xonaqohlar va hujralarning tarixiy chizmalar asosida qayta bunyod etilishi, yodgorlikning poytaxt shaharsozlik ansamblidagi markaziy o‘rnini qaytadan

mustahkamladi. Ushbu tiklanish jarayoni xonliklar davri merosining mustaqil taraqqiyot davridagi yangi hayoti va madaniy o‘ziga xosligini ifodalaydi.




13.2-rasm. Ko‘kaldosh madrasasining rekonstruksiyadan keyingi holati.

Xuddi shunday mintaqaviy o‘ziga xoslikni Denovdagi Said Otaliq madrasasi misolida ham kuzatish mumkin bo‘lib, bu inshoot Buxoro me’morchilik maktabining Janubiy O‘zbekiston arxitekturasiga ko‘rsatgan kuchli ta’sirini rekonstruksiya qilish imkonini beradi. Said Otaliq madrasasining hovli perimetri bo‘ylab joylashgan ikki qavatli hujralar tizimi va seysmik chidamlilikni ta’minlovchi pishiq g‘ishtli ravoqlari uni oddiy xalq uylaridagi xom g‘isht va yog‘och sinchli konstruksiyalardan tubdan ajratib turgan. Monumental binolardagi murakkab koshinli kompozitsiyalar va geometrik girih naqshlari o‘sha davr badiiy hunarmandchiligi hamda texnologik darajasini ko‘rsatsa, an’anaviy xalq me’morchiligidagi "hovli" tizimi, ochiq ayvonlar va vassa-juftli shiftlar aholining iqlim sharoitiga moslashish mahoratini ifodalaydi. Xalq turar-joylarining "ichkari" va "tashqari" qismlarga ajratilishi mintaqaning diniy-etik normalarini me’moriy shaklga ko‘chirgan bo‘lsa, monumental inshootlar davlat mafkurasining barqarorligini vizual tarzda mustahkamlagan. Bunday kompleks


yondashuv xonliklar davri moddiy madaniyatining yaxlit manzarasini shakllantirishda hamda me’moriy merosni asrab-avaylash metodologiyasini takomillashtirishda asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Surxondaryo viloyatining Denov shahrida qad ko‘targan Said Otaliq madrasasi xonliklar davri me’morchiligining voha shaharsozligidagi eng noyob va mahobatli namunalaridan biri hisoblanadi. Tarixiy rekonstruksiya ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu ikki qavatli monumental inshoot XVI asrda Shayboniylar hukmronligi davrida, mashhur buxorolik me’mor usta Ahmad Mamat Buxoriy rahbarligida bunyod etilgan. Madrasa kompozitsion jihatdan Buxoro me’morchilik maktabining yirik vakillari, xususan, Ko‘kaldosh madrasasi an’analari asosida loyihalashtirilgan bo‘lib, bunday miqyosdagi o‘quv dargohi Surxondaryo hududida yagonaligi bilan ilmiy qiymatga ega. Inshootning ma’naviy asosi naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi, Bahouddin Naqshbandning vorisi va kuyovi Hazrat Xoja Alouddin Attor xotirasi bilan uzviy bog‘liqdir. Tarixiy manbalar, jumladan, "Tuhfat az-zoiriyn" asari Alouddin Attorni naqshbandiya silsilasining o‘n yettinchi shayxi sifatida e’tirof etadi. Olim 1389–1396-yillarda oilasi bilan Chag‘oniyon (hozirgi Denov) hududiga kelib joylashgan va 1400-yil 18-martda vafotidan so‘ng Sarmozor ota (hozirgi "Shayx Attor Valiy") qabristoniga dafn etilgan.


Said Otaliq madrasasining qurilishi Alouddin Attorning avlodlari tashabbusi bilan boshlanib, qariyb 26 yil davom etganligi uning naqadar murakkab va puxta muhandislik yechimiga ega ekanligidan dalolat beradi. Inqilobga qadar ushbu ma’rifat maskanida 400 nafarga yaqin talaba istiqomat qilgan hamda 33 nafar mudarrisdan saboq olgan, bu esa binoning nafaqat diniy, balki mintaqaviy intellektual markaz bo‘lganligini tasdiqlaydi. Sho‘rolar davrida yopib qo‘yilgan ushbu obida 1956–1960 va 1972–1973-yillarda ilmiy jihatdan o‘rganilgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan uning texnik holati ayanchli ko‘rinishga kelib qolgan. Sovet bosqini paytida madrasa ancha jiddiy zarar ko‘rgan. Madrasaning qarama-qarshi tomonida huddi shu

ko‘rinishdagi bino bo‘lganligini quyidagi rasmdan ham bilib olsak bo‘ladi.



13.3-rasm. 1910-yillarda Said Otaliq madrasasi ko‘rinishi.





13.4-rasm. 1920-1960-yillarda Said Otaliq madrasasi holati.





13.5-rasm. Said Otaliq madrasasining rekonstruksiyadan oldingi holati. (2018-yil)



13.6-rasm. Said Otaliq madrasasining rekonstruksiyadan keyingi holati.

1991-yilda qisqa muddatli faoliyatidan so‘ng bino qulash xavfi ostida qolganligi sababli, 2019-yilda Moddiy madaniy meros ob’ektlari milliy ro‘yxatiga kiritildi. Bugungi kunda ushbu tarixiy yodgorlikni restavratsiya qilish va uning negizida zamonaviy hunarmandchilik markazini tashkil etish orqali obidaning me’moriy qiyofasini saqlab qolish hamda uni turistik infratuzilmaga integratsiya qilish rejalashtirilgan bo‘lib hozirgi kunda inshoat to‘liq rekonstruksiya jarayonidan o‘tib o‘z holatiga qaytib, zamonaviy qiyofa kasb etdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1.Xonliklar davri shaharsozligidagi "ark-shahriston-rabod" uchlik tizimi hamda mudofaa devorlari qanday vazifalarni bajarganini izohlang.

2. Xon saroylari va oddiy xalq uylari o‘rtasidagi konstruktiv farqlar o‘sha davrdagi ijtimoiy tabaqalanishni qay darajada aks ettiradi?

3. Arxeologik topilmalar va saqlanib qolgan mehnat qurollari yordamida kulolchilik, temirchilik hamda to‘qimachilik kabi hunarlarni rekonstruksiya qiling.

4.Buxoro, Xiva va Qo‘qon shaharlaridagi binolarning naqshlari va qurilish uslubiga qarab ularni bir-biridan ajratib ko‘rsating.

Mavzuga oid video material:

Said Otaliq madrasasi haqida qo‘shimcha ma’lumotni ushbu Qr-kodni skannerlash orqali bilib olishingiz mumkin

14-MAVZU: O‘ZBEKISTON SOVET DAVRI TARIXIY REKONSTRUKSIYASI MASALALARI MANBA SIFATIDA

REJA:

1.Industrial me’morchilik va "Sotsialistik shahar" modeli rekonstruksiyasi

2. Agrar transformatsiya va gidrotexnik inshootlar arxeologiyasi

3. Moddiy turmush madaniyati va iste’mol ashyolari tahlili

1. O‘zbekistonning Sovet davri (1917–1991) tarixiy rekonstruksiyasi industrial modernizatsiya, agrar transformatsiya va urbanizatsiya jarayonlarini moddiy manbalar asosida tahlil qilishni taqozo etadi. Mazkur davrni ilmiy jihatdan qayta tiklashda birinchi navbatda an’anaviy sharqona shahar tuzilishidan sovet tipidagi industrial markazlarga o‘tish jarayoni va “Sotsialistik shahar” modeli o‘rganiladi. Rekonstruksiya manbasi sifatida ma’muriy binolarning me’moriy uslublari, xususan, Konstruktivizm, Stalinizm ampiri va Modernizm yo‘nalishlari hamda yirik sanoat zonalarining infratuzilmasi olinadi. Toshkent, Chirchiq va Olmaliq kabi shaharlardagi zavod-fabrikalar hamda 1960-yillardan boshlab shakllangan namunaviy turar-joy massivlari (mikrorayonlar) davrning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini tiklashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning Sovet davri (1917–1991) tarixiy rekonstruksiyasining birinchi va asosiy yo‘nalishi — an’anaviy turmush tarzining industrial shaharsozlik va “Sotsialistik shahar” modeli tomonidan egallanish jarayonidir. Bu davrda asrlar davomida shakllangan "ark-shahriston-rabod" ko‘rinishidagi milliy shaharsozlik tizimidan voz kechildi va uning o‘rniga markazlashgan, aholini jamoaviy nazorat qilishga moslashtirilgan urbanizatsiya modeli joriy etildi. Rekonstruksiya manbasi sifatida Toshkent, Chirchiq, Olmaliq va Navoiy kabi shaharlarning bosh rejalari xizmat qilib, ular orqali milliy mahallalarning buzilishi va aholining o‘ziga xos etnomadaniy muhitidan uzilishi jarayonlarini kuzatish mumkin. 1920–1930-yillardagi Konstruktivizm uslubida qurilgan ma’muriy binolar jamiyatning

an’anaviy qadriyatlardan uzoqlashishini, 1940–1950-yillardagi “Stalinizm ampiri” esa “milliy shakl” niqobi ostida totalitar tuzum ulug‘vorligini namoyish etishga qaratilganini moddiy jihatdan tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, 1950-yillarning oxiridan shakllangan Chilonzor, Sergeli va Yunusobod kabi mikrorayonlar tizimi aholini ommaviy ravishda shaxsiy hovli-joylardan ajratish va ularni davlat tomonidan to‘liq nazorat qilinadigan, standartlashtirilgan ko‘p qavatli panel uylarga joylashtirish siyosatining natijasidir.



14.1-rasm. Toshkent.1947-yil. Shota Rustaveli ko‘chasidagi turar joy majmuasi.

Bu mikrorayonlarning strukturasi, ulardagi bog‘cha va maktablarning joylashishi aholini mahalla an’analaridan uzoqlashtirish va "jamoaviy turmush tarzi"ga majburan moslashtirish modelini rekonstruksiya qilish imkonini beradi. Shunday qilib, industrial me’morchilik nafaqat bino va inshootlar majmuasi, balki sovet hokimiyatining milliy o‘zlikni cheklash va ijtimoiy hayotni markazlashtirishga qaratilgan strategiyasini o‘zida mujassam etgan eng yirik moddiy manbadir.

Toshkentning 1966-yilgi zilzilasi O‘zbekistonning Sovet davri tarixiy

rekonstruksiyasida shunchaki tabiiy ofat emas, balki asrlar davomida shakllangan milliy shaharsozlik an’analarini industrial-unifikatsiyalashgan modelga almashtirgan "keskin burilish nuqtasi" sifatida tahlil etiladi. Ushbu hodisa ma’muriy va mafkuraviy jihatdan "Eski shahar"ning an’anaviy mahalla tizimini yo‘qotish va uning o‘rnida markazlashgan boshqaruvga qulay bo‘lgan "Yangi sovet shahri"ni barpo etish uchun asosiy strategik bahona bo‘lib xizmat qildi.



14.2-rasm. 1966-yilgi Toshkentdagi zilzila oqibatlari

Zilziladan so‘ng shaharning tarixiy markazi, xususan, Qashqar kabi qadimiy mahallalar o‘rnida shakllangan yangi me’moriy ansambllar mustamlaka tuzumining muhandislik va mafkuraviy bosimini moddiy jihatdan isbotlovchi manbalardir. Mustaqillik maydoni (sobiq Lenin maydoni) atrofidagi monumental binolar majmuasi mahalliy me’morchilikning ixchamligidan voz kechib, imperiya ulug‘vorligini ko‘rsatuvchi keng miqyosli urbanizatsiyaga o‘tilganini anglatadi. Bu davrda barpo etilgan Sovet modernizmi namunalari — Xalqlar do‘stligi saroyi, "O‘zbekiston" mehmonxonasi va Toshkent teleminorasi kabi inshootlar respublikaning industrial salohiyatini namoyish etish bilan birga, shaharning tarixiy-etnik qiyofasini "internatsional" ko‘rinishga keltirish strategiyasining moddiy in’ikosidir. Arxeologik va me’moriy nuqtayi nazardan, zilziladan keyingi qurilishlarda qo‘llanilgan temir-beton konstruksiyalar va milliy naqshlar uyg‘unligi yangi bir muhandislik yondashuvini shakllantirdi. Biroq, bu "Toshkent maktabi" deb atalgan yo‘nalish mohiyatan an’anaviy xom g‘isht va yog‘och sinchli uylarning o‘rnini egallagan standartlashtirilgan davlat qurilish industriyasi edi. Bu transformatsiya aholining asriy qurilish madaniyatidan uzilishiga va davlat tomonidan nazorat qilinadigan qurilish me’yorlariga to‘liq qaram bo‘lishiga olib keldi.

1966-yildan so‘ng Ittifoq respublikalari yordamida tezkor sur’atlarda barpo etilgan Sergeli, Chilonzor va Yunusobod kabi mikrorayonlar tizimi aholini ommaviy joylashtirish va ularni shaxsiy hovli-joylardan ko‘p qavatli uylarga ko‘chirish siyosatining natijasidir. Bu dahalarning strukturaviy tuzilishi — bog‘cha, maktab va xizmat ko‘rsatish obyektlarining qat’iy reja asosida markazlashishi aholining kundalik turmushini davlat nazorati ostiga olish imkonini berdi. Mahalla institutining o‘rnini egallagan ushbu mikrorayon(kichik tuman)lar tizimi aholining o‘ziga xos etnomadaniy muhitidan uzilishini va "sovet turmush tarzi" deb atalgan bir xillashtirilgan qolipga tushishini tezlashtirdi.







14.3-rasm. 1966-yilgi zilziladan keyingi qayta tiklashdan so‘ng Toshkent shahrining qiyofasi.

1977-yilda ishga tushirilgan Toshkent metropoliteni zilziladan keyingi modernizatsiyaning eng yirik texnologik va badiiy manbasi hisoblanadi. Metropoliten stansiyalarining bezaklari — sovet monumental san’ati va muhandislik tafakkurining sintezi bo‘lib, u yer osti inshootlarida ham mafkuraviy targ‘ibotni davom ettirish vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Har bir stansiya me’moriy jihatdan imperiyaning madaniy "g‘alaba"larini targ‘ib qiluvchi ochiq muzey ko‘rinishini oldi. Xulosa qilib aytganda, 1966-yilgi zilzila va undan keyingi qurilish jarayonlari milliy shaharsozlik me’rosini inkor etish evaziga industrial-texnologik

qudratni ko‘z-ko‘z qilish va aholini markazlashgan ijtimoiy tizimga bo‘ysundirish strategiyasining yaqqol namunasidir.

Zilzila oqibatlarini bartaraf etish bahonasida shaharning tarixiy markazidagi ko‘plab qadimiy obidalar va turar-joylar buzib tashlandi. Ularning o‘rnida barpo etilgan Sovet modernizmi namunalari (Xalqlar do‘stligi saroyi, "O‘zbekiston" mehmonxonasi) shaharning tarixiy qiyofasini o‘zgartirib, uni bir xillashtirilgan (unifikatsiyalangan) sovet markaziga aylantirdi. "Tashselmash", "O‘zkabel" yoki Chirchiq elektr-kimyo kombinati kabi sanoat gigantlari esa O‘zbekiston iqtisodiyotining ittifoq ehtiyojlariga moslashtirilgan xomashyo bazasiga aylantirilganini ko‘rsatuvchi ashyoviy dalillardir.

O‘zbekistonning Sovet davri agrar tarixini rekonstruksiya qilishda gidrotexnik inshootlar va irrigatsiya tarmoqlari nafaqat muhandislik yutuqlari, balki "paxta mustamlakachiligi" va inson resurslaridan ayovsiz foydalanish tizimini ko‘rsatuvchi eng yirik moddiy dalillar hisoblanadi. O‘zbekiston iqtisodiyotini sovet markazining xomashyo bazasiga aylantirgan "paxta yakka-hokimligi" davrini tahlil qilishda 1939-yilda rekord darajadagi 45 kun ichida qazib bitkazilgan 270 kilometrlik Katta Farg‘ona kanali markaziy o‘rin tutadi. Ushbu kanal sovet davri "hashar" tizimining eng yirik namunasi bo‘lib, u tarixiy rekonstruksiyada ommaviy majburiy mehnatning moddiy isboti bo‘lib xizmat qiladi. Arxeologik va arxiv ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, kanal qurilishida 160 mingdan ortiq kishi qatnashgan bo‘lsa-da, ularning asosiy quroli ketmon, bo‘yra-savat va belkurak bo‘lgan, bu esa davrning "industrial g‘alabasi" texnika kuchi bilan emas, balki xalqning ayovsiz jismoniy kuchi hisobiga erishilganini tasdiqlaydi. Qurilish maydonlarini rekonstruksiya qilish orqali o‘sha paytda hasharchilarning ochiq osmon ostida, sanitariya normalariga mutlaqo javob bermaydigan og‘ir sharoitlarda yashagani va ovqatlangani inson omilining tizimli ravishda qadrsizlanganini ko‘rsatadi.


Mirzacho‘l va Surxon-Sherobod dashtlarining o‘zlashtirilishi hamda Janubiy

Surxon suv ombori kabi yirik gidrotexnik inshootlarning barpo etilishi aholini o‘z asriy yashash joylaridan majburiy ko‘chirish jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu loyihalar doirasida o‘nlab tarixiy qishloqlar va qadimiy qabristonlar suv ostida qoldirilgan, aholi esa o‘z ixtiyorisiz cho‘l hududlarida tashkil etilgan yangi ”sovxoz shaharchalari”ga ko‘chirilgan bo‘lib, bu an’anaviy dehqonchilik madaniyati va jamoaviy aloqalarning uzilishiga olib kelgan.

Gidrotexnik infratuzilmani rekonstruksiya qilish suv resurslarining faqat paxta uchun yo‘naltirilishi hududda sho‘rlanishning ortishiga va pirovardida Orol dengizining qurishi kabi global ekologik halokatga sabab bo‘lganini ilmiy asoslaydi. Shu bilan birga, qishloq joylarida saqlanib qolgan Mashina-traktor stansiyalari (MTS) qoldiqlari dehqonlarni davlat nazoratidagi yagona reja asosida ishlashga majburlovchi tizimning asosi bo‘lib, dehqonni o‘z yerida mustaqil qaror qabul qilish huquqidan mahrum qilganini ko‘rsatadi. Kuzgi yig‘im-terim davridagi vaqtinchalik dala shiyponlari va paxta quritish maydonlari kabi moddiy manbalar esa nafaqat qishloq aholisining, balki o‘quvchi va talabalarning ham "paxta fronti"ga majburan safarbar etilishini aks ettiradi. Shunday qilib, Sovet davri gidrotexnik inshootlari va agrar infratuzilmasi O‘zbekistonni xomashyo bazasiga aylantirish uchun xizmat qilgan ulkan mexanizmning ashyoviy qismlari bo‘lib, ular orqali davrni rekonstruksiya qilish xalqning og‘ir mehnati va tabiiy boyliklarining markaziy manfaatlar yo‘lida ayovsiz sarflanganini xolis yoritishga imkon beradi.

O‘zbekistonning Sovet davri agrar va industrial tarixini rekonstruksiya qilishda Farhod gidrouzeli (Farhod GES) va unga bog‘liq infratuzilmalar majburiy safarbarlik hamda "zarbdor qurilishlar" strategiyasini ochib beruvchi eng yirik moddiy manbalardan biri hisoblanadi. 1942–1948-yillarda Sirdaryo bo‘yida barpo etilgan ushbu ulkan inshoot Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi tiklanish davrida inson resurslaridan qanchalik ayovsiz foydalanilganini ko‘rsatuvchi ashyoviy dalildir. Qurilish maydonlarining arxeologik va texnik tahlili shuni tasdiqlaydiki,

Farhod GESi qurilishiga 70 mingdan ortiq kishi, asosan mahalliy dehqonlar va safarbar etilgan aholi jalb qilingan bo‘lib, ularning mehnat sharoiti inson chidamliligi chegarasidan o‘tib ketgan. Rekonstruksiya manbalari sifatida qurilishda ishlatilgan ibtidoiy asbob-uskunalar — qo‘l zambillari, ketmonlar va og‘ir tuproq ishlari qo‘lda bajarilganini ko‘rsatuvchi qoldiqlar sovet industrial qudrati aslida xalqning jismoniy qurbonligi evaziga qurilganini isbotlaydi.



14.4-rasm. Farxod Gesi qurilishi jarayoni.

Shuningdek, Mirzacho‘lni o‘zlashtirish (1950-1960-yillar) va uning doirasida barpo etilgan "Yangi Toshkent", "Paxtakor" kabi sun’iy shaharchalar agrar monokultura(yakkahokimlik)ni kengaytirish yo‘lida amalga oshirilgan "gidro-ekspansiya"ning yorqin misolidir. Bu hududlardagi irrigatsiya kanallari (Markaziy va Janubiy Mirzacho‘l kanallari) va kollektor-drenaj tarmoqlari o‘sha davrda yerning tabiiy imkoniyatlarini hisobga olmagan holda, faqat paxta maydonlarini kengaytirishga qaratilgan ekstensiv iqtisodiy modelni aks ettiradi. Ushbu infratuzilmani rekonstruksiya qilish jarayonida dehqonlarning an’anaviy yashash tarzi buzilib, ular markazlashgan, xizmat ko‘rsatish va yashash sharoitlari davlat tomonidan bir xillashtirilgan "sovxoz-posyolka"lariga majburan ko‘chirilgani ma’lum bo‘ladi.

MTS (Mashina-traktor stansiyalari) xarobalari va sovet davrida qurilgan yirik dala shiyponlari esa qishloq aholisining, ayniqsa, ayollar va bolalarning yig‘im-terim davrida oylar davomida og‘ir dala sharoitida, sanitariya normalaridan yiroq

holatda ishlashga majbur qilinganini xolis rekonstruksiya qilish imkonini beradi. Shunday qilib, Farhod GESidan tortib Surxon dashtlarigacha bo‘lgan barcha gidrotexnik inshootlar O‘zbekistonni "paxta zavodi"ga aylantirish yo‘lida sarflangan insoniy va tabiiy resurslarning real ko‘lamini ko‘rsatuvchi moddiy tarixiy hujjatlardir.

1958-1963-yillarda Janubiy Surxon suv omborining barpo etilishi Surxon-Sherobod vohasi uchun zarur bo‘lgan suv taqchilligiga barham berdi. Ushbu inshoot daryo oqimini tartibga solish orqali nafaqat qishloq xo‘jaligini, balki o‘nlab yangi tashkil etilgan aholi punktlarini yil davomida toza ichimlik va xo‘jalik suvi bilan ta’minlash imkonini yaratdi. Ilgari inson yashashi qiyin bo‘lgan qaqroq dashtlarda zamonaviy muhandislik yechimlari asosida yangi hayot hududlari-Sherobod cho‘llaridagi yangi maskanlar qad ko‘tardi. Bu hududlarda maktablar, shifoxonalar va madaniyat uylari barpo etilib, minglab oilalar yangi uy-joy va ish o‘rinlari bilan ta’minlangani davrning ijtimoiy modernizatsiya ko‘lamini ko‘rsatadi. Ushbu gidroinshootni barpo qilish jarayonida sovet agrar siyosatining ekstensiv xarakteri yaqqol ko‘zga tashlanadi: suv ombori qurilishi munosabati bilan vohaning qadimiy sug‘orish tizimlari buzilib, ularning o‘rnini markazlashgan va faqat paxta monokultura(yakkahokimlik)siga xizmat qiluvchi Amu-Zang va Sherobod kanallari kabi yirik magistral tarmoqlar egalladi.

Markaz tomonidan bi, bu jarayon aholining estetik didini bir xillashtirish (unifikatsiya) quroliga aylandi. Bunga yorqin misol sifatida 1950-yillardan boshlab Toshkent chinni zavodida ommaviy ishlab chiqarilgan "Paxtagul" uslubidagi chinni buyumlarini keltirish mumkin. Ushbu uslub milliy ramz hisoblangan paxta chanoqlari va sovet



14.5-rasm. Toshkent shahridagi binolarga chizilgan mozaikalar

sanoat texnologiyasining o‘ziga xos sintezi bo‘lib, o‘zbek xonadonlarining an’anaviy dasturxon madaniyati sovet sanoat qoliplariga moslashtirilganini ko‘rsatadi.

"Paxtagul" motivi sovet davri O‘zbekistonida universal dekorativ tizim darajasiga ko‘tarildi. Bu metod nafaqat chinni zavodining mahsulotlarida, balki kundalik ko‘zga tashlanadigan barcha moddiy ob’ektlarda — maktablar, bog‘chalar va davlat idoralari atrofidagi yirik beton to‘siqlar (zaborlar), ko‘p qavatli uylarning balkon qismlarida ommaviy ravishda qo‘llanilgan. Binolarni quyoshdan himoya qilish uchun ishlatiladigan beton panjaralar (pajansalar) ko‘pincha stilizatsiya qilingan paxta chanoqlari shaklida ishlangan bo‘lib, bu "industriya usulidagi dekoratsiya" murakkab ganchkorlik san’ati o‘rnini egallagan arzon va tezkor muhandislik yechimi edi. Ushbu ashyoviy dalillar davlatning iqtisodiy ixtisoslashuvini (paxtachilikni) aholi ongiga vizual muhit orqali har qadamda singdirish strategiyasini ko‘rsatadi.Shu bilan birga, o‘sha davrga xos bo‘lgan maishiy texnika vositalari, xususan, "ZIL" sovutkichlari yoki "Chayka" tikuv mashinalarining uzoq yillar davomida ta’mirlanib ishlatilishi aholining moddiy farovonligi haqida emas, balki "taqchillik" (defitsit) iqtisodiyoti va ashyolarga bo‘lgan o‘ziga xos ehtiyotkorona munosabatni rekonstruksiya qilishga xizmat qiladi. Aholining tashqi qiyofasi va uy interyeri ham davlat tomonidan belgilangan

minimal me’yorlar asosida shakllangan. Ommaviy ishlab chiqarilgan standart kiyim-kechaklar (shirpotreb) ijtimoiy tabaqalanishni vizual kamaytirishga qaratilgan bo‘lsa-da, tikuvchilik sexlari va shaxsiy buyurtmalarning saqlanib qolgani aholining bir xillikka nisbatan madaniy qarshiligini isbotlaydi.

Transport va kommunikatsiya tizimi sovet jamiyatining nafaqat harakatlanish imkoniyatlarini, balki ijtimoiy iyerarxiyasini ham aks ettiruvchi yirik manba hisoblanadi. 1977-yilda ishga tushirilgan Toshkent metropoliteni stansiyalari sovet monumental san’atining cho‘qqisi sifatida xizmat qilib, ulardagi me’moriy mavzular davlatning mafkuraviy ustuvorliklarini tasdiqlaydi. Temir yo‘l vokzallarining ulug‘vorligi va transport infratuzilmasidagi qat’iy tartib aholi harakatlanishining davlat nazoratida bo‘lganini, shaxsiy avtomobillarga ega bo‘lishdagi uzoq yillik navbatlar esa moddiy tabaqalanishning ko‘zgusi ekanini ochib beradi. Iste’mol ashyolari tahlili orqali hatto rasmiy mafkuradan tashqari shakllangan "ikkilamchi hayot" — import tovarlar va chet el valyutasi bilan bog‘liq yashirin iste’mol madaniyatini ham rekonstruksiya qilish mumkin. Xulosa qilib aytganda, moddiy turmush madaniyatini o‘rganish sovet davri O‘zbekistonini shunchaki statistik ma’lumotlar emas, balki real insonlar taqdiri va ularning ashyoviy dunyosi orqali xolis gavdalantirishga imkon beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. 1966-yilgi Toshkent zilzilasi an’anaviy mahalla tizimidan voz kechib, markazlashgan industrial mikrorayonlarga o‘tishda qanday "strategik burilish nuqtasi" vazifasini o‘tadi?
2. Katta Farg‘ona kanali va Farhod GESi kabi inshootlar qurilishidagi "texnologik nomutanosiblik" (industrial reja va qo‘l mehnati) o‘sha davrdagi "hashar" tizimining real mohiyatini qanday ochib beradi?
3. Janubiy Surxon suv ombori misolida aholini suv bilan ta’minlash va yangi infratuzilma yaratish jarayonlarining aholini majburiy ko‘chirish hamda ekologik oqibatlar bilan bog‘liq ziddiyatli tomonlarini tushuntiring.

15-MAVZU: MUSTAQIL O‘ZBEKISTON DAVRI TARIXIY REKONSTRUKSIYASI MASALALARI MANBA SIFATIDA

REJA:

1. Milliy davlatchilik timsollari va monumental arxitekturaning shakllanishi.

2. Zamonaviy urbanizatsiya va shahar muhitining texnologik transformatsiyasi.

3. Milliy o‘zlikning tiklanishi va madaniy meros ob’ektlarini restavratsiya qilish masalalari.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyat hayotining barcha jabhalarida bo‘lgani kabi me’morchilik va shaharsozlik sohasida ham tub burilish davri boshlandi. Sovet davriga xos bo‘lgan bir qolipdagi beton konstruksiyalar, monumentalizm va mafkuraviy cheklovlar o‘rnini milliy o‘zlikni anglatuvchi, tarixiy an’analarga tayangan yangi uslub egalladi. Sobiq ittifoq davrida qurilgan ko‘plab majmualar markazlashgan tuzum manfaatlariga xizmat qilgan bo‘lsa, mustaqillik yillarida barpo etilgan obidalar yangi davlatning suvereniteti, xalqning asriy orzulari va ma’naviy qadriyatlarini aks ettirishga qaratildi.

Milliy davlatchilik timsollari va monumental arxitekturaning shakllanishi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi hamda xalqning tarixiy xotirasini tiklashda muhim manba vazifasini o‘tamoqda.Ushbu yo‘nalishdagi eng muhim ob’ektlardan biri Toshkent shahrining markazida qad rostlagan “Mustaqillik va ezgulik” monumentidir. Mazkur majmuaning me’moriy yechimi sovet davri haykaltaroshligidan mutlaqo farq qilib, undagi ramziy ma’nolar davlat mustaqilligi va porloq kelajak g‘oyasini o‘zida mujassam etgan. 1992-yilda poytaxt markazida “Mustaqillik va ezgulik” monumentining barpo etilishi yangi davr me’morchiligining ilk va eng yirik qadami bo‘ldi. Ushbu majmua sovet davridagi "Lenin" maydoni tushunchasini butunlay o‘zgartirib, uning o‘rniga erkinlik timsoli bo‘lgan O‘zbekiston xaritasining oltin globusini va Ezgulik arkasini olib kirdi.



15.1-rasm. “Mustaqillik” monumenti. Toshkent shahri.

Monumentning me’moriy yechimi va uning atrofidagi keng ko‘lamli obodonlashtirish ishlari mamlakatning siyosiy mustaqilligini ashyoviy jihatdan tasdiqladi.

Monument tarkibidagi “Baxtiyor ona” haykali va O‘zbekiston xaritasi aks etgan

oltin rangli globus milliy ozodlikning moddiy in’ikosi hisoblanadi. 2000-yillarning boshiga kelib, milliy tarixning eng og‘riqli va yopiq sahifalarini yoritish maqsadida "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasining barpo etilishi O‘zbekiston yangi tarixshunosligida tub burilish yasadi. Ushbu majmua sovet davri mafkurasi tomonidan o‘nlab yillar davomida "xalq dushmanlari" deb tamg‘alangan va xotiradan o‘chirishga urinilgan shaxslarning nomini oqlash va ularga nisbatan tarixiy adolatni tiklashning moddiy timsoliga aylandi. Majmuaning me’moriy yechimi an’anaviy sharqona uslubda, xususan, milliy ayvonlar, naqshinkor ustunlar va moviy gumbazli rotunda shaklida bo‘lib, u ziyoratchilarda sokinlik va chuqur hurmat hissini uyg‘otadi.



15.2-rasm. “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi. Toshkent shahri.

Majmua tarkibidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” davlat muzeyining tashkil etilishi esa sovet mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini faqat his-tuyg‘ular bilan emas, balki aniq ashyoviy manbalar va arxiv hujjatlari orqali tiklash imkonini berdi. Muzey ekspozitsiyasidan o‘rin olgan shaxsiy buyumlar, qamoqxona hujjatlari va qatag‘on etilgan jadidlar faoliyatiga oid eksponatlar o‘sha davrdagi siyosiy tazyiqlar ko‘lamini boricha ko‘rsatib beradi. Ayniqsa, majmuaning ramziy qabri (sag‘ana) ustiga o‘rnatilgan yodgorlik toshlari xalqning ozodlik yo‘lidagi kurashini

vizual ravishda namoyon etadi. Shunday qilib, "Shahidlar xotirasi" majmuasi shunchaki me’moriy inshoot emas, balki sovet davri tarixshunosligida inkor etilgan va yashirilgan haqiqatlarni moddiy shaklda ochiqlab beruvchi jonli tarixiy hujjat vazifasini o‘tamoqda. 1990-yillarning o‘rtalariga kelib, O‘zbekiston o‘zining davlatchilik asoslarini mustahkamlashda buyuk ajdodlar siymosiga, xususan, Amir Temur shaxsiga asosiy tayanch sifatida qaradi. Sovet davridagi "bosqinchi" tamg‘asini butunlay rad etib, sohibqironni markazlashgan davlat asoschisi va madaniyat homiysi sifatida qayta tiklash jarayoni boshlandi. Bu harakatning eng yirik ashyoviy isboti sifatida 1993-yilda poydevori qo‘yilgan va 1996-yilda tantanali ravishda ochilgan Temuriylar tarixi davlat muzeyini keltirish mumkin. Muzeyning me’moriy yechimi an’anaviy sharqona gumbaz uslubida bo‘lib, u nafaqat eksponatlar saqlanadigan joy, balki yangi davr mafkuraviy markaziga aylandi.



15.3-rasm. Amir Temur haykali.Toshkent shahri.

Shu bilan bir qatorda, 1996-yilda Amir Temurning 660 yilligi munosabati bilan mamlakatning strategik shaharlari — Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda sohibqiron haykallarining o‘rnatilishi monumental san’atdagi tub burilish bo‘ldi. Sobiq ittifoq davri rahbarlarining haykallari o‘rnini egallagan ushbu monumentlar milliy g‘urur va tarixiy adolat ramzi sifatida talqin etildi. Toshkent markazidagi ot ustidagi Amir Temur siymosi mamlakatning harakatdagi qudrati va barqarorligini, Samarqanddagi taxtda o‘tirgan holati esa donishmandlik va davlatchilik an’analarini ashyoviy jihatdan namoyon etdi. Ushbu monumental o‘zgarishlar sovet davri tarixiy xotirasini butunlay yangilash va mustaqil davlatning o‘z o‘tmishiga bo‘lgan yangicha yondashuvini moddiy shaklda muhrlab qo‘ydi.

1990-yillarning oxiriga kelib, O‘zbekiston arxitekturasida dunyoviy davlatchilik asoslarini mustahkamlash bilan birga, diniy-ma’rifiy qadriyatlarni tizimli ravishda tiklash jarayoni moddiy shaklda namoyon bo‘ldi. 1999-yilda Toshkent islom universitetining tashkil etilishi va uning binosi foydalanishga topshirilishi sovet davridagi ateistik mafkuradan butunlay voz kechilganining ashyoviy isbotiga aylandi. Ushbu oliy ta’lim muassasasi me’moriy jihatdan qadimiy madrasalar an’analarini zamonaviy o‘quv korpuslari bilan uyg‘unlashtirib, mamlakatning islom sivilizatsiyasi markazlaridan biri sifatidagi maqomini qayta tiklashga xizmat qildi. Universitet hududidagi tarixiy obidalar va yangi barpo etilgan binolar majmuasi diniy ta’limning davlat nazorati va ko‘magida rivojlanishining yangi bosqichini ko‘rsatib berdi.

Xuddi shu yili Oliy Majlis Qonunchilik palatasi binosining qurib bitkazilishi mamlakatning parlamentarizm an’analari va demokratik tamoyillarga sodiqligini monumental tarzda muhrlab qo‘ydi. Sobiq ittifoq davridagi ma’muriy binolardan farqli o‘laroq, yangi parlament binosi o‘zining salobati, ochiqligi va milliy me’morchilik unsurlari bilan ajralib turdi. Binoning me’moriy yechimida qo‘llanilgan ganchkorlik, o‘ymakorlik va zamonaviy shisha konstruksiyalari milliy

o‘zlik va jahon standartlari sintezini ifodaladi. Ushbu ikki yirik inshoot — islom universiteti va qonunchilik palatasi — bir vaqtning o‘zida ham ma’naviy, ham siyosiy mustaqillikning moddiy ustunlari sifatida O‘zbekistonning sovet davridan keyingi yangi qiyofasini to‘liq shakllantirdi.



15.4-rasm. Oliy Majlis binosi.Toshkent shahri.

2000-yillarning birinchi o‘n yilligida O‘zbekiston me’morchiligida inson omili, oila muqaddasligi va davlatning xalqaro nufuzini aks ettiruvchi monumental ob’ektlar markaziy o‘ringa chiqdi. 2002-yilda Toshkentda Xotira maydonining qayta tiklanishi va “Motamsaro ona” haykali majmuasining to‘liq shakllantirilishi sovet davridagi "Noma’lum askar" kontseptsiyasidan milliy motam va xotira falsafasiga o‘tishni anglatdi. Majmuadagi xotira kitoblari va mangu olov atrofidagi milliy ayvonlar Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan o‘zbekistonliklarning

nomlarini ashyoviy jihatdan abadiylashtirdi. Ushbu yodgorlik sobiq ittifoqning g‘alaba haykallaridan farqli o‘laroq, urushning fojiaviy oqibatlarini va o‘z farzandini kutayotgan ona timsolidagi milliy matonatni ifodaladi.



15.5-rasm. Motamsaro ona haykali.Toshkent shahri.

2005-yilda Mustaqillik maydonida Ezgulik arkasi va Baxtiyor ona haykalining barpo etilishi maydonning mafkuraviy kompozitsiyasini to‘liq yakunladi. Agar "Motamsaro ona" o‘tmishdagi yo‘qotishlar ramzi bo‘lsa, "Baxtiyor ona" o‘z farzandini bag‘riga bosib turgan holatda mamlakatning porloq kelajagi va yosh avlodga bo‘lgan g‘amxo‘rligini moddiy shaklda namoyon etdi. Ezgulik arkasi ustidagi durnalar esa milliy ozodlik va tinchlik timsoli sifatida maydonning umumiy me’moriy yechimiga yuksak ma’no yukladi. Bu o‘zgarishlar sovet davri maydonlariga xos bo‘lgan harbiy-siyosiy ruhni butunlay ijtimoiy-gumanitar

mazmun bilan almashtirdi.

